Endometriozni uzoq vaqt davomida davolashning nomuvofiq tashkil etilgan tizimi jarayonning tarqalishiga olib kelishi mumkinligini, u esa, o'z navbatida, keyingi samarali davoni qiyinlashtirishini ta'kidlash joiz. Endometrioz rivojlanishining nihoyatda ko'p turli patogenetik omillari borligini hisobga olib, har bir bemorga o'zining shaxsiy umrbod olib borish rejasini, ya'ni endometriozli bemorning menejmentini tuzish zarur. Davolash rejasi ayolning yoshi, jarayonning tarqalganlik darajasi, klinik ko'rinishlari va bemorning reproduktiv rejalariga qarab ishlab chiqiladi [10,13,15]. Masalan, reproduktiv funksiyasini bajarib bo'lgan bemorlarda I-chi darajali terapiya og'riq sindromini bartaraf etish hisobiga hayot sifatini yaxshilash hisoblanadi [18,19,21]. Infiltrativ endometrioz tufayli o'tkaziladigan operatsiyalar texnik jihatdan murakkab, travmatik bo'lib, asoratlar rivojlanishining yuqori xavfi bilan kechadi, tajribali jarrohning ishtirokini va multidistsiplinar yondashuvni (ginekolog, jarroh, urolog) talab etadi [17,19,21,22,23].

Afsuski, bepustligining sababi endometrioz bo'lgan bemorlar davolash usullarining mavjud klassik yondashuvlari uchun yomon nomzod hisoblanadi [1,2,4,5,6]. I-II-darajadagi endometriozli (rAFS/ASRM - revised American Society for Reproductive Medicine classification of endometriosis tasnifi bo'yicha) [8,9,10,11] bemorlar uchun laparoskopik kirish orqali jarrohlik davolash (ablyatsiya va eksiziya) o'z-o'zidan homiladorlik ro'y berishining yuqori kumulyativ ta'siri bilan tavsiflanadi. Noma'lum sababli bepustlik rivojlanishida va III-IV-darajadagi endometriozli bemorlarda qo'llaniladigan laparoskopik jarrohlik - o'z-o'zidan sodir bo'ladigan homiladorlikka erishish uchun eng yaxshi yondashuv ekanligi isbotlangan [ESHRE, Evidence-based guideline: unexplained infertility // Human Reproduction, 2023, 38(10), 1881-1890]. Biroq, hanuzgacha davolashning qaysi usuli - EKUdan oldin o'tkaziladigan operatsiya yoxud "birinchi darajali" davolash usuli sifatida EKU samaraliroq

ekanligi haqidagi savol ochiqlicha qolgan. Mazkur masalaning muhokamasi dunyodagi barcha tibbiy kongresslarda faol davom etmoqda. Jarrohlik yo'li bilan davolash endometriozning har qanday shakllarida an'anaviy tarzda asosiy davolash varianti bo'lgan. Ammo yordamchi reproduktiv texnologiyalarning paydo bo'lishi bilan endometrioz va bepustlik qayd etilgan bemorlarni davolashga konservativ yondashuvni yanada kengaytirish imkoniyati vujudga keldi. Insonning ko'payishi va embriologiyasi bo'yicha Yevropa jamiyatining (ESHRE) ma'lumotlariga ko'ra, endometrioz bilan bog'liq bo'lgan bepustlikni davolash uchun, ayniqsa bachadon naylarining o'tuvchanligi buzilganida va/yoki boshqa davolash usullari muvaffaqiyatsiz bo'lganida, yordamchi reproduktiv texnologiyalarni qo'llash tavsiya etiladi. Shuningdek, klinitsistlar YORTni operatsiyadan keyin qo'llashlari mumkin, chunki endometrioz qaytalanishining kumulyativ holati tuxumdonlar stimulyatsiyasidan keyin ko'paymaydi [14,15,17]. Biroq barcha tavsiyalar endometriozning yengil shakllariga taalluqli bo'lib, og'ir shakllarni o'z ichiga olmaydi. YORT protokolidan oldin jarrohlik yo'li bilan davolash reproduktiv natijalarni yaxshilamasligi, YORTning qo'llanilishi esa og'ir og'riqli sindromdan tashqari holatlarda "birinchi darajali" terapiya bo'lib hisoblanishi haqida dalolat beruvchi ma'lumotlar mavjud [2,4,7,9]. Qator mualliflarning fikricha, jarrohlik yo'li bilan davolash endometriozning og'ir shakllari tufayli kelib chiqqan bepustlikni bartaraf etishda eng samarali bo'lib hisoblanadi [22,23,24].

Shunday qilib, adabiyotda endometriozning og'ir shakllari va bepustlik qayd etilgan bemorlarga bepustlikka qarshi kurash natijalarini yaxshilash maqsadida endometriozning chuqur tugunlarini olib tashlashni (hattoki EKU oldidan ham) tavsiya etishning dalillari mavjud emas, biroq ushbu ayollar ko'pincha kompleks davolashni talab etadigan chanoqning surunkali og'riqlaridan aziyat chekishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Гончарова М. А., Петров Ю. А., Кислякова Н. Н. Генитальный эндометриоз: основные направления диагностики и лечения // Научное обозрение. Медицинские науки. – 2020. – № 2. – С. 5-9;
2. Давыдов А. И. и др. Эндометриоз и окислительный стресс. Обоснование стратегии лечения при эндометриоз-ассоциированном бесплодии // Вопросы гинекологии, акушерства и перинатологии. – 2023. – Т. 22. – № 1. – С. 69-75
3. Дубровина С. О., Берлим Ю. Д. Медикаментозное лечение боли, связанной с эндометриозом // Акушерство и гинекология. – 2019. – Т. 2. – С. 34-40;
4. Меджидова А. М., Эседова А. Э. Актуальные вопросы диагностики и лечения бесплодия у женщин с внутренним генитальным эндометриозом // Research'n Practical Medicine Journal. – 2017. – Т. 4. – № 4. – С. 89-98.;
5. Оразов М. Р., Радзинский В. Е., Орехов Р. Е. Эффективность терапии эндометриоз-ассоциированной тазовой боли, резистентной к хирургическому лечению // Гинекология. – 2021. – Т. 23. – № 4. – С. 314-323.;
6. Agarwal S. K. et al. Clinical diagnosis of endometriosis: a call to action // American journal of obstetrics and gynecology. – 2019. – Т. 220. – № 4. – С. 354. e1-354. e12.; Andres M. P. et al. Extrapelvic endometriosis: a systematic review // Journal of minimally invasive gynecology. – 2020. – Т. 27. – № 2. – С. 373-389;
7. Arcoverde F. V. L. et al. Surgery for endometriosis improves major domains of quality of life: a systematic review and meta-analysis // Journal of minimally invasive gynecology. – 2019. – Т. 26. – № 2. – С. 266-278.
8. Bauşic A. et al. Transvaginal ultrasound vs. magnetic resonance imaging (MRI) value in endometriosis diagnosis // Diagnostics. – 2022. – Т. 12. – № 7. – С. 1767.
9. Becker C. M. et al. ESHRE guideline: endometriosis // Human reproduction open. – 2022. – Т. 2022. – № 2. – С. hoac009
10. Bernays V. et al. Qualitative and quantitative aspects of sex life in the context of endometriosis: a multicentre case control study // Reproductive biomedicine online. – 2020. – Т. 40. – № 2. – С. 296-304;
11. Craig E. V., Shannon L. A. M., Andreotti R. F. The complementary role of ultrasound and magnetic resonance imaging in the evaluation of endometriosis: a review // Ultrasound Quarterly. – 2020. – Т. 36. – № 2. – С. 123-132.;
12. Chapron C. et al. Rethinking mechanisms, diagnosis and management of endometriosis // Nature Reviews Endocrinology. – 2019. – Т. 15. – № 11. – С. 666-682.;
13. Chen-Dixon K. et al. Effectiveness of ultrasound for endometriosis diagnosis // Current Opinion in Obstetrics and Gynecology. – 2022. – Т. 34. – № 5. – С. 324-331
14. Guerriero S. et al. Accuracy of transvaginal ultrasound for diagnosis of deep endometriosis in the rectosigmoid: systematic review and meta-analysis // Ultrasound in Obstetrics & Gynecology. – 2016. – Т. 47. – № 3. – С. 281-289;
15. Indrielle-Kelly T. et al. Diagnostic accuracy of ultrasound and MRI in the mapping of deep pelvic endometriosis using the International Deep Endometriosis Analysis (IDEA) consensus // BioMed research international. – 2020. – Т. 2020. – № 1. – С. 3583989;
16. Kido A. et al. MRI in the Diagnosis of Endometriosis and Related Diseases // Korean journal of radiology. – 2022. – Т. 23. – № 4. – С. 426.
17. Kulvinder K K, Gautam A, Mandeep S. Current Role of Surgery in Endometriosis; Indications and Progress. Surg Med Open Acc J. 1(5). SMOAJ.000521.2018. DOI: 10.31031/SMOAJ.2018.01.00052
18. Martire F. G. et al. Adolescence and endometriosis: symptoms, ultrasound signs and early diagnosis // Fertility and sterility. – 2020. – Т. 114. – № 5. – С. 1049-1057;
19. Reid S., Condous G. Update on the ultrasound diagnosis of deep pelvic endometriosis // European Journal of Obstetrics & Gynecology and Reproductive Biology. – 2017. – Т. 209. – С. 50-54.;

Xulosa

O'tkazilgan tahlillar va olingan ilmiy ma'lumotlar asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. **Kompleks yondashuvning afzalligi:** Tashqi genital endometriozni (TGE) faqat jarrohlik yo'li bilan davolash yetarli emas. Operatsiyadan keyingi zamonaviy rehabilitatsiya — dori-darmon terapiyasi (dienogest, GnRH agonistlari), bitishmalarga qarshi baryer-texnologiyalar va fizioterapiyani o'z ichiga olgan holda, kasallik retsidivini **3-4 baravarga kamaytirish** imkonini beradi.


2. **Og'riq sindromini boshqarish:** Rehabilitatsiya bosqichida nafaqat gormonal, balki neyrotrop va psixologik korreksiya usullarining qo'llanilishi surunkali chanoq og'rig'ini bartaraf etishda yuqori samaradorlik ko'rsatadi (VAS shkalasi bo'yicha ko'rsatkichlar 70% gacha yaxshilanadi).

3. **Reproduktiv salomatlikni tiklash:** Fertillikni tiklash uchun eng maqbul "oltin davr" rehabilitatsiya muolajalari yakunlanganidan keyingi dastlabki **6–12 oy** hisoblanadi. EFI (Endometriosis Fertility Index) tizimidan foydalanish har bir bemor uchun individual homiladorlik taktikasini (tabiiy yoki EKO) to'g'ri tanlashga xizmat qiladi.

4. **Hayot sifati:** Zamonaviy rehabilitatsiya dasturlari ayolning umumiy salomatligini, jinsiy funksiyasini va psixo-emotsional holatini yaxshilash orqali uning jamiyatdagi ijtimoiy faolligini to'liq tiklashga qaratilgan bo'lishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, TGE bo'yicha jarrohlik amaliyotidan so'ng individual va multidistsiplinar rehabilitatsiya tamoyillariga amal qilish — ginekologik amaliyotda kasallik asoratlarini oldini olishning eng samarali strategiyasidir.

20. Scioscia M. et al. Differential diagnosis of endometriosis by ultrasound: a rising challenge //Diagnostics. – 2020. – Т. 10. – №. 10. – С. 848;
21. Surrey E. et al. Impact of endometriosis diagnostic delays on healthcare resource utilization and costs //Advances in therapy. – 2020. – Т. 37. – С. 1087-1099;
22. Van den Bosch T., Van Schoubroeck D. Ultrasound diagnosis of endometriosis and adenomyosis: State of the art //Best practice & research Clinical obstetrics & gynaecology. – 2018. – Т. 51. – С. 16-24;
23. Yu E. H., Joo J. K. Commentary on the new 2022 European Society of Human Reproduction and Embryology (ESHRE) endometriosis guidelines //Clinical and Experimental Reproductive Medicine. – 2022. – Т. 49. – №. 4. – С. 219
24. Wróbel M., Wielgoś M., Ludański P. Diagnostic delay of endometriosis in adults and adolescence-current stage of knowledge //Advances in Medical Sciences. – 2022. – Т. 67. – №. 1. – С. 148-153;



UDK 618.1-053.4.


Arziyeva Gulnora Borievna

Dotsent, PhD

Samarqand davlat tibbiyot universiteti
Samarqand, O'zbekiston

QIZ BOLALARDA VULVA SINEXIYASI: ETIOPATOGENEZ, KLINIK MANZARASI VA DIFFERENSIAL DIAGNOSTIKASI (ADABIYOTLAR TAHLILI)

For citation: Arziyeva Gulnora Borievna, Labial Adhesion in Prepubertal Girls: Etiopathogenesis, Clinical Presentation, and Differential Diagnosis (literature review), Journal of Reproductive Health and Uro-Nephrology Research 2026, vol.7, issue 1

 <https://dx.doi.org/10.5281/zenodo.18871018>

Арзиева Гулнара Бориевна

Доцент, PhD

Самаркандский государственный
медицинский университет
Самарканд, Узбекистан

СИНЕХИИ МАЛЫХ ПОЛОВЫХ ГУБ У ДЕВОЧЕК: ЭТИОПАТОГЕНЕЗ, КЛИНИЧЕСКАЯ КАРТИНА И ДИФФЕРЕНЦИАЛЬНАЯ ДИАГНОСТИКА (ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ)

Arziyeva Gulnora Borievna

Associate Professor, PhD

Samarkand State Medical University
Samarkand, Uzbekistan

LABIAL ADHESION IN PREPUBERTAL GIRLS: ETIOPATHOGENESIS, CLINICAL PRESENTATION, AND DIFFERENTIAL DIAGNOSIS (LITERATURE REVIEW)

Dolzarbligi: Ik marta ushbu xastalikni 1826 yilda londonlik shifokor Dewees "Bolalar kasalliklarini davolash" kitobini nashr etganda "Qiz bolalarda kichik jinsiy lablarning yopishishi" deb nomlangan alohida bobida bu holatni tasvirlab, yopishib qolgan kichik jinsiy lablarni qo'lda ajratishni, so'ngra ularning orasiga yog' aralashgan qalin malham surtishni taklif qilgan.

Ko'pincha kichik jinsiy lablarni yopishib qolishini pediatr yoki ginekolog profilaktik ko'rik paytida aniqlashadi (64,3%) [6, 7]. Synechia ko'pincha 3 oydan 6 yoshgacha bo'lgan qizlarda aniqlanadi, eng yuqori ko'rsatkich 13 oydan 23 oygacha bo'lgan qizchalarda kuzatiladi [4-7].

Synechiaeni keltirib chiqaradigan sabablari to'liq o'rganilmagan. Asosiy etiologik omillaridan biri, bu estrogen darajasini past bolishi bilan bog'lashadi va buni quyidagi kuzatishlar bilan tasdiqlashadi, ya'ni yangi tug'ilgan qizchalarda synechia uchramaydi, chunki ularning qonida onasini estrogen miqdori yuqoriligi saqlanadi. Shu bilan kichik jinsiy lablardagi bitishmalar tug'ma xastalik degan gipotezani rad etadi. Onasidan qizchasiga o'tgan estrogen miqdori 3-chi oy atrofida kamayishi bilan qizchani jinsiy a'zolari kamroq namlanadi, bu esa yopishqoqlik xavfini oshiradi. Qizlarda kichik jinsiy lablarni yopishishining asosiy sabablari ikkita asosiy omil sifatida qaraladi: juda nozik teri bilan qoplangan vulvaning anatomik va fiziologik tuzilishi va jinsiy lablarni nam muhitda va deyarli har doim yopiq holatda bo'lishi bilan tushuntirish mumkin. Ba'zi tadqiqotlarga ko'ra, synechia vulva va qinning surunkali, ko'pincha o'ziga xos yallig'lanish jarayoni natijasida

rivojlanadi. S.V.Subbotina ma'lumotlariga ko'ra qiz bolalarda kichik jinsiy lablarning yopishishi 56,9% xlamidiya, 22,4% ureaplasma va trichomonas infeksiyalari aniqlanganligi ko'rsatilgan [4]. Boshqa mualliflarning ta'kidlashicha, sinexiya sklerotik lixen rivojlanishi fonida paydo bo'lishi mumkin, bunda kichik jinsiy lablarning birlashishi ancha zichroq, davolash qiyinroq va balog'atga etishish va hatto reproduktiv davrgacha mavjud bo'lishi mumkin.

Ko'pgina hollarda sinexiyada sezilarli o'zgarishlar kuzatilmasligi mumkin, ammo ba'zi hollarda ikkilamchi infeksiya qo'shilishi natijasida vulvovaginitga sabab bo'lishi mumkin. Agar shikoyatlar bo'lmasa, davolanish shart emas. Gigienaga qo'shimcha e'tibor berilsa etarli. Agar bitishmalar siydik chiqarish oqimini to'sib qo'ysa yoki ikkilamchi infeksiyani rivojlansa davolashni boshlash lozim bo'ladi.

Kichik jinsiy lablarni yopishib qolishi tekshiruvdan so'ng tashxis qilinadi. Tashxis qo'yish qiyin emas - ko'pincha e'tiborli onalar qizchasida jinsiy bitishmalar aniqlanadi, ya'ni gigiena muolajalarini bajarish jarayonida kichik jinsiy lablarning bir-biriga yopishib qolganligini va ular orasida kulrang yoki oq shaffof parda borligini aniqlaydilar. Ba'zida esa, tibbiy ko'rik paytida aniqlanishi mumkin. Synechiaeni davolashda estrogenni o'z ichiga olgan kremlardan foydalaniladi. Bir oylik davolash kursi odatda etarli, ammo ta'sir juda erta erishilsa, davolanishni to'xtatish mumkin. Mahalliy estrogenni qo'llash xavfsiz, shuning uchun davolashni asoratlangan holatlarda 2-3 oygacha uzaytirishi mumkin. Estrogen tarkibli kremlarni nojo'ya ta'siri juda kam uchraydi, ammo vulva shilliq qavatining pigmentatsiyasi,


tuklarni o'sishi va sut bezlarining biroz shishishi kabi nojo'ya ta'siri kuzatilishi mumkin. Barcha nojo'ya ta'sirlar dorini qabul qilishni to'xtatgandan so'ng o'z-o'zidan yo'qoladi.

Kamdan kam hollarda bitishmalar jarrohlik aralashuvni talab qiladi. Jarrohlik davolash uchun ko'rsatmalar estrogen o'z ichiga olgan krem bilan davolash samarasiz bo'lsa, siydik chiqarishni to'sib qo'yish va ikkilamchi infektsiyani rivojlanishini o'z ichiga oladi. Shuni ta'kidlash kerakki, ba'zida jarrohlik yo'li bilan davolashdan so'ng, kasallikni qaytalanishi sodir bo'lmasligi uchun operatsiyadan keyin estrogenli kremlardan foydalanish tavsiya etiladi. Katta jinsiy lablarni kerib, kremni barmoq bilan kichik jinsiy lablar bo'ylab surtiladi. Krem sog'lom to'qimalarga surtilmaydi. Kichik jinsiy lablar bitishmasini ajratish uchun to'qimalarni kuch bilan yirtib ajratish yoki shu maqsadda paxta tayochchalari, ampula ishlatish aslo mumkin emas. Olti hafta davomida estrogen tarkibli kremni qo'llash bilan birga gigiena qoidalariga amal qilish tavsiya etiladi.

Qizchani cho'miltirgandan so'ng namlovchi vositalar surtib qo'yish lozim. Ba'zida konservativ terapiya samarasiz bo'lsa, qizchani tez-tez

siydik yo'llari shamollab tursa, jinsiy lablar yopishib siydik oqimini to'sib qo'yish holatlarida tezroq yordam ko'rsatish kerak. Bunday holda, yopishqoqliklarni jarrohlik yo'li bilan ajratish tavsiya etiladi.

Biz amaliyotimizda kuzatilgan holatni taqdim etamiz :2 yoshli qizchani onasi qizi siyishida qichqirib yig'lashidan, bezovtaligidan shikoyat qilib keldi. Qizcha ikkinchi homiladorligidan, ikkinchi tug'ruqdan muddatida tug'ilgan. Qishloq sharoitida yashaganligi uchun (uyida gaz yo'qligi sabab sovuq) qizchaga 2 yoshigacha kechayukunduz tagliklar kiygizib qo'yan. Qizcha va akasida gijja borligi sababli bir marta davolangan. Qizaloq to'ladan kelgan. Kichik jinsiy lablar bitishgan, biroz qizargan. Onasiga qizchaga o'tiruvchi moychechak bilan vanna qilish va Bitishgan sohaga Bepanten malhamini kuniga 2 mahal 5 kun davomida surtish buyurilib, qayta ko'rikga kelishi hamda qizchani to'g'ri oldindan orqaga qarab yuvintirishi tushuntirildi. Rasm B-da 5 kundan keyingi holati aniqlandi. Oldingi shikoyatlari yo'qoldi. Qaytalanish kuzatilmaganligi uchun tavsiyalar berildi. Bemorning shikoyatlari va bir yillik kuzatuv davrida qaytalanish kuzatilmadi.




**Rasm -A. Kichik jinsiy lablarning bitib qolishi.
B-davolashdan so'ngi holati.**

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, har bir shifokor tashrifida qiz bolaning jinsiy a'zolarini ahvoli baholanishi kerak. Qizni old tomondan orqaga qarab yuvintirish, tez-tez tagliklarni almashtirish, ichki kiyimlari


100% paxtadan bo'lishi tavsiya etiladi. Yuqorida aytilgan tavsiyalarga amal qilinganda qizchalarda synechia kabi xastaliklarni soni kamayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Батырова З.К., Уварова Е.В., Кумыкова З.Х., Лапытова Н.Х. Сращения малых половых губ: международные рекомендации в помощь практикующему врачу // Репродуктивное здоровье детей и подростков. 2018. Т. 14. № 4. С. 32.
2. Сибирская, Е. В. Синехии половых губ в пубертатном периоде (клинический случай) / Е. В. Сибирская, С. А. Короткова, Г. М. Тургунова, Г. Т. Осипова [и др.] // Проблемы репродукции. 2021. № 27 (5). С. 44–47.
3. Домрачева М. Я., Соколова-Попова Т. А. и др. Эффективность консервативного лечения синехий малых половых губ // Современные проблемы науки и образования. 2019. № 3. 9 с;
4. Жукова Н.П., Киселева Ю.И. Синехии малых половых губ у девочек допубертатного возраста // Охрана материнства и детства. 2015. Т. 5, № 1. С. 27-31;
5. Bacon J.L., Romano M. E., Quint E.H. Clinical recommendation: labial adhesions // J Pediatr Adolesc Gynecol. 2015; 28 (5): 405-409.;
6. Rubinstein A., Rahman G., Risso P., Ocampo D. Labial adhesions: experience in a children's hospital // Arch. Argent. Pediatr. 2018; 116 (1): 65-68.;
7. Wejde E., Ekmark A.N., Stenstrom P. Treatment with oestrogen or manual separation for labial adhesions-initial outcome and long-term follow-up // BMC Pediatr. 2018; 18 (1): 104.



UDK 618.2-06:618.14-002-08

Hasanova Fariza OlimovnaSamarqand davlat tibbiyot universiteti
2-son Akusherlik va ginekologiya kafedrası
Magistratura rezidenti Samarqand, O'zbekiston**Valiev Shuhrat Nasimovich**Samarqand davlat tibbiyot universiteti
2-son Akusherlik va ginekologiya kafedrası, PhD
Samarqand, O'zbekiston**Negmadjanov Bahodur Boltaevich**Samarqand davlat tibbiyot universiteti
2-son Akusherlik va ginekologiya kafedrası, kafedra mudiri
Samarqand, O'zbekiston**TUG'RUQDAN KEYINGI ENDOMETRITNI DAVOLASHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI: ADABIYOT MA'LUMOTLARI TAHLILI (ADABIYOTLAR TAHLILI)****For citation:** Hasanova Fariza Olimovna, Valiev Shuhrat Nasimovich, Negmadjanov Bahodur Boltaevich, Modern approaches to the treatment of postpartum endometritis: analysis of literature data (literature review), Journal of Reproductive Health and Uro-Nephrology Research 2026, vol.7, issue 1

<https://dx.doi.org/10.5281/zenodo.18872509>
Хасанова Фариза ОлимовнаСамаркандский государственный медицинский университет
кафедра акушерства и гинекологии №2
Резидент магистратуры Самарканд, Узбекистан**Валиев Шухрат Насимович**Самаркандский государственный медицинский университет
кафедра акушерства и гинекологии №2, PhD
Самарканд, Узбекистан**Негмаджанов Баходур Болтаевич**Самаркандский государственный медицинский университет
кафедра акушерства и гинекологии №2, заведующий кафедрой
Самарканд, Узбекистан**СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К ЛЕЧЕНИЮ ПОСЛЕРОДОВОГО ЭНДОМЕТРИТА: АНАЛИЗ ДАННЫХ ЛИТЕРАТУРЫ (ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ)****Hasanova Fariza Olimovna**Samarkand State Medical University
Department of Obstetrics and Gynecology No. 2
Master's degree resident
Samarkand, Uzbekistan**Valiev Shukhrat Nasimovich**Samarkand State Medical University,
Department of Obstetrics and Gynecology No. 2, PhD
Samarkand, Uzbekistan**Negmadjanov Bahodur Boltaevich**Samarkand State Medical University,
Department of Obstetrics and Gynecology No. 2, Head of the Department
Samarkand, Uzbekistan**MODERN APPROACHES TO THE TREATMENT OF POSTPARTUM ENDOMETRITIS: ANALYSIS OF LITERATURE DATA (LITERATURE REVIEW)**

Zamonaviy akusherlik amaliyotida tugʻruqdan keyingi endometrit eng muhim va murakkab muammolardan biri sifatida baholanadi. Ushbu patologiya tugʻruqdan keyingi davrda uchraydigan kasalliklar tarkibida yetakchi oʻrin egallab, nafaqat tugʻruqdan keyingi kasallanish koʻrsatkichlarining oshishiga, balki onalar oʻlimi xavfining saqlanib qolishiga ham sezilarli hissa qoʻshmoqda. Klinik va epidemiologik kuzatuvlarga koʻra, tugʻruqdan keyingi infeksiyon asoratlar orasida aynan endometrit eng koʻp uchraydigan shakl boʻlib, u barcha tugʻruqdan keyingi infeksiyalarning 40-50% qismini tashkil etadi.

Maʼlumotlarga koʻra, fiziologik kechgan va asoratsiz tugʻruqlardan soʻng endometritning rivojlanish ehtimoli 3-8% boʻlib, u oʻrtacha bir necha foizni tashkil etsada, tugʻruq jarayoni patologik kechgan hollarda 20-40% ga ortadi. Ayniqsa, infeksiyon xavfi yuqori boʻlgan ayollar guruhida tugʻruqdan keyingi endometritning uchrash chastotasi keskin oshib 3-20% ni tashkil qilib, yarmidan koʻp holatlarda qayd etilishi mumkin. Bu holat mazkur patologiyaning yuqori xavfli guruhlarda alohida klinik va ijtimoiy ahamiyatga ega ekanligini koʻrsatadi [5].

Tibbiyot sohasida erishilgan sezilarli yutuqlarga qaramay, tugʻruqdan keyingi endometritning umumiy tugʻruq qilgan ayollar orasidagi tarqalganligi hanuzgacha yuqori darajada qolmoqda. Turli mualliflar tomonidan keltirilgan maʼlumotlarga asoslanib aytilish mumkinki, ushbu kasallik spontan kechgan fiziologik tugʻruqlardan soʻng kamroq uchrasa-da, murakkab yoki jarrohlik aralashuvlari bilan yakunlangan tugʻruqlardan keyin ancha yuqori koʻrsatkichlar bilan namoyon boʻladi. Ayniqsa, kesarcha kesish operatsiyasidan soʻng endometrit rivojlanish xavfi sezilarli darajada ortib, puerperal davrning eng koʻp uchraydigan yiringli-yalligʻlanish patologiyalaridan biriga aylanadi [9].

Ilmiy manbalarda keltirilishicha, tugʻruqdan keyingi yiringli-yalligʻlanish kasalliklari orasida endometrit ustun mavqega ega boʻlib, u normal tugʻruqlardan keyin ham, patologik kechgan tugʻruqlardan soʻng ham muhim klinik muammo boʻlib qolmoqda. Ayrim tadqiqotchilar endometritning uchrash chastotasini pastroq koʻrsatkichlarda qayd etgan boʻlsalar-da, kesarcha kesishdan keyin ushbu patologiyaning rivojlanish ehtimoli bir necha baravar yuqori ekanligi deyarli barcha manbalarda tasdiqlanadi. Statistik maʼlumotlarga koʻra, tugʻruqdan keyingi endometrit holatlarining mutlaq koʻpchiligi aynan operativ tugʻruqlar bilan bogʻliq boʻlib, bu jarrohlik aralashuvining infeksiyon xavfini oshiruvchi omil ekanligini koʻrsatadi.

Bundan tashqari, homila pardalari va amniotik suyuqlikning polimikrob zararlaniishi bilan kechuvchi xorioamnionit holatlari tugʻruqdan keyingi endometrit rivojlanishida muhim oʻrin tutadi. Klinik kuzatuvlarga koʻra, xorioamnionit aniqlangan ayollarning sezilarli qismida puerperal davrda endometrit shakllanadi. Xalqaro tashkilotlar, jumladan, Amerika akusherlar va ginekologlari uyushmasi tomonidan taqdim etilgan maʼlumotlar ham kesarcha kesish, ayniqsa shoshilinch tarzda bajarilgan hollarda, tugʻruqdan keyingi endometrit rivojlanish xavfi nihoyatda yuqori ekanligini koʻrsatadi [8].

Tugʻruqdan keyingi infeksiyon kasalliklarning shakllanishi koʻplab oʻzaro bogʻliq omillar taʼsiri ostida yuzaga keladi. Ushbu omillarni shartli ravishda bir necha asosiy guruhlarga ajratish mumkin. Birinchi guruhga ayol organizmining umumiy somatik holati bilan bogʻliq ekstragenital omillar kirib, ularga ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar, yosh omili, surunkali infeksiyon oʻchoqlarning mavjudligi, ortiqcha vazn va metabolik buzilishlar, shuningdek, immun tizimiga taʼsir koʻrsatuvchi dori vositalarini uzoq muddat qabul qilish holatlari mansubdir.

Ikkinchi guruhni homiladorlik davrida rivojlanadigan patologik holatlar tashkil etadi. Bularga surunkali infeksiyalarning faollashuvi, invaziv diagnostik va davolovchi muolajalar, bachadon boʻyni yetishmovchiligi jarrohlik yoʻli bilan tuzatish, kamqonlik, gestoz va boshqa asoratlar kiradi. Ushbu holatlar organizmning infeksiyaga qarshi qarshiligini susaytirib, tugʻruqdan keyingi davrda yalligʻlanish jarayonlari rivojlanishiga zamin yaratadi [2].

Uchinchi guruh omillari esa bevosita tugʻruq jarayoni bilan bogʻliq boʻlib, ularga suvsiz davrning choʻzilishi, tugʻruq faoliyatining diskoordinatsiyasi, koʻp marotaba vaginal tekshiruvlar, xorioamnionit, tugʻruq yoʻllari yumshoq toʻqimalarining jarohatlanishi, shoshilinch bajarilgan kesarcha kesish, operatsiya davomiyligi, qon yoʻqotish hajmi hamda jarrohning malaka darajasi kiradi. Shuningdek, yoʻldoshni

qoʻlda ajratish kabi manipulyatsiyalar ham infeksiyon asoratlar rivojlanish xavfini oshiruvchi muhim omillar qatoriga kiradi.

Hozirgi vaqtda koloniya hosil qilmaydigan anaeroblar ustunlik qiladi, ularning TKEda aniqlanish chastotasi 70-90% ga yetadi; ichak tayoqchasi 20-40% hollarda, boshqa enterobakteriyalar esa 7-10% bemorlarda aniqlanib, gram-musbat bakteriyalar TKE qoʻzgʻatuvchisi sifatida ancha kam uchraydi. Avvallari etiologiyada yetakchi hisoblangan tillarang stafilokokk hozirda 3-7% hollarda aniqlanib, B guruhi streptokokklari bilan bogʻliq infeksiya (2-3%) juda ogʻir kechishi bilan ajralib turadi. Mikoplazmalar va xlamidiyalar koʻpincha sust kechuvchi shakllarni chaqirib keyinchalik birlamchi qoʻzgʻatuvchilarga qoʻshiladi. Potensial patogen agentlar qatoriga grammusbat bakteriyalar (enterokokklar, *Staphylococcus aureus* va epidermidis, *Streptococcus A* va *B* guruhlari va boshqalar) va grammanfiy aerob bakteriyalar (*Escherichia coli*, *Klebsiella*, *Proteus*, *Enterobacter* spp., *Pseudomonas aeruginosa*) kiradi. Obligat anaerob bakteriyalar orasida *Bacteroides*, *Peptococcus*, *Peptostreptococcus*, *Atopobium*, *Megasphaera* va boshqalar uchrab, mikroblar assotsiatsiyasi monokulturalarga nisbatan sinergizm orqali yanada kuchli patogen xususiyatga ega boʻladi va naeroblarning patogenligi fakultativ aerob mikroorganizmlar, xususan *E. coli* mavjudligida oshadi. Patogen mikroorganizm turi klinik belgilar ogʻirligini ham belgilaydi: yengil kasalliklarda mikroorganizmlar assotsiatsiyasi 29,1%, ogʻir hollarda 62,5% bemorlarda aniqlangan. V.I. Kulakov va hamkasblarining maʼlumotlariga koʻra, KK dan keyingi endometritli tuqqan ayollarda bachadon boʻshligʻidan olingan ajralmada 82,7% hollarda spora hosil qilmaydigan anaeroblar va ularning aerob mikroorganizmlar bilan assotsiatsiyasi ustunligi aniqlangan [7].

Tadqiqotlarga koʻra, tugʻruqdan keyingi endometrit aksariyat hollarda normal qin mikroflorasida mavjud boʻlgan mikroorganizmlarning yuqoriga koʻtariluvchi yoʻli natijasida rivojlanadi. Eng koʻp uchraydigan qoʻzgʻatuvchilar gram-musbat kokklar, ayniqsa B guruhi streptokokklari, epidermal stafilokokklar va enterokokklar; anaeroblar, bundan tashqari peptostreptokokklar, bakteroidlar va prevotellalar; shuningdek, gram-manfiy bakteriyalar *Gardnerella vaginalis*, ichak tayoqchasi, *Klebsiella* va *Proteus* turlari qayd etiladi. 2007 yilda Mulic-Lutvica A. va Axelsson O. kesarcha kesish va yoʻldoshni qoʻlda ajratishdan keyin ayollarning bachadonlarini oʻrganib, kasallik tugʻruqdan keyingi davrning 2-5-kunlarida paydo boʻladi, davolash samarasiz boʻlsa (taxminan 2% hollarda) jarayon tarqalgan holatga oʻtishi mumkin. TKEning uchta klinik shakli farqlanadi: yengil, oʻrtacha ogʻir va ogʻir. Kesarcha kesishdan soʻng koʻpincha oʻrtacha ogʻir va ogʻir shakllar aniqlanib, umumiy va mahalliy infeksiya belgilari ifodalanishi yalligʻlanish jarayonining operatsiya qilingan aʼzoda rivojlanishi bilan bogʻliq boʻlib, kasallik ogʻirligi odatda bachadon boʻshligʻining aerob va anaerob mikroflora bilan zararlaniish darajasi hamda mikrob assotsiatsiyalarining tarkibi bilan mos keladi. Hozirgi vaqtda TKEning simptomatsiz shakli tez-tez uchraydi, bunda hech qanday klinik belgilar tuqqan ayol holatining ogʻirligini aks ettirmaydi. Kasallikning dastlabki belgilari 1-7 kun ichida paydo boʻlib, bu bemorlarga koʻpincha «bachadon subinvolyutsiyasi» tashxisi qoʻyiladi va zarur davolash oʻtkazilmay, bu esa keyinchalik tugʻruqdan keyingi infeksiyaning yanada ogʻir shakllari -peritonit, tos absesslari, tromboflebit va sepsis rivojlanishiga olib kelishi mumkin [3].

Tugʻruqdan keyingi davrdagi yiringli-yalligʻlanish kasalliklari tarkibida tugʻruqdan keyingi endometrit yetakchi oʻrinni egallab, koʻproq operativ va patologik tugʻruqlardan soʻng rivojlanadi. Tugʻruqdan keyingi endometrit patogenezida immunologik holatning oʻzgarishi muhim ahamiyatga ega boʻlib, yaʼni T- va B-immunitet tizimlarining birgalikda susayishi yoki asosan T-limfotsitlarning zararlaniishi bilan tavsiflanishi tugʻruqdan keyingi endometritni kompleks davolashga immunomodulyator preparatlarni qoʻllash klinik belgilarni va davolash samarasini tezroq qoʻlga kiritishga, ijobiy natijalarga tez erishishga yordam beradi. Endometrit patogenezida homilador va tuqqan ayollarda immunologik holatning oʻzgarishi muhim rol oʻynab, bu holat ikkilamchi immunodefitsit koʻrinishi sifatida baholanadi va T- hamda B-immunitet tizimlarining birgalikda susayishi, asosan T-limfotsitlarning zararlaniishi bilan karakterlanadi. Bunda T-limfotsitopeniya, T-xelperlar va T-supressorlar oʻrtasidagi

nomutanosiblik, immunoglobulinlarning asosiy sinflari miqdorining kamayishi, neyrofill leykotsitlarning fagotsitar faolligining va qon zarbodida IgG darajasining oshishi kuzatiladi. Tugʻruqdan keyingi endometrit (TKE) patogenezida gemostaz tizimidagi oʻzgarishlar ham muayyan rol oʻynaydi. Kasallikning dastlabki shakllarida trombositlar va prokoagulyant boʻgʻinlarning moʻtadil faollashuvi aniqlanadi va ogʻir shakllarda esa bu oʻzgarishlar kuchayadi: yaqqol ifodalangan xronometrik va strukturaviy giperkoagulyatsiya, giperfibrinogenemiya, trombositlarning funksional faolligining oshishi, yaʼni tarqalgan tomir ichki ivish sindromi rivojlanadi [10].

Qorin pastki qismidagi ogʻriq, bachadonning paypaslaganda ogʻriqliligi, tana haroratining koʻtarilishi va isitmaga bogʻliq taxikardiya tugʻruqdan keyingi endometritga xos asosiy klinik belgilar hisoblanib, koʻpincha terining oqarishi, yurak urishining tezlashuvi kuzatiladi. Baʼzi ayollarda titroq, bosh ogʻrigʻi, umumiy holsizlik va ishtahaning pasayishidan shikoyat qilib, bachadon paypaslaganda ogʻriqli, kattalashgan va yumshoq boʻladi. Ajralmalar koʻp yoki kam boʻlishi, yomon hidli, qon aralash yoki qonsiz boʻlishi mumkin, yiringli shaklda esa yiringli lohiyalar kuzatiladi. Miometriy yalligʻlanganda bachadon atoniyasi rivojlanib, bachadondan qon ketishiga olib kelishi mumkin va yalligʻlanish jarayoniga parametrial toʻqimalar ham qoʻshilsa, ogʻriq va isitma yanada kuchli boʻladi. Yalligʻlanish keng boylamlar asosidan boshlanib, keyinchalik kichik chanoq devorlari yoki Duglas boʻshliqlariga tarqaladi. Chanoq absessi rivojlanganda bachadon yonida paypaslab aniqlanadigan hajmli hosila seziladi. Baʼzi hollarda tugʻruqdan keyingi endometritning yagona belgisi subfebril tana harorati boʻlishi mumkin. Qonda leykotsitlar soni koʻpincha oshadi, biroq tugʻruqdan keyingi davrda fiziologik oʻtkinchi leykotsitoz kuzatiladi. Leykotsitlar formulasi chapga siljishi va neytrofillarning koʻpayishi infeksiyon jarayondan dalolat beradi.

Hamma ayollarda ginekologik tekshiruv va tugʻruq yoʻllarini ginekologik koʻzgu yordamida koʻrikdan oʻtkazish lozim. Tugʻruqdan keyingi davr tekshiruvi infeksiyaning bachadondan tashqari aʼzolari, asosan kichik chanoq aʼzolari va chanoq tubi toʻqimalaridagi jarayonni aniqlashga qaratilgan. Vaginal koʻrikda bachadonning kattaligi, harakatchanligi, ogʻriqliligi hamda bachadon ajralmalarining xususiyati baholanadi. Tekshiruvda bachadonning biroz kattalashgani va ogʻriqliligi, yiringli lohiyalar, bachadon boʻynining qizarishi, bachadon boʻynida fibrin qatlami bilan qoplanishi va bachadon ogʻzidan eksudat ajralishi aniqlanadi. Yuqoridagi klinik belgilaridan bir yoki bir nechtasining mavjudligi tashxisni tasdiqlab, lekin ular nospetsifik hisoblanib, qorinning gipogastral sohasida vaqti-vaqti bilan paydo boʻladigan ogʻriqlar, bachadonning ogʻriqliligi va leykotsitoz kesarcha kesishdan keyin ham tez-tez aniqlanib, qoʻlansa hidli, sargʻish-qizgʻish rangdagi lohiyalarning maʼlum miqdori har qanday tugʻruqdan keyin normal holat sifatida qaraladi [2].

Zamonaviy akusherlik amaliyotida tugʻruqdan keyingi yiringli-yalligʻlanish jarayonlari dolzarbligini yoʻqotmagan muammolardan biri boʻlib qolmoqda. Antibiotik terapiyaning keng joriy etilishi, diagnostikaning zamonaviy texnologiyalaridan foydalanilishiga qaramasdan, patogen mikroorganizmlarning antimikrob preparatlarga rezistentlik darajasining ortib borishi mazkur patologiyaning uchrash chastotasini kamaytirishga imkon bermayapti. Natijada tugʻruqdan keyingi infeksiyon asoratlar hali ham puerperal davr kasalliklari tarkibida yetakchi oʻrinlardan birini egallab kelmoqda.

Tugʻruqdan keyingi endometritni davolash kompleks yondashuvni talab etadi va antibakterial, dezintoksikatsion, desensibilizatsiyalovchi, yalligʻlanishga qarshi, immunokorreksiyalovchi, antimikotik hamda antikoagulyant terapiya usullarini oʻz ichiga oladi. Bundan tashqari, patologik jarayon lokalizatsiyasini inobatga olgan holda mahalliy davolash usullarini qoʻllash muhim ahamiyat kasb etadi. Klinik zarurat yuzaga kelganda efferent davolash texnologiyalari — plazmaferez, gemosorbsiya, qonni lazer yordamida nurlantirish, shuningdek, antibakterial vositalarning yoʻnaltirilgan transporti va ozonoterapiya kabi qoʻshimcha usullar terapiya rejasiga kiritilishi mumkin. Tizimli davolashda antibakterial terapiya asosiy oʻrin tutsa, mahalliy davolashda bachadon boʻshligʻini vakuum-aspiratsiya qilish va/yoki kuretaj muhim ahamiyatga ega.

Immun tizim faoliyatining buzilishi fonida etiologik davolash samaradorligi sezilarli darajada pasayadi. Soʻnggi yillarda

immunologik nomutanosibliklarni immunomodulyator preparatlar yordamida tuzatish klinik jihatdan asosli ekanligi toʻgʻrisida koʻplab ilmiy maʼlumotlar eʼlon qilinmoqda. Bunday yondashuv klinik sogʻayish muddatini qisqartirib, kasallik prognozini yaxshilashga xizmat qiladi. Immunomodulyator preparatlarga qoʻyiladigan asosiy talablar — ularning isbotlangan samaradorligi, yuqori xavfsizlik darajasi, nojoʻya va kanserogen taʼsirlarning mavjud emasligidir [1].

Immunomodulyator terapiyaning asosiy nishoni ikkilamchi immun yetishmovchiligi boʻlib, u turli etiologiyali va joylashuvdagi infeksiyayalligʻlanish kasalliklarining qaytalanuvchi hamda davolashga chidamli shakllari bilan namoyon boʻladi. Eng koʻp qoʻllaniladigan immunomodulyatorlar immunitetning hujayra boʻgʻiniga taʼsir etuvchi preparatlar hisoblanadi. Shunday vositalardan biri yalligʻlanishga qarshi xususiyatga ega boʻlgan Galavit preparatidir. Uning taʼsir mexanizmi asosan hujayraviy immunitetga, xususan makrofaglarining funksional-metabolik faolligiga selektiv taʼsir koʻrsatish orqali amalga oshadi.

Galavit limfotsitlarning nisbiy va absolyut koʻrsatkichlarini, jumladan T-xelper va T-supressorlar nisbatini, NK-hujayralar faolligini normallashtirishga yordam beradi. Shuningdek, preparat neytrofillarning bakteritsid faolligini kuchaytiradi, fagotsitoz jarayonini ragʻbatlantiradi va organizmning nospetsifik infeksiyalarga qarshi qarshiligini oshiradi. Antitel hosil boʻlish jarayonini barqarorlashtirishi, endogen interferonlar sintezini bilvosita faollashtirishi va yalligʻlanishga qarshi taʼsir koʻrsatishi Galavitning muhim farmakologik xususiyatlaridan hisoblanadi.

Preparat monotsitlar va makrofaglarining haddan tashqari yalligʻlanishdan oldingi faolligini qaytariladigan tarzda bostiradi, TNF, IL-1 va boshqa proyalligʻlanish sitokinlari hamda faol kislorod shakllarining ortiqcha ishlab chiqarilishini cheklaydi. Bu jarayon antigen taqdim etish va regulyator funksiyalarning tiklanishiga, autoagressiv reaksiyalarning kamayishiga olib keladi.

Natijada intoksikatsiya belgileri qisqa muddatda regressiyaga uchraydi, yalligʻlanish jarayonining ogʻirligi va davomiyligi kamayadi hamda bemorlarning sogʻayishi tezlashadi.

Tugʻruqdan keyingi bachadonni mahalliy davolash usullari alohida ahamiyatga ega. Yengil shakllarda past chastotali ultratovush qoʻllanilishi bachadon boʻshligʻining jarrohlik sanitatsiyasi chastotasini kamaytirib, stasionar davolanish muddatini qisqartirishga imkon beradi. Oʻrta va ogʻir shakllarda esa gisteroskopiya, vakuum-aspiratsiya, drenajlash va aspiratsion-yuvish usullaridan foydalanish yuqori klinik samaradorlik koʻrsatadi.

Shuningdek, ozonlangan antiseptik eritmalar yordamida past chastotali ultratovush orqali bachadon boʻshligʻini sanitatsiya qilish endometritni davolashning istiqbolli usullaridan biri hisoblanadi. Ushbu texnologiya endometriy va miometriyga bevosita lokal taʼsir koʻrsatib, mikroblarning yoʻq qilinishini va patologik toʻqimalarning mexanik chiqarilishini taʼminlaydi [4].

Zamonaviy akusherlik amaliyotida tugʻruqdan keyingi yiringli-yalligʻlanish jarayonlari dolzarbligini yoʻqotmagan muammolardan biri boʻlib qolmoqda. Antibiotik terapiyaning keng joriy etilishi, diagnostikaning zamonaviy texnologiyalaridan foydalanilishiga qaramasdan, patogen mikroorganizmlarning antimikrob preparatlarga rezistentlik darajasining ortib borishi mazkur patologiyaning uchrash chastotasini kamaytirishga imkon bermayapti. Natijada tugʻruqdan keyingi infeksiyon asoratlar hali ham puerperal davr kasalliklari tarkibida yetakchi oʻrinlardan birini egallab kelmoqda.

Tugʻruqdan keyingi endometritni davolash kompleks yondashuvni talab etadi va antibakterial, dezintoksikatsion, desensibilizatsiyalovchi, yalligʻlanishga qarshi, immunokorreksiyalovchi, antimikotik hamda antikoagulyant terapiya usullarini oʻz ichiga oladi. Bundan tashqari, patologik jarayon lokalizatsiyasini inobatga olgan holda mahalliy davolash usullarini qoʻllash muhim ahamiyat kasb etadi. Klinik zarurat yuzaga kelganda efferent davolash texnologiyalari — plazmaferez, gemosorbsiya, qonni lazer yordamida nurlantirish, shuningdek, antibakterial vositalarning yoʻnaltirilgan transporti va ozonoterapiya kabi qoʻshimcha usullar terapiya rejasiga kiritilishi mumkin. Tizimli davolashda antibakterial terapiya asosiy oʻrin tutsa, mahalliy davolashda bachadon boʻshligʻini vakuum-aspiratsiya qilish va/yoki kuretaj muhim ahamiyatga ega [5].

Immun tizim faoliyatining buzilishi fonida etiologik davolash samaradorligi sezilarli darajada pasayadi. So'nggi yillarda immunologik nomutanosibliklarni immunomodulyator preparatlar yordamida tuzatish klinik jihatdan asosli ekanligi to'g'risida ko'plab ilmiy ma'lumotlar e'lon qilinmoqda. Bunday yondashuv klinik sog'ayish muddatini qisqartirib, kasallik prognozini yaxshilashga xizmat qiladi. Immunomodulyator preparatlarga qo'yiladigan asosiy talablar — ularning isbotlangan samaradorligi, yuqori xavfsizlik darajasi, nojo'ya va kanserogen ta'sirlarning mavjud emasligidir.

Immunomodulyator terapiyaning asosiy nishoni ekkilamchi immun yetishmovchiligi bo'lib, u turli etiologiyali va joylashuvdagi infeksiyali yallig'lanish kasalliklarining qaytalanuvchi hamda davolashga chidamli shakllari bilan namoyon bo'ladi. Eng ko'p qo'llaniladigan immunomodulyatorlar immunitetning hujayra bo'g'iniga ta'sir etuvchi preparatlar hisoblanadi. Shunday vositalardan biri yallig'lanishga qarshi xususiyatga ega bo'lgan Galavit preparatidir. Uning ta'sir mexanizmi asosan hujayravii immunitetga, xususan makrofaglarining funksional-metabolik faolligiga selektiv ta'sir ko'rsatish orqali amalga oshadi.

Galavit limfotsitlarning nisbiy va absolyut ko'rsatkichlarini, jumladan T-xelper va T-supressorlar nisbatini, NK-hujayralar faolligini normallashtirishga yordam beradi. Shuningdek, preparat neytrofilarning bakteritsid faolligini kuchaytiradi, fagotsitoz jarayonini rag'batlantiradi va organizmning nospetsifik infeksiyalarga qarshi qarshiligini oshiradi. Antitel hosil bo'lish jarayonini barqarorlashtirishi, endogen interferonlar sintezini bilvosita faollashtirishi va yallig'lanishga qarshi ta'sir ko'rsatishi Galavitning muhim farmakologik xususiyatlaridan hisoblanadi.

Preparat monotsitlar va makrofaglarining haddan tashqari yallig'lanishdan oldingi faolligini qaytariladigan tarzda bostiradi, TNF, IL-1 va boshqa proyallig'lanish sitokinlari hamda faol kislorod shakllarining ortiqcha ishlab chiqarilishini cheklaydi. Bu jarayon antigen taqdim etish va regulatori funksiyalarining tiklanishiga, autoagressiv reaksiyalarning kamayishiga olib keladi.

Natijada intoksikatsiya belgilari qisqa muddatda regressiyaga uchraydi, yallig'lanish jarayonining og'irligi va davomiyliги kamayadi hamda bemorlarning sog'ayishi tezlashadi.

Tug'ruqdan keyingi bachadonni mahalliy davolash usullari alohida ahamiyatga ega. Yengil shakllarda past chastotali ultratovush

qo'llanilishi bachadon bo'shlig'ining jarrohlik sanitatsiyasi chastotasini kamaytirib, statsionar davolanish muddatini qisqartirishga imkon beradi. O'rta va og'ir shakllarda esa gisteroskopiya, vakuum-aspiratsiya, drenajlash va aspiratsion-yuvish usullaridan foydalanish yuqori klinik samaradorlik ko'rsatadi.

Shuningdek, ozonlangan antiseptik eritmalar yordamida past chastotali ultratovush orqali bachadon bo'shlig'ini sanitatsiya qilish endometritni davolashning istiqbolli usullaridan biri hisoblanadi. Ushbu texnologiya endometriy va miometriyga bevosita lokal ta'sir ko'rsatib, mikroblarning yo'q qilinishini va patologik to'qimalarning mexanik chiqarilishini ta'minlaydi [2].

Kompleks davolash strategiyasi yallig'lanish jarayonining barcha patogenetik bo'g'inlariga ta'sir ko'rsatishga qaratilgan bo'lishi lozim. Tizimli va mahalliy terapiya elementlarining uyg'unlashtirilgan holda qo'llanilishi klinik holatning tezroq barqarorlashuviga, asoratlar xavfining kamayishiga va reproduktiv funksiyaning saqlanishiga xizmat qiladi. Ayniqsa, immun javobning yetarli darajada tiklanishi davolashning uzoq muddatli samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, immunomodulyatsiyaga asoslangan yondashuvlar organizmning infeksiyaga qarshi qarshiligini oshiradi, yallig'lanish mediatorlarining patologik faolligini cheklaydi va klinik simptomlarning tezroq yo'qolishiga yordam beradi. Bunday yondashuv antibakterial terapiya bilan birgalikda qo'llanganda sinergetik ta'sir namoyon bo'lib, davolash samaradorligini oshiradi.

Mahalliy va yordamchi davolash usullarini differensial qo'llash yallig'lanish o'chog'ini nazorat qilish va bachadon to'qimalarining strukturaviy-funksional tiklanishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu usullarni klinik shakllar bo'yicha moslashtirish individual yondashuvni ta'minlab, statsionar davolanish muddatini qisqartirish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, tug'ruqdan keyingi endometritni davolashda kompleks, patogenetik va individual yondashuvni qo'llash zamonaviy akusherlikning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu yondashuv nafaqat klinik sog'ayishga erishish, balki ayollarning reproduktiv salomatligini uzoq muddat saqlab qolish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Баринов С. В. и др. Факторы риска развития и особенности течения послеродового эндометрита //Мать и дитя в Кузбассе. – 2017. – №. 2. – С. 22-28.
2. Томаева К. Г., Гайдуков С. Н., Комиссарова Е. Н. Частота встречаемости послеродового эндометрита у женщин с разными соматотипами //Вестник новых медицинских технологий. – 2019. – Т. 26. – №. 3. – С. 9-13.
3. Докудаева Ш. А. Современные представления об этиологии, патогенезе, клинике и диагностике послеродового эндометрита //Вестник Национального медико-хирургического центра им. НИ Пирогова. – 2016. – Т. 11. – №. 4. – С. 109-115.
4. Голубкова А. А. и др. Факторы риска развития послеродового эндометрита в современном акушерском стационаре //Медицинский альманах. – 2015. – №. 5 (40). – С. 68-71.
5. Коробков Н. А. Микробиологическая диагностика послеродового эндометрита //Ученые записки СПбГМУ им. ИП Павлова. – 2013. – Т. 20. – №. 3. – С. 57-60.
6. Самборская Н. И. и др. Особенности микробиоценоза половых путей у беременных, угрожаемых по развитию послеродового эндометрита //Journal of Siberian Medical Sciences. – 2012. – №. 2. – С. 27.
7. Черненкова М. Л. и др. Эффективная терапия в комплексном лечении послеродового эндометрита //Фундаментальные исследования. – 2013. – №. 9-6. – С. 1164-1167.
8. Лебедева О. П. и др. Роль системы врожденного иммунитета, генетических факторов и антиоксидантных ферментов в патогенезе послеродового эндометрита //Актуальные проблемы медицины. – 2011. – Т. 15. – №. 16 (111). – С. 95-99.
9. Новикова Е. Н., Коба И. С. Новый пробиотический препарат «Гипролам» для профилактики послеродового эндометрита //Аграрный вестник Северного Кавказа. – 2013. – №. 2 (10). – С. 219-221.
10. Тютюнник В. Л. и др. Иммуномодулирующие препараты в комплексной терапии послеродового эндометрита //Медицинский совет. – 2016. – №. 2. – С. 55-59.
11. Валиев Ш. Н. ОСОБЕННОСТИ ВОСПАЛИТЕЛЬНОЙ И РЕПАРАТИВНОЙ РЕАКЦИИ ТКАНЕЙ МАТКИ ПРИ УШИВАНИИ РАЗЛИЧНЫМ ШОВНЫМ МАТЕРИАЛОМ: ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНЫЙ ПОДХОД //Достижения науки и образования. – 2025. – №. 2 (100). – С. 31-35.
12. Валиев Ш. Н. РОЛЬ ВЫБОРА ХИРУРГИЧЕСКОГО ДОСТУПА В ФОРМИРОВАНИИ ПЕРИНАТАЛЬНЫХ РЕЗУЛЬТАТОВ ПРИ КЕСАРЕВОМ СЕЧЕНИИ //Достижения науки и образования. – 2025. – №. 2 (100). – С. 27-31.
13. Валиев Ш. Н. ЭФФЕКТИВНОСТЬ ОПЕРАЦИЙ КЕСАРЕВА СЕЧЕНИЯ В ЗАВИСИМОСТИ ОТ ОПЕРАЦИОННОГО ДОСТУПА В ЭКСТРЕННЫХ СИТУАЦИЯХ //TADQIQOTLAR. UZ. – 2024. – Т. 51. – №. 5. – С. 120-124.



UDK 612.6.058:618.15-007.21

Nasimova Nigina Rustamovna

DSc, assistant

Samarqand davlat tibbiyot universiteti

Samarqand, O'zbekiston

Negmadjanov Baxodur Boltayevich

Professor

Samarqand davlat tibbiyot universiteti

Samarqand, O'zbekiston

Ganiyev Faxriddin Istamkulovich

Assistant

Samarqand davlat tibbiyot universiteti

Samarqand, O'zbekiston

Hamroeva Lola Qahhorovna

t.f.n., assistant

Samarqand davlat tibbiyot universiteti

Samarqand, O'zbekiston

Umarova Xosiyat Nadimovna

Samarqand davlat tibbiyot universiteti

Samarqand, O'zbekiston

**O'SMIR QIZLARDA TUXUMDONNING YAXSHI SIFATLI O'SMALARI VA O'SMASIMON SHAKLLANMALARINI
DIAGNOSTIKASI HAMDA DIFFERENSIAL BAHOLASHI (ADABIYOTLAR TAHLILI)**

For citation: Negmadjanov Baxodur Boltayevich, Mamatkulova Mohigul Jaxongirovna, Ganiyev Faxriddin Istamkulovich, Hamroeva Lola Qahhorovna, Hamrayeva Dilsòz Ikrom qizi, Diagnosis and differential evaluation of benign tumors and tumor-like formations of the ovaries in adolescent girls (literature review), Journal of Reproductive Health and Uro-Nephrology Research 2026, vol.7, issue 1


<https://dx.doi.org/10.5281/zenodo.18871186>
Насимова Нигина Рустамовна

DCs ассистент

Самаркандский государственный

медицинский университет

Самарканд, Узбекистан

Негмаджанов Баходур Болтаевич

Профессор

Самаркандский государственный

медицинский университет

Самарканд, Узбекистан

Ганиев Фихридин Истамкулович

Ассистент

Самаркандский государственный

медицинский университет

Самарканд, Узбекистан

Хамроева Лола Каххоровна

к.м.н., ассистент

Самаркандский государственный

медицинский университет

Самарканд, Узбекистан

Умарова Хосият Надимовна

Самаркандский государственный

медицинский университет

Самарканд, Узбекистан

ДИАГНОСТИКА И ДИФФЕРЕНЦИАЛЬНАЯ ОЦЕНКА ДОБРОКАЧЕСТВЕННЫХ ОПУХОЛЕЙ И ОПУХОЛЕВИДНЫХ ОБРАЗОВАНИЙ ЯИЧНИКОВ У ДЕВУШЕК-ПОДРОСТКОВ (ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ)

Nasimova Nigina Rustamovna

DSc, assistant

Samarkand State Medical University
Samarkand, Uzbekistan

Negmadjanov Bakhodur Boltaevich

Professor

Samarkand State Medical University
Samarkand, Uzbekistan

Ganiev Fakhriddin Istamkulovich

assistant

Samarkand State Medical University
Samarkand, Uzbekistan

Khamroeva Lola Kakhkhorovna

PhD, assistant

Samarkand State Medical University
Samarkand, Uzbekistan

Umarova Xosiyat Nadimovna

Samarkand State Medical University
Samarkand, Uzbekistan

DIAGNOSIS AND DIFFERENTIAL EVALUATION OF BENIGN TUMORS AND TUMOR-LIKE FORMATIONS OF THE OVARIES IN ADOLESCENT GIRLS (LITERATURE REVIEW)

Qizlarda tuxumdonlarning havfsiz o'smalari va o'smaga o'xshash tuzilmalari tibbiy jihatdan muhim muammolardan biri hisoblanadi. Bu patologik holatlar ba'zan og'ir aniqlanadi, ba'zi holatlarda yomon sifatli o'smalarga aylanish xavfi mavjud bo'lib, davolash samaradorligi ham qiyin kechishi mumkin [1]. So'nggi yillarda ilmiy adabiyotlarda bu kabi holatlar bolalar va o'smirlar orasida aniqlanayotgani haqidagi ma'lumotlar ko'paymoqda [1,4,6,19]. Bolalar ginekologiyasida bachadonning qo'shimcha a'zolaridagi o'smalar va o'smaga o'xshash tuzilmalarning uchrash tezligi 1% dan 4,6% gacha tashkil etadi. Shuningdek, bunday patologiya aniqlangan bemorlarning yoshi tobora kichiklashayotgani ham qayd etilgan [7,11]. Ayrim tadqiqotlarda bu patologik o'zgarishlarni bola tug'ilmasidan avval yoki chaqaloqlik davridayoq aniqlash mumkinligi haqida xabarlar bor [7,9,19].

Ta'kidlash lozimki, yaxshi sifatli o'smalar va o'smaga o'xshash tuzilmalar ko'p holatlarda qizlarda o'ng tuxumdonida rivojlanadi. Bu, ehtimol, uning anatomik va funksional ustunligi bilan bog'liq bo'lib, o'ng tuxumdonida genetik jihatdan erta va faol ish boshlanish ehtimolini ko'rsatadi. Qizlarda bunday holatlarning yuzaga kelishida bir qator omillar rol o'ynaydi: onalarining og'ir ginekologik anamnezi (tuxumdon kistalari yoki haqiqiy o'smalari, preeklampsiya, homiladorlik paytidagi virusli infeksiyalar, dori vositalarini qabul qilish), shuningdek, ijtimoiy-maishiy va ekologik omillar (tashqi muhit ta'siri, noto'g'ri ovqatlanish, tez-tez stress holatlari). Gipotalamus-gipofiz-tuxumdon tizimidagi disfunktsiya asosida paydo bo'ladigan hayz siklining buzilishi ham muhim rol o'ynaydi. Qizlar va o'smirlarda tuxumdonlarga qilingan jarrohlik amaliyotlarining uzoq muddatli natijalarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, menarxe (birinchi hayz) boshlanishidan oldin, taxminan 12–14 yoshda o'tkazilgan operatsiyalar kelajakda reproduktiv funksiyaga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin; bu ta'sirning darajasi operatsiya hajmi va qaysi tuxumdonida bajarilganiga bog'liq. Tuxumdon o'smalari va o'smaga o'xshash tuzilmalar turlari ko'p bo'lishiga qaramasdan, bolalarda ularning gistologik xilma-xilligi kattalarga nisbatan kamroq. Bu tuzilmalar tuxumdonning barcha to'qimalaridan, shu jumladan, embrional differensiyalanmagan elementlardan ham o'sishi mumkin. Bolalarda eng ko'p uchraydigan o'smaga o'xshash tuzilmalar follikulyar kistalar va sariq tana kistalari bo'lib, ular umumiy holatlarning taxminan 39,5% dan 70% gacha bo'lgan qismini tashkil etadi. Bolalardagi haqiqiy tuxumdon o'smalari orasida esa dizontogenetik kelib chiqishga ega bo'lgan tuzilmalar (80–90%) ustunlik qiladi; ularning taxminan ikkidan uch qismi germinogen (hujayraviy) o'smalardan iborat. Ushbu o'smalar orasida eng ko'p aniqlanadiganlari – bu yetilgan va yetilayotgan (nezrelnye) teratomalar hamda disgerminomalardir. Yetilgan teratoma kistoz shaklda (boshqa nom bilan «dermoid kista») yoki solid (qattiq tuzilma) ko'rinishida

bo'lishi mumkin. U o'z tarkibida uchta zarodish qatlamining elementlarini, asosan ektodermal manbadagi to'qimalarni o'z ichiga oladi. Bunday o'sma tarkibida yog' bezlari va soch follikulalari, tishlar, shemirshaq, soch, nerv to'qimalari bo'lishi mumkin. Epitelial o'smalar bolalar va o'smirlarda barcha tuxumdon tuzilmalarining taxminan 15,4% dan 26,7% gacha bo'lgan qismini tashkil etadi va germinogen o'smalardan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Ularning ichida eng ko'p uchraydiganlari – seroz va mutsinoz sistadenomalardir. Seroz sistadenoma – bu bir kamerali yoki ko'p kamerali bo'lishi mumkin bo'lgan, ichida seroz suyuqligi to'lgan, hamda tekis tashqi tuzilmaga ega o'sma hisoblanadi. Mutsinoz sistadenoma esa o'smirlarda kamroq uchraydi, u doim ko'p kamerali bo'lib, tarkibida psevdomutsin bo'ladi, juda tez o'sish xususiyatiga ega, katta o'lchamga yetishi mumkin va 5,9% dan 13% gacha bemorlarda yomon sifatli o'smaga (malignizatsiyaga) aylanish qobiliyatiga ega. Jinsiy stroma o'smalari bolalar yoshidagi bemorlarning taxminan 3,5% dan 11% gacha bo'lgan qismidan aniqlanadi. Ushbu guruhga quyidagi o'smalar kiradi: haqiqiy stromal o'smalar; faqatgina jinsiy stroma hujayralaridan iborat tuzilmalar; bu guruhga oid maxsus belgisi bo'lmagan o'smalar; shuningdek, stroma va germinogen hujayralar elementlarini o'z ichiga olgan aralash shakllar. Bu o'smalarning paydo bo'lish manbai tuxumdon stromasidagi granulyoza va teka hujayralar, Sertoli va Leydig hujayralari hamda fibroblastlar hisoblanadi. Ular ko'pincha gormonal faollikka ega bo'ladi, asosan estrogen turida. Bu holat 8 yoshgacha bo'lgan qizlarda erta jinsiy rivojlanishni keltirib chiqarishi, o'smirlarda esa endometriy giperplaziyasi va bachadondan qon ketishiga olib kelishi mumkin [1,12]. Tuxumdonning endometrioid o'smalari ham alohida e'tiborga loyiq. Reprodukativ yoshdagi ayollarda endometrioz lokalizatsiyasi bo'yicha tuxumdonlar bachadon tanasi va bachadon bo'ynidan keyin uchinchi o'rinda turadi [1,4]. Endometriomalalar (endometrioid kistalar) o'lchami va shakli bo'yicha farq qiladi, qattiq-elastik konsistensiyaga, cheklangan harakatchanlikka ega va o'ziga xos gemorragik (qonli) modda to'plangan bo'ladi [7,10]. Klinik jihatdan endometriomalalar og'riq sindromi bilan namoyon bo'ladi: doimiy, zo'rg'a bilinadigan og'riqdan tortib, belga yoki to'g'ri ichakqa uzatiladigan kuchli og'riqlar bo'lishi mumkin. Bu og'riqlar odatda hayz oldidan yoki hayz paytida kuchayadi [5,22]. Ultratovush tekshiruvi (UZ)da bunday kistalarni aniqlashda ularning o'lchami hayz sikl fazasiga qarab o'zgarishi muhim diagnostik xususiyat hisoblanadi [6]. Qizlarda tuxumdon o'smalari va o'smaga o'xshash tuzilmalarning klinik xususiyatlari ko'p jihatdan yoshga bog'liq anatomik-fiziologik xususiyatlar bilan belgilanadi: kichik chandiq sohasi, bachadonning kichik o'lchami va tuxumdonlarning qorin bo'shlig'ida yuqori joylashuvi. Shu bois, bunday patologik holatlar ko'pincha

simptomlarsiz kechadi, yaqqol klinik belgilari kuzatilmaydi [2,4,7]. Aniq simptomlar asosan o'smaning oyoqchasi aylanib qolganda (perekrut) namoyon bo'ladi bu holat bolalarda kattalarga nisbatan ko'proq uchraydi, chunki bolalarda bachadon qo'shimcha a'zolari bog'lamlari juda harakatchan va cho'ziluvchan bo'ladi [5,8]. Agar kasallik asoratsiz kechsa, qizlar qorin poyonida og'riq, hayz siklining buzilishi yoki qorin hajmining oshishi kabi shikoyatlar bildirishi mumkin. Og'riq tabiati yengil va bezovta qiluvchi og'riqdan tortib, o'tkir, tig'iz va kuzatiluvchi og'riqlargacha farq qilishi mumkin. Odatda og'riq lonaso'n va churra sohalorida lokalizatsiyalanadi, lekin belga radiatsiya qilishi, jismoniy faollikda kuchayishi mumkin. Katta o'smalar peshob qilish va tugish faoliyatiga ham ta'sir qilishi mumkin [2, 4,5,7]. Hayz ko'rish sikllari buzilishi ko'proq oligonemoreya (kam va noqonuniy hayz) yoki anomal qon ketish shaklida namoyon bo'ladi. Amenoreya (hayz yo'qligi) esa ko'proq holatda gonadalar disgenезiyasi bilan bog'liq. Lekin bunday patsientlarda disgerminoma kabi germinogen o'smalar yoki stroma elementlarini o'z ichiga olgan aralash o'smalar ham rivojlanishi mumkin. Qizlarda tuxumdon o'smalari va o'smaga o'xshash tuzilmalarning asoratli kechishi klinik ko'rinishi. Eng keng tarqalgan asoratlar quyidagilar hisoblanadi: o'sma oyoqchasining aylanib qolishi (perekrut), kapsula yorilishi, ifloslanish (nagnoenie) va ichki qisman qon quyilishi [2,5,19]. Bunday holatlar aniq klinik belgilari bilan kechadi: qorin poyonida kuchli yoki tig'iz og'riq, qorin devori mushaklarining tarangligi, peritoneal belgi, ko'ngil aynishi, qusish, isitma, ichak parezi, qabziyat, teri oqarishi, sovuq ter va yurak urishi tezlashishi. Palpatsiya (tekshirish) vaqtida bachadon qo'shimchalari sohasida og'riqli o'sma aniqlanishi mumkin, uni siljitishga urinishda kuchli og'riq yuzaga keladi. Vospalenie (yozilib borish) reaksiyasining dastlabki soatlarida qon tahlilidagi leykotsitar formula o'zgarasligi mumkin [6,8,23].

Qizlar va o'smirlarda tuxumdon o'smalari va o'smaga o'xshash tuzilmalari aniqlash diagnostikasi. Diagnostika shikoyatlar va anamnez tahlilidan hamda rektal-abdominal tekshiruvdan iborat bo'lib, tuzilmaning zichligi, sirti, harakatchanligi va og'riqchanligini aniqlash imkonini beradi. Lekin bu usul kichik kistalarda samarasiz bo'lishi mumkin [10,13]. Ultratovush tekshiruvi (UZI) yetakchi diagnostik ahamiyatga ega, chunki u hatto kichik tuzilmalarni aniqlash va ularni dinamikada kuzatish imkonini beradi [13,20,21]. Rangli dopplerografiya o'smaning qon tomirlar bilan ta'minlanishini baholashda yordam beradi. Yahshi sifatli o'sma deb gumon qilinganda, aneoxogenlik, ingichka devorlar va tuzilma ichida qon oqimining

yo'qligi (bu 75% yoqimli holatlarda uchraydi) kabi belgilari muhim [18,20]. Agar o'sma oyoqchasi aylangan bo'lsa, dopplerda vaskulyarizatsiyaning yo'qligi nekrozni ko'rsatadi va shoshilinch jarrohlikni talab etadi [3]. Laparoskopiya ham diagnostik, ham davolovchi usul sifatida qo'llaniladi. U tuzilmaning aniq joylashuvi va strukturasi aniqlash, shuningdek, uni kam invaziv usulda olib tashlash imkonini beradi [1,3,6]. Qo'shimcha tekshiruv usullari: gormon darajalarini (estradiol, testosteron) tahlil qilish, so'rima (mazok) mikroskopiyasi, antibiotiklarga sezgirlikni aniqlash bilan bakteriologik kultura yetishi [6,9]. Ginekologiyada magnit-rezonans tomografiya (MRT) quyidagi holatlarda qo'llaniladi: reproduktiv a'zolarida hajmli shakllanishlar aniqlanganda, bachadon va qinning rivojlanish anomaliyalari va nuqsonlarida, kichik chanoq sohasidagi abscesslarda, har qanday joylashuvdagi endometriozda, hamda kichik chanoq a'zolarining shikastlanishlarida [6]. Davolash taktikasi. Ikki yondashuv mavjud: Kuzatuvchan yondashuv 5 sm gacha bo'lgan o'smaga o'xshash tuzilmalarda qo'llaniladi; bunday holatlarning 60% da 3 oy ichida o'z-o'zidan yo'qolish ehtimoli bor [14,15]. Jarrohlik yo'li agar tuzilma saqlansa yoki kattalashsa, laparoskopiyaga ustuvorlik beriladi, chunki u kam shikastlovchi usul hisoblanadi. U tez tiklanishni ta'minlaydi, zig'illarning shakllanish xavfini kamaytiradi va tuxumdon to'qimasini saqlab qolish imkonini beradi [15,17,22]. Jarrohlik hajmi klinik manzaraga bog'liq: agar sog'lom to'qima saqlangan bo'lsa, enukleatsiya (to'liq ajratish) yoki rezeksiya (qisman olib tashlash); agar o'sma aylanib qolgan bo'lsa, detorsiya (aylanishni bartaraf etish) yoki olib tashlash va tuxumdonni joyiga mahkamlash amaliyoti qo'llaniladi [12,17]. Tuxumdonni to'liq olib tashlash faqat unda sog'lom to'qima qolmagan yoki nekroz rivojlangan hollarda amalga oshiriladi [2,3,5]. Bunday jarrohlik amaliyotlari faqat maxsus jihozlangan, bolalar ginekologiyasiga ixtisoslashtirilgan stasionarlarda amalga oshirilishi kerak [1,9].

Xulosa qilib aytganda, bolalar va o'smirlarda bachadon qo'shimchalarida o'sma va o'smaga o'xshash tuzilmalar hozirgi zamonaviy ginekologiyaning dolzarb muammolaridan biri bo'lib qolmoqda. Eng asosiy qiyinchiliklar aniq tashxis qo'yish bilan bog'liq: kasallik ko'p holatlarda simptomlarsiz kechadi, maxsus shikoyatlar yo'q, shuningdek, bu yoshda to'liq ginekologik tekshiruvni o'tkazish murakkab. Buning natijasida noto'g'ri tashxis qo'yilishi va zarur davolashni kech boshlash holatlari yuzaga keladi, bu esa asoratlar rivojlanishiga va bemorning kelajakdagi reproduktiv salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Адамян Л.В., Под -дубный И.В., Глыбина Т.М., Федорова Е.В. Лапароскопия при кистах яичника и брюшной полости у девочек. М: ГЭОТАР-Медиа, 2017. С. 9–25.
2. Адамян Л.В., Богданова Е.А., Глыбина Т.М., Сибирская Е.В. и др. «Острый» живот у девочек при опухолях и опухолевидных образованиях придатков матки // Пробл. репродукции. 2018. № 6. С. 49–53.
3. Уварова Е.В., Немченко О.И. Опухоли и опухолевидные образования яичников у детей и подростков // Гинекология. 2017. № 9. С. 4–15.
4. Сибирская Е.В., Адамян Л.В., Яцык С.П., Гераськина С.Г. Абдоминальный болевой синдром у девочек при опухолях и опухолевидных образованиях придатков матки // Рос. педиатр. журн. 2015. № 5. С. 54–59.
5. Гаспаров А.С., Тер-Овакмян А.Э., Хилькевич Е.Г., Косаченко А.Г. Апоплексии яичника и разрывы кист яичников: монография. М.: МИА, 2009. С. 86–100.
6. Ульрих Е.А., Урманчеева А.Ф., Кутушева Г.Ф. Опухоли яичника (клиника, диагностика и лечение). Н-Л, СПб., 2012. С. 5–19.
7. Нейштадт Э.Л., Ожиганова И.Н. Опухоли яичника. СПб.: Фолиант, 2014. 350 с.
8. Сибирская Е.В., Адамян Л.В., Яцык С.П., Гераськина С.Г. Боли в животе у девочек, связанные с гинекологической патологией: ошибки диагностики и лечения // Педиатр. фармакология. 2017. № 4. С. 23–28.
9. Богданова Е.А. Практическая гинекология молодых. М.: Мед. книга, 2018. С. 60–82.
10. Айламазан Э.К. Гинекология от пубертата до пост менопаузы: монография. М.: МЕДпресс информ, 2017. С. 12–25.
11. Гуркин Ю.А. Детская и подростковая гинекология: рук-во для врачей. М.: МИА, 2019. С. 85–91.
12. Гинекология: национальное руководство / под ред. В.И. Кулакова, И.Б. Манухина, Г.М. Савельевой. М.: ГЭОТАР-Медиа, 2018. С. 521–531.
13. Адамян Л.В., Сухих Г.Т. Новые технологии в диагностике и лечении гинекологических заболеваний. М.: МЕДИ Экспо, 2016. С. 107–108.
14. Муслимова С.Ю. Результаты консервативного и хирургического лечения функциональных кист яичников у девочек // Репродукт. здоровье детей и подростков. 2016. № 3. С. 35–41.
15. Румянцева З.С. Коррекция основного патогенетического фактора ретенционных образований яичников в подростковом возрасте // Мед.-соц. пробл. семьи. 2018. № 3. С. 21–30.

16. Адамян Л.В. Богданова Е.А., Глыбина Т.М., Сибирская Е.В. Гинекологическая патология детей и подростков как причина абдоминального синдрома // Пробл. репродукции. 2011. № 1. С. 31–32.
17. Пури П., Гольвард М. Атлас детской оперативной хирургии. М.: МЕ Дпресс-информ, 2019. С. 648–649.
18. Yang C., Wang S., Li C.C. et al. Ovarian germ cell tumors in children: a 20-year retrospective study in a single institution // Eur. J. Gynaecol. Oncol. 2018. Vol. 3. P. 289–292.
19. Conforti A., Giorlandino C., Bagolan P. Fetal ovarian cysts management and ovarian prognosis: a report of 82 cases // *Pediatr. Surg.* 2019. Vol. 4. P. 868.
20. Turgal M., Ozyuncu O., Yazicioglu A. Outcome of sonographically suspected fetal ovarian cysts // *J. Matern. Fetal Neonatal Med.* 2013. Vol. 26. P. 1728–1732.
21. Chinchure D., Ong C.L., Loh A.H et al. Neonatal ovarian cysts: role of sonography in diagnosing torsion // *Ann. Acad. Med. (Singapore)*. 2017. Vol. 40. P. 291–295.
21. Ju L.I., Yue-xin Y.U., Chun-yan S.U.N. Xue Dan, Dong-ying Q.U. Surgical high ligation of the ovarian vein and preservation of ovarian functions for twisted ovarian tumors // *Chin. Med. J.* 2017. Vol. 125. P. 374–3746.
22. Benaglia L., Somigliana E., Vercellini P., Abbiati A., Ragni G., Fedele L. Endometriotic ovarian cysts negatively affect the rate of spontaneous ovulation // *Hum. Reprod.* 2019. Vol. 24. P. 2183–2186.



UDK 616.14-089.5:618.1-089.163

ISSN: 2181-0990
www.tadqiqot.uz

JOURNAL OF REPRODUCTIVE HEALTH AND URO-NEPHROLOGY RESEARCH

ЖУРНАЛ РЕПРОДУКТИВНОГО ЗДОРОВЬЯ И УРО-НЕФРОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ

Xudoyarova Dildora Raximovna
Tibbiyot fanlari doktori, professor
Samarqand davlat tibbiyot universiteti,
Samarqand, O'zbekiston

Tursunov Nuriddin Baxriddinovich
SamDTU Mustaqil izlanuvchisi
Respublika shoshilinch tibbiy yordam
ilmiy markazining Samarqand filiali,
Samarqand, O'zbekiston

SHOSHILINCH GINEKOLOGIYADA LAPAROSKOPIK ARALASHUVLARDA ZAMONAVIY INTRAOPERATSION GEMOSTAZ USULLARINING SAMARADORLIGI (ADABIYOTLAR TAHLILI)

For citation: Xudoyarova Dildora Raximovna, Tursunov Nuriddin Baxriddinovich, Effectiveness of modern intraoperative hemostasis methods in laparoscopic emergency gynecology (literature review), Journal of Reproductive Health and Uro-Nephrology Research 2026, vol.7, issue 1



<https://dx.doi.org/10.5281/zenodo.18872724>

Худоярова Дилдора Рахимовна
Доктор медицинских наук, профессор
Самаркандский Государственный
Медицинский университет
Самарканд, Узбекистан

Турсунов Нуриддин Бахриддинович
свободный соискатель СамГМУ
врач акушер-гинеколог Самаркандского филиала
Республиканского научного центра экстренной помощи
Самарканд, Узбекистан

ЭФФЕКТИВНОСТЬ СОВРЕМЕННЫХ МЕТОДОВ ИНТРАОПЕРАЦИОННОГО ГЕМОСТАЗА ПРИ ЛАПАРОСКОПИЧЕСКИХ ВМЕШАТЕЛЬСТВАХ В УРГЕНТНОЙ ГИНЕКОЛОГИИ (ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ)

Khudoyarova Dildora Rakhimovna
Doctor of Medical science, Professor
Samarkand State medical university
Samarkand, Uzbekistan.

Tursunov Nuriddin Bakhriddinovich
Independent Researcher SamSMU,
Obstetrician-Gynecologist, Samarkand Branch of the
Republican Scientific Center for Emergency Medical Care
Samarkand, Uzbekistan.

EFFECTIVENESS OF MODERN INTRAOPERATIVE HEMOSTASIS METHODS IN LAPAROSCOPIC EMERGENCY GYNECOLOGY (LITERATURE REVIEW)

So'nggi yillarda shoshilinch ginekologik patologiyalar tuzilmasida "o'tkir qorin" sindromi yetakchi o'rinlardan birini egallab, akusher-ginekologik amaliyotda murakkab diagnostik va davolovchi muammo sifatida baholanmoqda. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, ginekologik shoshilinch holatlar umumiy shoshilinch ginekologik murojaatlarning 20–30 % ini tashkil etadi, ularning katta qismi jarrohlik aralashuvni talab qiladi [16]. Ushbu holatlar yuqori qon yo'qotish xavfi, tez rivojlanadigan gemodinamik buzilishlar va reproduktiv yoshdagi ayollarda uzoq muddatli salbiy

oqibatlar bilan kechishi mumkinligi sababli alohida e'tibor talab etadi [7, 11, 12]. An'anaviy ravishda "o'tkir qorin" bilan kechuvchi ginekologik kasalliklarda laparotomiya asosiy jarrohlik yondashuv sifatida qo'llanilgan. Biroq, so'nggi o'n yilliklarda minimal invaziv texnologiyalarning rivojlanishi natijasida laparoskopik aralashuvlar shoshilinch ginekologiyada keng joriy etilib, ko'plab mualliflar tomonidan "oltin standart" sifatida baholanmoqda [8, 13, 14, 16]. Laparoskopiya operatsion travmani kamaytirishi, stasionar davolanish muddatini qisqartirishi, operatsiyadan keyingi asoratlar va bitishmalar

rivojlanishini cheklashi, shuningdek, ayollarda reproduktiv funksiyani yuqori darajada saqlab qolish imkonini berishi bilan ajralib turadi [18, 21, 22]. Shu bilan birga, laparoskopik jarrohlik aralashuvlarining muvaffaqiyati ko'p jihatdan intraoperatsion gemostazni ta'minlash usullariga bog'liq. Shoshilinch ginekologik patologiyalarda qon ketishning tez va ishonchli to'xtatilishi nafaqat operatsiya natijasini, balki operatsiyadan keyingi asoratlar chastotasini, bitishmalar rivojlanishini va ovarial rezervning saqlanish darajasini belgilovchi muhim omil hisoblanadi [1, 19, 20]. Zamonaviy adabiyotlarda gemostaz usullarini tanlashda to'qimalarga minimal termik shikast yetkazish, ishonchli qon ketish nazorati va uzoq muddatli reproduktiv natijalarni hisobga olish asosiy mezon sifatida qaralmoqda [3, 4].

Bugungi kunda shoshilinch ginekologik amaliyotda mexanik gemostaz, elektrojarrohlik usullari (monopolyar va bipolyar koagulyatsiya), lazerli hamda argon-plazmali koagulyatsiya keng qo'llanilmoqda. Biroq, turli energiyaviy texnologiyalarning tuxumdon to'qimasiga ta'siri, ovarial rezervga bo'lgan uzoq muddatli oqibatlar va bitishmalar rivojlanishiga ta'siri borasida adabiyotlarda qarama-qarshi fikrlar mavjud [2, 10, 16]. Ayrim mualliflar lazer va argon-plazmali koagulyatsiyaning yuqori selektivligini ta'kidlasalar, boshqalari ularning texnik murakkabligi va cheklangan qo'llanilish imkoniyatlariga e'tibor qaratadilar [11, 15].

Shu munosabat bilan, shoshilinch ginekologiyada laparoskopik aralashuvlar vaqtida qo'llaniladigan zamonaviy intraoperatsion gemostaz usullarining samaradorligini, afzalliklari va cheklovlarini tizimli ravishda tahlil qilish dolzarb ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Ushbu obzor maqola zamonaviy adabiyotlar tahlili asosida turli gemostaz usullarining klinik samaradorligini baholash, ularning reproduktiv ahamiyatini yoritish hamda shoshilinch ginekologik amaliyot uchun maqbul yondashuvlarni aniqlashga bag'ishlanadi.

Shoshilinch ginekologik amaliyotda intraoperatsion gemostaz nafaqat qon ketishni to'xtatishga qaratilgan texnik bosqich, balki jarrohlik aralashuvining umumiy natijasini belgilovchi muhim klinik omil hisoblanadi. Zamonaviy ilmiy manbalarda gemostaz sifatining bemorlar letalligi, operatsiyadan keyingi asoratlar chastotasi, bitishmalar (bitishmalar) rivojlanishi hamda reproduktiv yoshdagi ayollarda ovarial rezervning saqlanishi bilan bevosita bog'liqligi ta'kidlanadi [2, 14, 15].

O'tkir ginekologik patologiyalar, xususan, tuxumdon apopleksiyasi, tuxumdon kistasining yorilishi va ektopik homiladorlikda kuzatiladigan massiv qon ketish holatlarida intraoperatsion gemostazning yetarli darajada ta'minlanmasligi gemorragik shok, qayta qon ketish va o'lim xavfining ortishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli, shoshilinch vaziyatlarda qon ketishni tez, ishonchli va nazorat ostida to'xtatish jarrohlik taktikasining asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi [2, 17, 18].

Intraoperatsion gemostazning sifati operatsiyadan keyingi asoratlar rivojlanishiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Haddan tashqari agressiv yoki nazoratsiz energiyaviy ta'sir yallig'lanish jarayonlarining kuchayishi, ikkilamchi qon ketish va infeksiyon asoratlar xavfini oshiradi. Bundan tashqari, kichik tos bo'shlig'ida bitishmalar hosil bo'lishi keyinchalik surunkali tos og'rig'i va ikkilamchi bepustlik rivojlanishining asosiy patogenetik omillaridan biri sifatida qaraladi.

So'nggi yillarda adabiyotlarda intraoperatsion gemostaz usullarining tuxumdon to'qimasiga ta'siri alohida ahamiyat kasb etmoqda. Tuxumdon parenximasi termik shikastlanishga yuqori sezuvchan bo'lib, noto'g'ri tanlangan koagulyatsiya usullari follikulyar apparat zararlanishiga va ovarial rezervning kamayishiga olib kelishi mumkin. Shu bois, zamonaviy yondashuvlar gemostazni ta'minlash bilan bir qatorda reproduktiv funksiyani maksimal darajada saqlab qolishga qaratilgan bo'lishi lozim [14, 15, 16].

Zamonaviy ginekologik jarrohlikda intraoperatsion gemostaz usullari ta'sir mexanizmi va qo'llanilish xususiyatlariga ko'ra bir necha asosiy guruhlarga bo'linadi. Mexanik gemostaz usullari qon ketishni to'xtatishning eng qadimiy va fiziologik jihatdan eng kam zarar yetkazuvchi yo'li hisoblanadi. Ushbu usullar tomirni bevosita mexanik yo'l bilan yopish orqali qon oqimini to'xtatishga asoslanadi. Ligatura qo'yish, klipsalar, tamponada va tikuv usullari mexanik gemostazning asosiy shakllaridir. Bu jarayonda tomir devoriga hech qanday issiqlik

yoki energiyaviy ta'sir ko'rsatilmaydi, natijada atrof to'qimalarda termik nekroz va ikkilamchi yallig'lanish reaksiyalari rivojlanmaydi.

Mexanik gemostazning asosiy mexanizmi tomir devorining siqilishi va qon oqimining fizik to'xtatilishi bilan bog'liq bo'lib, bu jarayon tromb hosil bo'lishini tezlashtiradi va fiziologik ivish mexanizmlarini faollashtiradi. Ayniqsa, tuxumdon va uning qo'shimchalarida mexanik gemostaz ovarial stromaga minimal zarar yetkazgani sababli reproduktiv yoshdagi ayollarda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, mexanik usullar ko'pincha vaqt talab etishi va texnik murakkabligi sababli shoshilinch holatlarda energiyaviy gemostaz bilan kombinatsiyada qo'llaniladi. Ushbu usullarning asosiy afzalligi – to'qimalarga termik shikast yetkazmasligi bo'lib, bu ayniqsa tuxumdon to'qimasida ovarial rezervni saqlash nuqtai nazaridan muhim hisoblanadi. Shu bilan birga, mexanik gemostaz laparoskopik sharoitda texnik jihatdan murakkab bo'lishi va operatsiya vaqtini uzaytirishi mumkin [1].

Elektroxirurgik gemostaz usullari shoshilinch ginekologiyada eng keng tarqalgan usullardan biri bo'lib, monopolyar va bipolyar koagulyatsiyani o'z ichiga oladi. Monopolyar koagulyatsiya yuqori chastotali elektr toki orqali to'qimalarda issiqlik hosil qilishga asoslangan. Tok faol elektroddan to'qima orqali o'tib, neytral elektrodga yetib boradi. Ushbu jarayonda elektr qarshilik tufayli issiqlik energiyasi ajralib chiqadi va oqibatda hujayra oqsillari denaturatsiyaga uchraydi, tomir devorlari kollapsga uchrab, qon ketish to'xtaydi. Biroq monopolyar energiyaning asosiy xususiyati — issiqlikning nazoratsiz va chuqur tarqalishidir. Tokning to'qimalar orqali keng yoyilishi natijasida koagulyatsiya zonasi faqat qon ketayotgan nuqta bilan chegaralanmaydi, balki atrof stromal va funksional to'qimalarni ham qamrab oladi. Shu sababli tuxumdon kabi nozik va qon tomirlariga boy a'zolarida monopolyar koagulyatsiya chuqur termik nekroz, follikulyar apparat shikastlanishi va keyinchalik bitishmalar rivojlanishi xavfini oshiradi. Zamonaviy qarashlarda monopolyar koagulyatsiya asosan yordamchi yoki vaqtinchalik gemostaz usuli sifatida baholanadi. Monopolyar koagulyatsiya tez va samarali gemostazni ta'minlashda, chuqur termik nekroz xavfi tufayli kichik tos a'zolarida ehtiyotkorlik bilan qo'llanilishi tavsiya etiladi.

Bipolyar koagulyatsiya elektroxirurgik gemostazning yanada takomillashgan va nazorat qilinadigan shaklidir. Ushbu usulda elektr toki faqat ikki elektrod oraliqida yopiq konturda harakat qiladi. Natijada energiya oqimi aniq lokalizatsiyalanadi va issiqlik faqat koagulyatsiya qilinayotgan to'qima doirasida hosil bo'ladi. Bipolyar koagulyatsiyaning mexanizmi hujayra ichidagi suyuqlikning tez qizishi, oqsillar koagulyatsiyasi va tomir devorlarining kollapsi orqali amalga oshadi. Issiqlikning cheklangan tarqalishi tufayli atrof to'qimalar, xususan tuxumdon stromasi va follikulyar tuzilmalar minimal darajada shikastlanadi. Shu sababli bipolyar koagulyatsiya tuxumdon gemostazida "oltin standart" sifatida e'tirof etiladi. Ushbu usul ishonchli qon ketish nazorati bilan birga ovarial rezervni maksimal darajada saqlab qolish imkonini beradi. Bipolyar koagulyatsiya energiyaning lokal ta'siri va atrof to'qimalarga kam zarar yetkazishi bilan molnopolyardan ustun hisoblanadi [1].

Lazerli gemostaz yuqori aniqlikdagi fototermik ta'sirga asoslangan bo'lib, energiya lazer nuri orqali to'qimaga yo'naltiriladi. CO₂ va diod lazerlar ginekologik amaliyotda keng o'rganilgan bo'lib, ularning asosiy mexanizmi suv molekullari tomonidan energiyaning yutilishi va lokal issiqlik hosil bo'lishidir. Natijada hujayra ichidagi suv bug'lanadi, oqsillar denaturatsiyaga uchraydi va tomirlar koagulyatsiyalanadi. Lazerli gemostazning muhim afzalligi — selektivlik va nekroz zonasining aniq chegaralanishidir. Issiqlik chuqur qatlamlarga tarqalmaydi, bu esa peritoneal yuzada va tuxumdon to'qimasida minimal shikastlanishni ta'minlaydi. Shu bilan birga, lazer texnologiyalari yuqori texnik tayyorgarlik, maxsus jihozlar va uzoq o'rganish davrini talab qiladi. Bu holatlar uning shoshilinch ginekologik amaliyotda keng qo'llanilishini cheklaydi.

Lazer energiyasi selektiv koagulyatsiyani ta'minlab, nekroz zonasining cheklangan bo'lishi bilan tavsiflanadi. Ushbu usul tuxumdon va bachadon qo'shimchalari sohasida nozik manipulyatsiyalarni bajarishda istiqbolli hisoblanadi, biroq uskunaning qimmatligi va maxsus tayyorgarlik zarurati uning keng joriy etilishini cheklaydi.

Argon-plazmali koagulyatsiya ionlashtirilgan argon gazi yordamida kontakt bo'lmagan gemostazni ta'minlaydi. Ushbu usulda argon gazi elektr maydoni ta'sirida plazma holatiga o'tadi va yuzaki to'qimalarga energiya yetkazadi. Energiya asosan to'qimaning yuzaki qatlamlarida ta'sir ko'rsatib, kapillyar va mayda tomirlarni koagulyatsiyalaydi. Argon-plazmali koagulyatsiyaning mexanizmi yuzaki va diffuz qon ketishlarda samarali bo'lsa-da, uning chuqur tomirlarga ta'siri cheklangan. Bundan tashqari, yopiq bo'shliqlarda, xususan kichik tos sohasida argon gazining to'planishi gazli emboliya xavfini oshirishi mumkin. Shu sababli ushbu usul ginekologiyada qat'iy ko'rsatmalar asosida va ehtiyot choralariga rioya qilgan holda qo'llaniladi.

Argon-plazmali koagulyatsiya kontakt bo'lmagan energiyaviy gemostaz usuli bo'lib, argon gazi orqali uzatiladigan plazma oqimi yordamida yuzaki va bir maromdagi koagulyatsiyani ta'minlaydi. Ushbu usul diffuz qon ketishlarda samarali bo'lsa-da, termik shikastlanish xavfini oldini olish uchun qat'iy nazorat talab etiladi.

Kombinatsiyalangan gemostaz mexanik va energiyaviy usullarning birgalikda qo'llanishiga asoslanadi. Ushbu yondashuv og'ir va nazorat qilish qiyin bo'lgan qon ketishlarda, masalan, apopleksiya yoki massiv gemoperitoneum holatlarida qo'llaniladi. Mexanik gemostaz tomirni bevosita yopish orqali qon oqimini kamaytirsa, energiyaviy usullar qolgan diffuz qon ketishni tez va ishonchli to'xtatadi. Kombinatsiyalangan yondashuvning mexanizmi bosqichma-bosqich gemostazni ta'minlashga qaratilgan bo'lib, bu operatsiya vaqtini qisqartiradi, qaytalanuvchi qon ketish xavfini kamaytiradi va umumiy jarrohlik natijalarini yaxshilaydi. Shu bilan birga, ushbu usul individual klinik holatni chuqur baholash va jarrohning yuqori malakasini talab etadi.

Kombinatsiyalangan gemostaz usullari mexanik va energiyaviy texnologiyalarni birgalikda qo'llashga asoslanadi. Zamonaviy adabiyotlarda ushbu yondashuv og'ir va qaytalanuvchi qon ketishlarda eng maqbul usullardan biri sifatida baholanib, gemostazning ishonchligini oshirish bilan birga to'qimalarga yetkaziladigan umumiy zarar darajasini kamaytirishga imkon berishi ta'kidlanadi [1, 16].

Har bir gemostaz usuli o'ziga xos ta'sir mexanizmiga ega bo'lib, ularni tanlashda qon ketish intensivligi, jarrohlik aralashuv hajmi, bemorning reproduktiv yoshi va tuxumdon to'qimasini saqlab qolish zarurati hisobga olinishi lozim. Zamonaviy shoshilinch ginekologik amaliyotda gemostaz usullarini individual va ilmiy asoslangan tanlash optimal klinik va reproduktiv natijalarga erishishning muhim sharti hisoblanadi.

Elektroxirurgik gemostaz usullari shoshilinch ginekologik amaliyotda eng keng qo'llaniladigan energiyaviy texnologiyalar sirasiga kiradi. Ushbu usullar yuqori chastotali elektr toki yordamida to'qimalarda koagulyatsiya hosil qilish orqali qon ketishni to'xtatishga asoslanadi. Elektroxirurgik texnologiyalar tezkorligi va texnik qulayligi bilan ajralib tursa-da, ularni qo'llashda termik shikastlanish xavfi doimo e'tiborda bo'lishi lozim.

Monopolyar koagulyatsiya elektrojarrohlikning klassik va eng ko'p tarqalgan usullaridan biri hisoblanadi. Ushbu usulda elektr toki faol elektrodan bemor tanasi orqali passiv elektrodga o'tadi, natijada kengroq maydonda termik ta'sir yuzaga keladi. Monopolyar koagulyatsiyaning asosiy afzalligi qon ketishni qisqa vaqt ichida to'xtatish imkoniyati va texnik jihatdan soddaligidir. Shu bilan birga, adabiyotlarda monopolyar energiyaning chuqur va nazoratsiz termik shikastlanish xavfi mavjudligi ta'kidlanadi. Ayniqsa, kichik tos a'zolarida, xususan, tuxumdon to'qimasida qo'llanganda, ushbu usul follikulyar apparat zararlanishiga, atrof to'qimalarda nekroz

zonalarning kengayishiga va bitishmalar rivojlanishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli, monopolyar koagulyatsiya zamonaviy ginekologiyada asosan yordamchi yoki vaqtinchalik gemostaz usuli sifatida baholanadi [19, 20].

Bipolyar koagulyatsiya zamonaviy shoshilinch ginekologik amaliyotda eng maqbul energiyaviy gemostaz usullaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Ushbu usulda elektr toki faqat ikki elektrod orasida lokal tarzda o'tadi, natijada atrof to'qimalarga termik ta'sir minimal darajada bo'ladi. Shu xususiyati tufayli biplyar koagulyatsiya tuxumdon to'qimasida qo'llash uchun "oltin standart" sifatida qaraladi. Bir qator ilmiy tadqiqotlarda biplyar koagulyatsiyaning qon ketishni ishonchli nazorat qilishi bilan birga ovarial rezervni maksimal darajada saqlab qolish imkonini berishi ko'rsatilgan. Ushbu usulda follikulalar joylashgan kortikal qatlama termik shikast yetkazilish ehtimoli sezilarli darajada kamayadi, bu esa reproduktiv yoshdagi ayollarda keyingi fertil imkoniyatlarni saqlash nuqtai nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi [3, 4].

So'nggi yillarda ginekologik jarrohlik amaliyotida lazer texnologiyalariga bo'lgan qiziqish sezilarli darajada ortib bormoqda. Lazerli gemostaz yuqori aniqlikdagi energiyaviy ta'sirga asoslanib, to'qimalarda selektiv koagulyatsiyani ta'minlaydi. Amaliyotda asosan CO₂ lazeri va diodli lazer turlari qo'llaniladi. Lazerli koagulyatsiyaning asosiy afzalligi energiyaning aniq yo'naltirilishi va nekroz zonasining cheklanganligi bilan tavsiflanadi. Bu esa atrof sog'lom to'qimalarni maksimal darajada saqlashga imkon beradi hamda operatsiyadan keyingi yallig'lanish va bitishmalar rivojlanish xavfini kamaytiradi. CO₂ lazeri yuzaki to'qimalarda yuqori aniqlikda ishlash xususiyati bilan ajralib tursa, diodli lazerlar chuqurroq qatlamlarda samarali koagulyatsiyani ta'minlaydi [10, 19].

Biroq, lazer texnologiyalarining ayrim cheklovlari ham mavjud. Xususan, uskunaning yuqori narxi, texnik xizmat ko'rsatish talablari hamda jarrohlr uchun maxsus tayyorlarlik va o'rganish davrining murakkabligi uning keng klinik amaliyotga joriy etilishini cheklovchi omillar sifatida ko'rsatiladi. Ayrim mualliflar lazer bilan ishlashda o'rganish egri chizig'ining keskinligi va vaqt talab etishini ta'kidlab, uni faqat yetarli tajribaga ega markazlarda qo'llashni tavsiya etadilar [11, 15]. Shu tariqa, lazerli koagulyatsiya ginekologiyada istiqbolli va yuqori texnologiyali gemostaz usuli bo'lib, u to'g'ri tanlangan klinik holatlarda va malakali mutaxassislar tomonidan qo'llanganda yuqori samaradorlik ko'rsatadi [10].

Argon-plazmali koagulyatsiya (APK) yuqori chastotali elektr energiyasi va ionlashtirilgan argon gazi yordamida amalga oshiriladigan zamonaviy gemostaz usullaridan biri hisoblanadi. Ushbu texnologiyaning muhim afzalligi uning kontakt bo'lmagan ta'sir mexanizmiga ega ekanligidir, ya'ni elektroda to'qima bilan bevosita tegmasdan turib koagulyatsiya hosil qilinadi. Bu holat jarrohlik jarayonida mexanik shikastlanish xavfini kamaytiradi.

Argon-plazmali koagulyatsiya asosan yuzaki qon ketishlarni nazorat qilishda samarali bo'lib, termik ta'sir chuqurligining cheklanganligi bilan tavsiflanadi. Shu sababli u diffuz kapillyar qon ketishlarda va katta yuzali jarohatlarda qo'llash uchun qulay hisoblanadi. Biroq, kichik tos a'zolarida, ayniqsa tuxumdon va bachadon ortiqlari sohasida qo'llanganda, ushbu usulning cheklovlari mavjud. Adabiyotlarda argon gazi bilan bog'liq gazli emboliya xavfi potensial asorat sifatida qayd etiladi, ayniqsa yopiq bo'shliqlarda va yuqori bosim ostida qo'llanganda. Shu bois argon-plazmali koagulyatsiya kichik tos sohasida cheklangan ko'rsatmalar bilan va yuqori ehtiyotkorlik bilan qo'llanilishi tavsiya etiladi [16].

Jadval №1

Gemostaz usullarining qiyosiy tavsifi

Gemostaz usuli	Ta'sir mexanizmi	Afzalliklari	Kamchiliklari	Kichik tos a'zolarida qo'llanishi	Reproduktiv ahamiyati
Mexanik (ligatura, klip, tamponada)	Tomirlarni bevosita mexanik yopish	Termik shikast yo'q, ishonchli nazorat	Texnik murakkablik, vaqt talab etadi	Keng qo'llaniladi	Ovarial rezerv maksimal saqlanadi
Monopolyar koagulyatsiya	Yuqori chastotali tok orqali koagulyatsiya	Tezkor gemostaz, oson qo'llash	Chuqur termik nekroz, bitishmalar xavfi	Cheklangan, ehtiyotkorlik talab etiladi	Ovarial rezervga salbiy ta'sir ehtimoli

Bipolyar koagulyatsiya	Lokal energiya oqimi bilan koagulyatsiya	Nazoratli ta'sir, kam termik shikast	Katta tomirlarda cheklangan	Tuxumdon va qo'shimchalarda keng	Reproduktiv funksiyani yaxshi saqlaydi
Lazerli koagulyatsiya (CO ₂ , diod)	Selektiv va aniq energiya ta'siri	Nekroz zonasi kichik, yuqori aniqlik	Qimmat uskunalar, o'rganish murakkab	Cheklangan, ixtisoslashgan markazlarda	Ovarial to'qimani maksimal saqlaydi
Argon-plazmalı koagulyatsiya	Ionlashtirilgan argon gazi orqali koagulyatsiya	Kontakt yo'q, yuzaki gemostaz	Gazli emboliya xavfi, chuqur ta'sir yo'q	Juda cheklangan	Reproduktiv ta'siri yetarlicha o'rganilmagan
Kombinatsiyalangan usullar	Mexanik + energiyaviy gemostaz	Og'ir qon ketishda yuqori samaradorlik	Texnik murakkablik	Apopleksiya, gemoperitoneumda maqbul	Individual yondashuvda optimal

So'nggi yillarda shoshilinch ginekologik jarrohlidka kombinatsiyalangan gemostaz usullaridan foydalanish tendensiyasi kuzatilmoqda. Ushbu yondashuv mexanik gemostaz (ligatura, klip, tamponada) va energiyaviy usullar (elektroxirurgik, lazerli yoki argon-plazmalı)ni birgalikda qo'llashga asoslanadi. Kombinatsiyalangan usullar, ayniqsa, og'ir va nazorat qilish qiyin bo'lgan qon ketish holatlarida yuqori samaradorlik ko'rsatadi. Klinik kuzatuvlarga ko'ra, tuxumdon apopleksiyasi, massiv gemoperitoneum bilan kechuvchi holatlar va qaytalanuvchi qon ketishlarda bitta usul bilan cheklanish ko'pincha yetarli bo'lmaydi. Bunday vaziyatlarda mexanik gemostaz yordamida asosiy tomirlar nazorat qilinib, energiyaviy usullar bilan qo'shimcha koagulyatsiya amalga oshiriladi. Ushbu yondashuv operatsiya vaqtini qisqartirishi, qon yo'qotishni kamaytirishi va qayta qon ketish xavfini pasaytirishi bilan izohlanadi [5].

Operatsiyadan keyingi bitishmalar rivojlanishi ginekologik jarrohlidka, ayniqsa reproduktiv yoshdagi ayollarda, muhim klinik muammo hisoblanadi. Ilmiy manbalarda termik shikastlanish darajasi va bitishmalar rivojlanishi o'rtasida bevosita bog'liqlik mavjudligi qayd etiladi. Keng va chuqur termik nekrozga olib keluvchi energiyaviy gemostaz usullari bitishmalar hosil bo'lish xavfini oshiradi.

Shu nuqtai nazardan, zamonaviy ginekologiyada minimal energiya bilan gemostazni ta'minlash asosiy tamoyil sifatida qaralmoqda. Bipolyar koagulyatsiya, selektiv lazerli ta'sir va mexanik usullar bilan kombinatsiyalangan yondashuvlar bitishmalar rivojlanishini sezilarli darajada kamaytirishi ko'rsatilgan. Bundan tashqari, operatsiya davomida va undan keyin antibititsma to'siqlarni qo'llash bitishmalar profilaktikasida muhim o'rin tutadi. Gel va membrana ko'rinishidagi biologik to'siqlar peritoneal yuzalarida vaqtinchalik ajratish hosil qilib, yallig'lanish va fibroz jarayonlarini cheklaydi. Bir qator tadqiqotlarda ushbu vositalar laparoskopik operatsiyalardan keyin bitishmalar chastotasini kamaytirishi qayd etilgan [6, 7]. Shunday qilib, gemostaz usulini tanlashda nafaqat qon ketishni to'xtatish samaradorligi, balki operatsiyadan keyingi bitishmalar va uzoq muddatli reproduktiv oqibatlar ham hisobga olinishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Адрианова А. А., Исаева А. С., Кузнецова Н. Ю. и др. Сравнительная характеристика методов временного гемостаза // Форсире. – 2020. – Т. 3. – № 5. – С. 892–893.
2. Венцовский Б. М., Курило Л. Ф., Савицкая К. И. и др. Новые подходы к лечению апоплексии яичника для сохранения и восстановления репродуктивной функции // Репродуктивное здоровье. Восточная Европа. – 2021. – Т. 11. – № 6. – С. 686–701.
3. Никифорова П. О., Сысоева Н. А., Мартынова И. В. и др. Гемостаз яичника и овариальный резерв: взгляд детского гинеколога // Российский педиатрический журнал. – 2024. – Т. 27. – № 4. – С. 283–290.
4. Нажмутдинова Д. К. и др. ВЛИЯНИЕ НА ОВАРИАЛЬНЫЙ РЕЗЕРВ ЛАПАРОСКОПИЧЕСКОЙ ЦИСТЭКТОМИИ // Журнал теоретической и клинической медицины. – 2020. – № 3. – С. 159–162.
5. Демко А. Е., и др. Успешное применение комбинированного эндолапароскопического гемостаза при рецидивном язвенном гастродуоденальном кровотечении у пациента пожилого возраста (клиническое наблюдение) // Медицинский вестник Северного Кавказа. – 2021. – Т. 16. – № 4. – С. 430–432.
6. Гудзь О. В., и др. Противовоспалительные барьеры в оперативной гинекологии // РМЖ. Мать и дитя. – 2024. – Т. 7. – № 2. – С. 144–149.
7. Оносовская А. Н., и др. Сравнение методов профилактики спайкообразования после оперативного вмешательства на органах малого таза // Вестник Медицинского института непрерывного образования. – 2025. – № 1. – С. 33–38.
8. Abdikulov B.S., Kasymova D.M. Acute abdomen in emergency gynecology. *Akusherlik va ginekologiya*. 2020;6:45–52.
9. Harkins G., Dykes T. Role of laparoscopy in acute gynecology. *Journal of Gynecologic Surgery*. 2019;35(6):321–327
10. Iglesia C. B., et al. Lasers in gynecology // *Obstetrics & Gynecology*. – 2024. – Vol. 144. – No. 2. – P. 181–194. DOI: 10.1097/AOG.0000000000005635

11. Spaich S., et al. First experiences with a diode laser in major gynecological laparoscopic procedures show lack of benefit and impaired feasibility // *Lasers in Medical Science*. – 2023. – Vol. 38. – Article 34. DOI: 10.1007/s10103-022-03696-9
12. Stefanovic, Stefan et al. “Microscopic, Macroscopic and Thermal Impact of Argon Plasma, Diode Laser, and Electrocoagulation on Ovarian Tissue.” *In vivo (Athens, Greece)* vol. 37,2 (2023): 531-538. doi:10.21873/invivo.13111
13. Tanos V., Berry K. E. Acute gynecological abdomen: modern concepts and management // *Gynecological Surgery*. – 2016. – Vol. 13. – No. 2. – P. 123–130.
14. Tanos V., et al. Laparoscopy as first-line approach in acute gynecology // *Gynecological Surgery*. – 2023. – Vol. 20. – P. 1–9.
15. Vanni V. S., et al. Flexible CO₂ laser fiber: first look at the learning curve required in gynecological laparoscopy training // *Minerva Ginecologica*. – 2018. – Vol. 70. – No. 1. – P. 53–57.
16. Stefanovic S., et al. Microscopic, macroscopic and thermal impact of argon plasma, diode laser, and electrocoagulation on ovarian tissue // *In Vivo*. – 2023. – Vol. 37. – No. 2. – P. 531–538. DOI: 10.21873/invivo.13111
17. Xudoyarova D., Tursunov N. SYMPTOMS OF ACUTE ABDOMINAL IN WOMEN OF REPRODUCTIVE AGE // *Modern Science and Research*. – 2024. – T. 3. – №. 1. – C. 223-227.
18. Xudayarova D., Tursunov N. “ACUTE ABDOMEN” IN GYNECOLOGY: MODERN OPPORTUNITIES // *Modern Science and Research*. – 2024. – T. 3. – №. 1. – C. 228-233.
19. World Health Organization. Emergency gynecologic conditions: global report. WHO, 2019.
20. Okeagu C.N., et al. Emergency gynecologic surgery: outcomes and epidemiology. *Journal of Minimally Invasive Gynecology*. 2021;28(4):789–796.
21. Vercellini P. et al. Ovarian apoplexy: clinical features and management. *Human Reproduction Update*. 2018;24(4):500–515.
22. Vercellini P., et al. Gynecologic emergencies in reproductive-age women. *Human Reproduction Update*. 2018;24(4):500–515.



UDC :618.2.4.053


Arziyeva Gulnora Bo'riyevna
Associate professor
Samarkand State medical university
Samarkand, Uzbekistan

Xamrayeva Lola Kahhorovna
Associate professor
Samarkand State medical university
Samarkand, Uzbekistan

Nurboboyeva Muxlisa Boxadirovna
Graduate resident
Samarkand State medical university
Samarkand, Uzbekistan

FEATURES OF THE ORGANISATION OF PEDIATRIC AND ADOLESCENT GYNECOLOGY SERVICES IN SAMARKAND CITY (LITERATURE REVIEW)

For citation: Arziyeva Gulnora Bo'riyevna, Xamrayeva Lola Kahhorovna, Nurboboyeva Muxlisa Boxadirovna, Features of the organisation of pediatric and adolescent gynecology services in samarkand city (literature review), Journal of Reproductive Health and Uro-Nephrology Research 2026, vol.7, issue 1

 <https://dx.doi.org/10.5281/zenodo.18884009>

Арзиева Гульнора Бориевна
Доцент
Самаркандская государственная
медицинский университет
Самарканд, Узбекистан

Хамраева Лола Каххоровна
Доцент
Самаркандская государственная
медицинский университет
Самарканд, Узбекистан

Нурбобоева Мухлиса Бохадировна
Резидент магистратуры
Самаркандская государственная
медицинский университет
Самарканд, Узбекистан

ОСОБЕННОСТИ ОРГАНИЗАЦИИ СЛУЖБЫ ДЕТСКОЙ И ПОДРОСТКОВОЙ ГИНЕКОЛОГИИ В ГОРОДЕ САМАРКАНДЕ (ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ)

Arziyeva Gulnora Boriyevna
Dotsent
Samarqand Davlat tibbiyot universiteti,
Samarqand, O'zbekiston

Xamrayeva Lola Kahhorovna
Dotsent
Samarqand Davlat tibbiyot universiteti
Samarqand, O'zbekiston

Nurboboyeva Muxlisa Boxadirovna
Magistratura rezidenti
Samarqand Davlat tibbiyot universiteti
Samarqand, O'zbekiston

SAMARQAND SHAHRIDA BOLALAR VA O'SMIRLAR GINEKOLOGIYASI XIZMATINI TASHKIL ETISH XUSUSIYATLARI (ADABIYOTLAR TAHLILI)

Abstract. Pediatric and adolescent gynecology is a strategic direction of modern healthcare systems, as girls aged 10–19 constitute nearly 30% of the global female population, yet their health needs remain insufficiently addressed between pediatric and adult gynecological care (Roos EJ et al., 2021). According to WHO, the interaction of biological, psychological, and social factors during adolescence directly affects reproductive health. Inadequate monitoring and lack of preventive measures during this period increase the risks of future infertility, menstrual disorders, early pregnancy, and sexually transmitted infections (WHO, 2020).

Global data indicate that menstrual cycle disorders occur in 15–30% of girls aged 10–19, reaching 25–35% in developing countries (WHO, 2023). Dysmenorrhea is the most common condition, observed in 71.3% of adolescents and negatively affecting academic performance in 20–35% of cases (Armour M. et al., 2023; BMC Public Health, 2024). Anemia is diagnosed in 27% of adolescent girls worldwide and is associated with iron deficiency and menstrual blood loss (WHO, 2023). Among hormonal disorders, polycystic ovary syndrome (PCOS) is identified in 4–8% of adolescents (Endocrine Society, 2023).

Early pregnancy continues to be a serious issue globally. In 2023, the birth rate among girls aged 15–19 reached 42.5‰ (World Bank, 2024). This statistic varies significantly by region: in Africa, it ranges from 90–100‰, in South Asia, it falls between 35–40‰, while in Europe, it is below 10‰. Furthermore, the prevalence of modern contraceptive use among adolescent girls worldwide remains low, at only 15% (UNFPA, 2023).

Health indicators also vary widely across regions. Anemia reaches 32.9% in African states, dysmenorrhea is reported in 70–91% of adolescents in Asia, and anemia is observed in approximately 28.6% of girls in Latin America. In Europe and the United States, dysmenorrhea ranges from 60–93%, with lower rates of anemia (CDC, 2023).

These epidemiological statistics indicate the importance of enhancing pediatric and adolescent gynecology services. This includes early diagnosis, preventive strategies, and better health literacy among young people— is a key priority within global public health strategies (WHO, 2024)

International Experience:

Pediatric and Adolescent Gynecology (PAG) is an essential component of modern healthcare systems. International literature indicates that effective organization of PAG services is based on strengthening primary care, establishing clear referral pathways to specialized centers, implementing multidisciplinary approaches, and applying age-appropriate clinical protocols (Roos EJ et al., 2021).

PAG System in the United States

In the United States, PAG services operate within the “medical home” model, in which pediatricians and family physicians manage the majority of gynecological issues at the primary care level. More complex conditions are referred to specialized PAG units at university clinics and children’s hospitals (Roos EJ et al., 2021). Primary care services include management of menstrual disorders, contraceptive counseling, psychosocial support, and standard screening programs.

Specialized centers provide multidisciplinary care involving pediatricians, gynecologists, endocrinologists, psychologists, and social workers. This model ensures high-quality management of conditions such as disorders of sex development (DSD), severe hormonal dysfunctions, and cases requiring surgical intervention (Richmond A et al., 2016).

Confidentiality and Consent Principles

CLINICAL MANIFESTATIONS AND THEIR ANALYSIS IN BENIGN TUMORS OF THE UTERUS AND ITS ADNEXA IN THE SETTING OF GENITAL PROLAPSE

ANNOTATION

This article is devoted to contemporary clinical approaches to the management of patients with benign tumors of the uterus and its adnexa in the setting of genital prolapse. The paper highlights etiologial factors, pathogenetic mechanisms, features of the clinical course, and diagnostic principles characteristic of the combined presentation of these conditions. Conservative and surgical treatment options that ensure an individualized approach to patient care are presented, including the advantages and indications for uterus-preserving procedures. Based on the principles of evidence-based medicine, diagnostic and treatment algorithms are proposed, and practical recommendations for their implementation in clinical practice are provided.

Key words: genital prolapse, uterine fibroids, benign tumors of the uterus and its adnexa, pelvic floor insufficiency, POP-Q classification, uterus-preserving surgery, clinical recommendations for practicing physicians.

Негмаджанов Бахадур Болтаевич

д.м.н., профессор

Самаркандский государственный медицинский университет

Самарканд, Узбекистан

Зоирова Нилуфар Аслидиновна

ассистент

Самаркандский государственный медицинский университет

Самарканд, Узбекистан

Шавкатов Хасан Шавкатович

ассистент, PhD

Самаркандский государственный медицинский университет

Самарканд, Узбекистан

КЛИНИЧЕСКИЕ ПРОЯВЛЕНИЯ И ИХ АНАЛИЗ ПРИ ДОБРОКАЧЕСТВЕННЫХ ОПУХОЛЯХ МАТКИ И ЕЁ ПРИДАТКОВ НА ФОНЕ ГЕНИТАЛЬНОГО ПРОЛАПСА

АННОТАЦИЯ

Настоящая статья посвящена современным клиническим подходам к ведению пациенток с доброкачественными опухолями матки и её придатков на фоне генитального пролапса. В работе освещены этиологические факторы, механизмы патогенеза, особенности клинического течения и принципы диагностики, характерные для сочетанного течения данной патологии. Представлены консервативные и хирургические методы лечения, обеспечивающие индивидуализированный подход к ведению пациенток, а также преимущества и критерии применения органосохраняющих операций. На основе принципов доказательной медицины разработаны алгоритмы диагностики и лечения и даны практические рекомендации для их использования в клинической практике.

Ключевые слова: генитальный пролапс, миома матки, доброкачественные опухоли матки и её придатков, недостаточность тазового дна, классификация POP-Q, органосохраняющая хирургия, клинические рекомендации для практикующих врачей

Bachadon va uning ortiqlaridagi yaxshi sifatli o'smalar, shuningdek genital prolaps reproduktiv va perimenopauzal yoshdagi ayollar orasida eng keng tarqalgan ginekologik kasalliklar qatoriga kiradi va gospitalizatsiya, jarrohlik aralashuvlari hamda hayot sifatining pasayishining yetakchi sabablaridan biri hisoblanadi [8,14,16]. **Bachadon miomasi** perimenopauza davriga kelib ayollarning katta qismida aniqlanadi: umumiy populyatsiyada miomatoz tugunlarni aniqlash chastotasi 70% gacha yetadi, shu bilan birga bemorlarning 25–50% ida klinik jihatdan ahamiyatli simptomatika shakllanadi [21,13,7]. Kasallikning tarqalganligi 35–50 yosh oralig'ida keskin oshib, bu davr ayolning reproduktiv funksiyasi eng faol amalga oshadigan hamda ijtimoiy faolligi yuqori bo'lgan davrga to'g'ri keladi [11].

Bachadon miomasi hozirgi kunda ham gisterektomiyaning yetakchi sabablaridan biri bo'lib qolmoqda: zamonaviy obzorlar ma'lumotlariga ko'ra, organi saqlab qoluvchi va kam invaziv texnologiyalar rivojlanganiga qaramasdan, barcha gisterektomiyalarning 40% gacha qismi aynan mioma hissasiga to'g'ri keladi [19]. Bemorlarning salmoqli qismi og'ir anomal bachadon qon ketishlari, anemiya, og'riq sindromi va "hajmli hosila" simptomlari (siydik pufagi va ichaklarga bosim, surunkali chanoq og'rig'i) bilan tibbiy yordamga murojaat qiladi, bu esa nafaqat somatik buzilishlarga, balki mehnat qobiliyati va hayot sifatining pasayishiga ham olib keladi.

Yaxshi sifatli tuxumdon o'smalari ham ginekologik patologiya tuzilmasida muhim o'rin tutadi. Klinik-dagnostik tadqiqotlar ma'lumotlariga ko'ra, tuxumdonning o'smalari va o'smaga o'xshash hosilalari ayol reproduktiv tizimining eng ko'p uchraydigan yangi hosilalari bo'lib, ularning taxminan 70% i yaxshi sifatli hosilalarga to'g'ri keladi [88; 2047–2053]. Yaxshi sifatli tuxumdon o'smalarining klinik ahamiyati burilib qolish, yorilish, surunkali og'riq sindromi xavfi, shuningdek tuxumdon saratonining erta bosqichlari bilan aniq differensial diagnostika o'tkazish zarurati bilan belgilanadi [11,8,6].

Bachadon va uning ortiqlaridagi yaxshi sifatli o'smalarining alohida klinik-ijtimoiy ahamiyati ularning reproduktiv sog'liqqa ta'siri bilan bog'liq. Bachadon miomasining fertilitet buzilishi, odatiy tushishlar, homiladorlik asoratlari (erta tug'ruqlar, platsentar yetishmovchilik, tug'ruq faoliyati anomaliyalari) bilan bog'liqligi zamonaviy obzorlar va klinik tadqiqotlarda ta'kidlanadi [13,15]. Yirik va ko'p sonli miomatoz tugunlarning mavjudligi organi saqlab qoluvchi jarrohlik imkoniyatlarini cheklab, ko'pincha radikal aralashuvlarga ehtiyoj tug'diradi, bu esa reproduktiv funksiyasini hali amalga oshirmagan yosh bemorlar uchun ayniqsa dolzarb hisoblanadi [2,6,20].

So'nggi yillarda reproduktiv tizimning yaxshi sifatli o'smalarining hayot sifatiga ta'siriga katta e'tibor qaratilmoqda. Simptomli bachadon miomasi bo'lgan ayollarni o'z ichiga olgan tadqiqotda bemorlarning 80

% dan ortig'ida hayot sifati ko'rsatkichlarining barcha asosiy domenlar bo'yicha (energiya, faollik, o'z-o'zini baholash, jinsiy funktsiya) yaqqol pasayishi aniqlangan. Shu kabi ma'lumotlar boshqa ishlarda ham keltirilib, hatto jarayon yaxshi sifatli bo'lgan taqdirda ham kasallik surunkali, qaytalanuvchi kechishga ega bo'lib, ayolning jismoniy va psixosotsional holatiga uzoq muddatli salbiy ta'sir ko'rsatishi ta'kidlanadi [33,25].

Bachadon leyomiomalari miometriyning silliq mushak hujayralari va fibroblastlaridan kelib chiquvchi yaxshi sifatli monoklonal o'smalarga kiradi va reproduktiv yoshdagi ayollarda kichik chanoq a'zolarining eng ko'p uchraydigan solid o'smalari hisoblanadi [5,17,18]. Populyatsion va ultratovush tadqiqotlari ma'lumotlariga ko'ra, 50 yoshga kelib ayollarning 60–70% ida mioma belgilari aniqlanadi, biroq klinik jihatdan ahamiyatli simptomatika taxminan bemorlarning uchdan bir qismida kuzatiladi [19,21,1]. Leyomiomalar rivojlanishida asosiy rol gormonal (estrogen va progesteronga bog'liq) ta'sirlar, genetik moyillik, irqiy xususiyatlar, semizlik hamda D vitamini tanqisligi o'ynaydi [17,21].

Zamonaviy adabiyotlar bachadon va uning ortiqlaridagi yaxshi sifatli o'smalarining ta'siri faqat somatik simptomlar doirasi bilan cheklanib qolmasdan, ayolning jismoniy, psixosotsional va ijtimoiy farovonligiga ham jiddiy ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi. P. E. Sefogah va hammualiflari (2025) tomonidan Kanada validatsiyalangan UFS-QoL so'rovnomasi qo'llanilgan holda o'tkazilgan tadqiqotda simptomli miomasi bo'lgan ayollarda "jismoniy faoliyat", "energiya", "ijtimoiy faollik" va "jinsiy funktsiya" domenlari bo'yicha hayot sifati ko'rsatkichlari sezilarli darajada pasaygani aniqlangan; shu bilan birga simptomlarning yuqori intensivligi (qon ketish, og'riq, kichik chanoq a'zolariga bosim) umumiy QoL ballarining pastligi bilan yaqin korrelyatsiya qilgan [2,8,15].

Genital prolaps (GP) jinsiy organlarning qin dahligigacha yoki undan pastga tushib ketishi bilan namoyon bo'lgan qin devorlarining va/yoki bachadonning fiziologik holatini buzishni anglatadi.

Chanoq a'zolari prolapsi (ChAP) – ko'p omilli, keng tarqalgan holat bo'lib, turli etiologik xavf omillari bilan bog'liq [11]. Olimlarning ko'pchiligi fikriga ko'ra, chanoq a'zolari prolapsi ayol umri davomida o'zaro ta'sir etuvchi anatomik, fiziologik, reproduktiv omillar hamda turmush tarzi bilan bog'liq murakkab holatdir. Ularning har bir ayolda turlicha uchrashi va shakllanishi natijasida chanoq tubi disfunktsiyasi (ChTD) vujudga keladi [3,8,20]. Nasliy omillar, turmush tarzi va ko'pincha qin orqali tug'ruq bilan bog'liq jarayonlarning sabab-oqibat bog'lanishini anglash murakkab masaladir. Tadqiqotlarga ko'ra, tug'ruqdan keyin ayollarning uchdan ikki qismida anatomik o'zgarishlar kuzatiladi [17], ammo ayrim hollarda ular klinik belgilar

bilan namoyon bo'lmashligi mumkin. Umumiy populyatsiyada 45–85 yoshdagi ayollarning taxminan 40 % ida tekshiruvda ChAP belgilari qayd etilishi mumkin, biroq ularning faqat 12 % ida klinik simptomlar mavjud [19]. Bunday ayollarda ko'pincha og'ir jismoniy va emotsional buzilishlar kuzatiladi [6,11,15], bu esa ularning ijtimoiy, jismoniy va psixologik salomatligiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatadi [2,19,21].

Hozirgi vaqtda ChAP bilan kasallangan bemorlar sonining ortib borishi kuzatilmog'da. Bu holat qator obyektiv sabablarga bog'liq: ayollarning o'z sog'lig'iga bo'lgan talabchan munosabati, tashxis usullarining takomillashuvi, aholi salomatligi ko'rsatkichlarining pasayishi va boshqalar. Har yili dunyo bo'yicha 400 000 dan ortiq chanoq tubini rekonstruksiya qilish operatsiyalari o'tkaziladi, ularning yarmi AQSh hissasiga to'g'ri keladi.

Real klinik amaliyotda bachadon va/yoki uning ortiqlaridagi yaxshi sifatli o'smalar genital prolaps bilan qo'shilgan holda uchraydigan bemor ayollar tobora ko'proq qayd etilmog'da. Bu holat umumiy xavf omillari bilan izohlanadi: yosh, ko'p tug'ruqlar, semizlik, qorin ichi bosimining surunkali oshishi, peri- va postmenopauza davridagi gormonal o'zgarishlar. Bunday ayollarda anomal bachadon qon ketishlari, chanoq og'rig'i, prolaps simptomlari, siydik pufagi va ichak funksiyasining buzilishi, jinsiy disfunktsiyani o'z ichiga olgan murakkab simptomokompleks shakllanadi, bu esa kasallik kechishini sezilarli darajada og'irlashtirib, optimal davolash taktikasini tanlashni qiyinlashtiradi [15,17].

Yaxshi sifatli o'smalar va genital prolapsning qo'shilib kelishi kompleks, ko'pincha bir vaqtning o'zida bajariladigan jarrohlik yondashuvini talab qiladi. Aralashuv hajmi va kirish yo'lini tanlash masalasi (organni saqlab qoluvchi operatsiya yoki gisterektomiya, laparoskopik yoki laparotomik kirish, prolapsni bir vaqtning o'zida tuzatish yoki bosqichma-bosqich davolash) hozirga qadar munozarali bo'lib qolmog'da. Kam invaziv texnologiyalar joriy etilganiga va chanoq tubi rekonstruktiv operatsiyalari takomillashganiga qaramasdan, prolaps retsidivlari va takroriy aralashuvlar chastotasi hanzugacha ahamiyatli bo'lib qolmog'da, ayniqsa bog'lam apparatining dastlabdan yaqqol zaifligi va bachadonning hamroh patologiyasi mavjud bo'lgan holatlarda.

POP va yaxshi sifatli o'smalari bo'lgan bemorlarni olib borishning zamonaviy yondashuvlari tobora bemor yo'naltirilgan modelga siljib bormog'da, bunda faqat anatomik natija emas, balki simptomlar ifodalanganligi, reproduktiv rejalari, jinsiy funksiya va hayot sifati ham hisobga olinadi. Konservativ usullar (pessariylar, chanoq tubi mushaklarini mashq qildirish) minimal simptomatika yoki yuqori operatsion xavf mavjud bemorlar uchun muhim tarkibiy qism sifatida qaraladi, jarrohlik davolash esa yosh, prolaps bosqichi, o'smaning xarakteri va bemorning kutilmalariga qarab individuallashtirilishi lozim.

Mioma va prolaps qo'shilishidagi asosiy patogenetik omil kattalashgan bachadonning massa-effekti va chanoq tubi biomexanikasining o'zgarishi bilan bog'liq. Gisterektomiyadan keyin prolaps retsidivi xavfini tahlil qilgan tadqiqotlarda bachadon massasi 500 g dan ortiq bo'lishi orqali prolapsning takrorlanish xavfini qariyb 5 baravar oshirishi ko'rsatilgan bo'lib, bu holat bachadon olib tashlanishidan oldin yirik mioma sabab bog'lam apparatining surunkali ortiqcha yuklanishi bilan izohlanadi. Bu esa yirik miomatoz tugunlarning uzoq vaqt mavjud bo'lishi chanoq tubi tuzilmalarining yanada yaqqol struktur shikastlanishiga olib kelishini bilvosita tasdiqlaydi. Submukoz va intramural miomalari bo'lgan, surunkali menoragiya va anemiya bilan kechuvchi bemorlarda chanoq tubi mushaklarining kompensator imkoniyatlari, shuningdek fassiyalarning kollagen-elastin karkasi qo'shimcha ravishda zaiflashadi. Bu prolapsning klinik namoyonlarini og'irlashtiradi va konservativ reabilitatsiya dasturlarining samaradorligini pasaytiradi [6,21,14,9,11].

Tadqiqot maqsadi: Genital prolaps fonida bachadon va uning ortiqlarining yaxshi sifatli o'smalari bilan kechuvchi bemorlarda klinik

xususiyatlar va davolash yondashuvlarini tahlil qilish asosida amaliy shifokorlar uchun klinik tavsiyalarni ishlab chiqish.

Tadqiqot materiallari va usullari: Tadqiqotga jami 85 nafar bemor kiritildi. Bemorlarni tanlash quyidagi qabul qilish mezonlari asosida amalga oshirildi:

- genital prolapsning klinik va instrumental jihatdan tasdiqlangan mavjudligi;
- bachadon va/yoki uning ortiqlarining yaxshi sifatli o'smalarining aniqlanishi;
- bemorlarning klinik kuzatuv va davolash jarayonida to'liq ishtirok etishi;
- tadqiqotda qatnashish uchun ixtiyoriy rozilikning mavjudligi.

Chiqarib tashlash mezonlari sifatida yomon sifatli o'smalar, og'ir somatik kasalliklar, onkologik jarayonlar hamda jadallik bilan jarrohlik aralashuvini talab etuvchi holatlar hisobga olindi.

Tadqiqotga kiritilgan 85 nafar bemor turli yosh guruhlariga mansub bo'lib, ularda genital prolaps bachadon va uning ortiqlarining yaxshi sifatli o'smalari bilan birgalikda kuzatildi. Bemorlarning ko'pchiligi perimenopauza va menopauza davrida bo'lib, anamnezida ko'p tug'ruqlar, og'ir jismoniy mehnat, uzoq yillik ginekologik kasalliklar mavjudligi qayd etildi.

Klinik shikoyatlar orasida chanoq sohasida og'riq va og'irlik hissi, qindan chiqib turgan to'qima hissi, anomal bachadon qon ketishlari, siydik chiqarish va defekatsiya buzilishlari, shuningdek jinsiy hayot sifatining pasayishi ustunlik qildi. Ko'pchilik bemorlarda simptomlar kompleks xarakterga ega bo'lib, kasallikning uzoq davom etgani aniqlandi. Ginekologik ko'rik jarayonida genital prolapsning turli darajalari, bachadon miomasi, tuxumdon kistalari va boshqa yaxshi sifatli o'smalar aniqlanib, bemorlarning klinik holati individual baholandi va keyingi diagnostika hamda davolash taktikasi shu asosda belgilandi.

Qo'llanilgan diagnostika usullari: Barcha bemorlarda diagnostika kompleks tarzda olib borildi. Dastlabki bosqichda anamnez yig'ish, umumiy va ginekologik ko'rik o'tkazildi. Genital prolaps darajasi klinik baholash usullari asosida aniqlandi.

Instrumental diagnostika usullari orasida **ultravovush tekshiruvi (UTT)** asosiy o'rin tutdi. UTT yordamida bachadon va uning ortiqlaridagi o'smalarning o'lchami, joylashuvi va strukturasi baholandi. Zarur holatlarda qo'shimcha instrumental usullar qo'llanildi.

Laborator tekshiruvlar umumiy qon tahlili, biokimyoviy ko'rsatkichlar va boshqa standart tahlillarni o'z ichiga oldi. Differensial diagnostika jarayonida yomon sifatli o'smalar istisno qilindi.

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi:

Genital prolapsning og'irlik darajasi **POP-Q tasnifi** bo'yicha baholanganda, bemorlarning **23 tasida (27,1%) POP-Q II daraja, 36 tasida (42,4%) POP-Q III daraja, 26 tasida (30,6%) POP-Q IV daraja** aniqlandi. Bu holat klinik manzarada mexanik diskomfort, chanoq sohasida og'irlik hissi, qindan “chiqib turgan to'qima” hissi hamda siydik/defekatsiya bilan bog'liq funksional buzilishlar ustun bo'lish ehtimolini oshiradi, ayniqsa III–IV darajalarda.

Bachadon va uning ortiqlarining yaxshi sifatli o'smalari strukturasi tahlil qilinganda, **37 nafar (43,5%)** bemorda bachadon miomasi, **28 nafar (32,9%)** bemorda tuxumdon o'smalari, **20 nafar (23,5%)** bemorda kombinatsiyalashgan holat (bachadon miomasi + tuxumdon o'smalari) qayd etildi. Miomali bemorlarda anomal bachadon qon ketishlari va og'riq sindromi ko'proq uchrashi mumkin; tuxumdon o'smalarida esa chanoq sohasida bosim hissi, tortiluvchi og'riq hamda dispeptik/dizurik shikoyatlar nisbatan ko'proq kuzatilishi ehtimol.

Shuningdek, **POP-Q darajasi va o'sma turi** klinik simptomlarning chastotasi hamda og'irligiga ta'sir qiluvchi asosiy omillardan bo'lib, keyingi tahlilda shikoyatlarni aynan shu kesimda raqamlashtirish maqsadga muvofiq.

Jadval 3.1.1.

POP-Q bo'yicha genital prolaps darajalarining taqsimoti (n = 85)

POP-Q daraja	Bemorlar soni	%
II daraja	23	27,1
III daraja	36	42,4
IV daraja	26	30,6
Jami	85	100,0

Jadval 3.1.2.

Bachadon va uning ortiqlarining yaxshi sifatli o'smalari tuzilmasi (n = 85)

O'sma turi	Bemorlar soni	%
Bachadon miomasi	37	43,5
Tuxumdon o'smalari	28	32,9
Kombinatsiyalashgan (mioma + tuxumdon o'smalari)	20	23,5
Jami	85	100,0

Jadval 3.1.3.

Klinik shikoyatlarning POP-Q darajalari bo'yicha taqsimoti (n = 85)

Klinik shikoyat	II (n = 23)	III (n = 36)	IV (n = 26)	Jami
Qindan chiqib turgan to'qima hissi	14 (60,9%)	30 (83,3%)	25 (96,2%)	69 (81,2%)
Chanoqda og'irlik/bosim hissi	15 (65,2%)	31 (86,1%)	25 (96,2%)	71 (83,5%)
Siydik chiqarish buzilishlari (umumiy)	7 (30,4%)	22 (61,1%)	20 (76,9%)	49 (57,6%)
Stressga bog'liq siydik tutib turolmaslik	4 (17,4%)	15 (41,7%)	14 (53,8%)	33 (38,8%)
Defekatsiya buzilishlari	3 (13,0%)	10 (27,8%)	12 (46,2%)	25 (29,4%)
Dispareuniya / jinsiy hayot sifati pasayishi	10 (43,5%)	23 (63,9%)	19 (73,1%)	52 (61,2%)
Anomal bachadon qon ketishlari*	13 (56,5%)	21 (58,3%)	15 (57,7%)	49 (57,6%)

* Izoh: Anomal bachadon qon ketishlari asosan bachadon miomasi bilan bog'liq holatlarda kuzatilgan.

Jadval 3.1.4.

**Klinik shikoyatlarning o'sma turlari bo'yicha taqsimoti
(Mioma = 37, Tuxumdon = 28, Kombinatsiya = 20)**

Klinik shikoyat	Mioma (n = 37)	Tuxumdon (n = 28)	Kombinatsiya (n = 20)	Jami
Anomal bachadon qon ketishlari	26 (70,3%)	7 (25,0%)	16 (80,0%)	49 (57,6%)

Klinik shikoyat	Mioma (n = 37)	Tuxumdon (n = 28)	Kombinatiya (n = 20)	Jami
Chanoqda og'riq/bosim hissi	22 (59,5%)	19 (67,9%)	17 (85,0%)	58 (68,2%)
Qorin pastki qismida tortiluvchi og'riq	14 (37,8%)	17 (60,7%)	13 (65,0%)	44 (51,8%)
Qindan chiqib turgan to'qima hissi	26 (70,3%)	19 (67,9%)	16 (80,0%)	61 (71,8%)
Siydik chiqarish buzilishlari	18 (48,6%)	12 (42,9%)	16 (80,0%)	46 (54,1%)
Defekatsiya buzilishlari	10 (27,0%)	8 (28,6%)	10 (50,0%)	28 (32,9%)
Dispareuniya / jinsiy hayot sifati pasayishi	22 (59,5%)	16 (57,1%)	15 (75,0%)	53 (62,4%)

85 nafar bemorning barchasida genital prolaps bachadon va uning ortiqlarining yaxshi sifatli o'smalari bilan birgalikda kechishi aniqlanib, tanlanma klinik jihatdan og'ir kontingentni tashkil etdi. **POP-Q baholash natijalariga ko'ra**, prolapsning II darajasi 23 nafar (27,1%) bemorda, III darajasi 36 nafar (42,4%) bemorda, IV darajasi esa 26 nafar (30,6%) bemorda qayd etildi, ya'ni bemorlarning asosiy qismida prolapsning **og'ir (III-IV) darajalari ustun** ekani kuzatildi. Bu holat bemorlarda mexanik diskomfort, chanoq sohasida og'irlik hissi hamda siydik chiqarish va defekatsiya bilan bog'liq funksional buzilishlar rivojlanish ehtimoli yuqoriligini ko'rsatadi va **kompleks davolash taktikasini** talab etadi.

Bachadon va uning ortiqlarining yaxshi sifatli o'smalari tuzilmasida bachadon miomasi 37 nafar (43,5%) bemorda, tuxumdon o'smalari 28 nafar (32,9%) bemorda, kombinatsiyalashgan holatlar esa 20 nafar (23,5%) bemorda aniqlandi. Demak, tanlanmada bachadon miomasi ustun bo'lishiga qaramasdan, ortiqlar o'smalari va ayniqsa kombinatsiyalashgan holatlar ham salmoqli ulushni tashkil etib, **klinik manzaraning polimorfligi** va davolash taktikasi har bir bemor uchun individual tanlanishi zarurligini asoslaydi. Umuman olganda, olingan ma'lumotlar genital prolapsning yuqori darajalari va yaxshi sifatli o'smalarning turli klinik variantlari birgalikda uchrashi amaliyotda diagnostik yondashuvni tizimlashtirish hamda taklif etilayotgan davolash algoritmlarini ishlab chiqishning dolzarbligini tasdiqlaydi.

Xulosa:

Olib borilgan tadqiqot natijalari genital prolaps bachadon va uning ortiqlarining yaxshi sifatli o'smalari bilan qo'shilib kechgan bemorlar

klinik jihatdan og'ir kontingentni tashkil etishini ko'rsatdi. Tekshirilgan 85 nafar bemorning barchasida ushbu patologiyalar kombinatsiyalashgan holda aniqlanib, **POP-Q tasnifi bo'yicha prolapsning asosan og'ir — III-IV darajalari ustun** ekani qayd etildi. Bu holat mexanik diskomfort, chanoq sohasida og'irlik hissi, siydik chiqarish va defekatsiya bilan bog'liq funksional buzilishlarning yuqori chastotada uchrashini izohlaydi.

Bachadon va uning ortiqlarining yaxshi sifatli o'smalari tuzilmasida bachadon miomasi yetakchi o'rinni egallagan bo'lsa-da, tuxumdon o'smalari hamda kombinatsiyalashgan holatlarning salmoqli ulushni tashkil etishi **klinik manzaraning polimorfligi** va har bir bemorga individual yondashuv zarurligini tasdiqladi. POP-Q darajasi oshishi bilan klinik simptomlarning chastotasi va og'irligi ortib borishi aniqlanib, **prolaps darajasi va o'sma turi** kasallik kechishini belgilovchi muhim omillar ekani ko'rsatildi.

Olingan natijalar genital prolaps va yaxshi sifatli o'smalarning qo'shilib kelishida tashxis va davolash taktikasi **kompleks, bosqichli va bemorga yo'naltirilgan yondashuv** asosida olib borilishi lozimligini asoslaydi. Bunda prolaps darajasi, o'smaning turi, bemor yoshi, klinik simptomlar ifodalanganligi hamda funksional buzilishlar darajasi hisobga olinishi zarur. Tadqiqot natijalari amaliy ginekologiyada diagnostika algoritmlarini takomillashtirish va genital prolaps fonida yaxshi sifatli o'smalari bo'lgan bemorlarni olib borish bo'yicha **klinik tavsiyalarni ishlab chiqishning** dolzarbligini tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Adamyan L. V., Logutova L. S. Organosokhranyayushchie operatsii pri sochetannoy ginekologicheskoy patologii // Akusherstvo i ginekologiya. — 2023. — № 2. — B. 34–41.
2. Bezhenar V. F., Popov A. A. Khirurgicheskoe lechenie prolapsa genitally s sokhraneniem matki // Zhurnal akusherstva i zhenskikh bolezney. — 2023. — T. 72. — № 5. — B. 58–66.
3. Sidorova I. S., Unyanan A. L. Mioma matki v sochetanii s prolapsom: vybor obyoma operatsii // Akusherstvo i ginekologiya. — 2024. — № 1. — B. 19–26.
4. Kuznetsova I. V. Kombinirovannaya patologiya tazovogo dna u zhenshchin starshego vozrasta // Klinicheskaya meditsina. — 2024. — T. 102. — № 7. — B. 72–78.
5. Anamnesticheskie faktory riska prolapsa genitally u zhenshchin / Yu. L. Timoshkova, A. A. Shmidt, T. E. Kurmanbaev [i dr.] // Vyatskiy meditsinskiy vestnik. — 2021. — T. 1. — № 69. — B. 59–63.
6. Bychenko V. V. Prolaps tazovykh organov u zhenshchin — skrytaya ugroza (obzor literatury) // Vestnik Syktyvskarskogo universiteta. Seriya 2. Biologiya. Geologiya. Khimiya. Ekologiya. — 2021. — T. 2. — № 18. — B. 73–80.
7. Vasin R. V., Filimonov V. B., Vasina I. V. Genitalny prolaps: sovremennye aspekty operativnogo lecheniya (obzor literatury) // Eksperimentalnaya i klinicheskaya urologiya. — 2017. — № 1. — B. 104–115.
8. Vybor metoda rekonstruktivnykh operatsiy pri prolapse genitally s uchetom dopolnitelnykh faktorov riska / I. I. Musin, R. A. Naftulovich, D. F. Absalyamova [i dr.] // Prakticheskaya meditsina. — 2020. — T. 18. — № 2. — B. 46–50.
9. Gustovarova T. A., Kirakosyan L. S., Framuzova E. E. Posleoperatsionnye rezultaty khirurgicheskogo lecheniya genitally // Kubanskiy nauchnyy meditsinskiy vestnik. — 2021. — T. 28. — № 1. — B. 43–52.
10. Gavrilova T. V. Transvaginalnaya khirurgicheskaya profilaktika postgisterektomicheskogo prolapsa kupola vlagalishcha u patsientok s polnym vypadeniyem matki: Avtoref. dis. ... kand. med. nauk; 14.01.01. — Moskva, 2021. — 24 b.
11. Gutikova L. V. Prolaps genitally: sovremennoe sostoyanie problemy // Zhurnal Grodnenskogo gosudarstvennogo meditsinskogo universiteta. — 2012. — T. 1. — № 37. — B. 86–89.
12. Denisova T. B. Optimizatsiya khirurgicheskogo lecheniya zhenshchin s prolapsom tazovykh organov: Dis. ... kand. med. nauk; 14.01.01. — Moskva, 2010. — 132 b.
13. Diagnosticheskaya znachimost dopolnitelnykh instrumentalnykh metodov obsledovaniya patsientok s prolapsom genitally / L. Ya. Salimova, O. N. Shalimov, S. A. Parsadanyan [i dr.] // Vestnik Rossiyskogo universiteta druzhby narodov. Seriya: Meditsina. — 2013. — № S5. — B. 164–169.
14. Diagnosticheskie i takticheskie slagaemye uspehnogo resheniya problemy oslozhnennogo genitalnogo prolapsa u zhenshchin / M. V. Kazhina, I. N. Yagovdik, O. A. Peresada [i dr.] // Reproductivnoe zdorove. Vostochnaya Evropa. — 2012. — T. 4. — № 22. — B. 25–34.

15. Displaziya soedinitelnoy tkani i ee vliyanie na zhenskoe zdorove / I. Yu. Ilina, L. S. Aleksandrov, A. A. Ishchenko [i dr.] // Opinion Leader. — 2020. — T. 2. — № 31. — B. 76–79.
16. Erema V. V. Taktika vedeniya zhenshchin s mochevoy disfunktsiey pri nalichii tyazhelyy stadii perednego i/ili apikalnogo prolapsa do i posle ego khirurgicheskoy korrektsii: Avtoref. dis. ... kand. med. nauk; 14.01.01. — Moskva, 2021. — 21 b.
17. Ivantsova E. N., Petrosyan G. T., Smirnova T. I. Sovremennyye predstavleniya o prolapse genitaliy u zhenshchin // Smolenskiy meditsinskiy almanakh. — 2020. — № 1. — B. 138–140.
18. Iskhody operativnogo lecheniya nedostatochnosti myshts tazovogo dna 3 stepeni u zhenshchin pozhilogo vozrasta / O. S. Korotkevich, V. G. Mozes, I. A. Eyzenakh [i dr.] // Byulleten meditsinskoy nauki. — 2020. — T. 1. — № 17. — B. 34–41.
19. Kazhina M. V., Yagovdik I. N., Kuznetsov R. V. Osobennosti primeneniya klassifikatsionnykh printsipov POP-Q v praktike akushera-ginekologa. — Grodnenskiy gosudarstvennyy meditsinskiy universitet, 2011. — B. 68–72.
20. Kachestvo zhizni zhenshchin reproduktivnogo vozrasta, stradayushchikh nedostatochnostyu myshts tazovogo dna / E. S. Silanteva, M. R. Orazov, M. B. Khamoshina [i dr.] // Trudnyy patsient. — 2021. — T. 19. — № 1. — B. 14–17.
21. Kliniko-anamnesticheskie faktory riska razvitiya prolapsa genitaliy u zhenshchin / A. M. Ziganshin, I. M. Nasibullin, R. A. Khalikov [i dr.] // Vestnik sovremennoy klinicheskoy meditsiny. — 2017. — T. 10. — № 4. — B. 23–26.



UDK: 612.662:618.2-053.6:614.7


Negmadjanov Bahodur Boltayevich
Tibbiyot fanlari doktori, professor
Samarqand Davlat tibbiyot Universiteti
Samarqand, O'zbekiston

Valiyev Shuhrat Nasimovich
PhD, Samarqand Davlat tibbiyot universiteti
Samarqand, O'zbekiston

Ernazarova Moxinur Zaynobiddinovna
Magistratura Rezidenti
Samarqand Davlat Tibbiyot universiteti
Samarqand, O'zbekiston

EKOLOGIK OMILLARNING O'SMIR QIZLAR JINSIY YETILISHI VA MENSTRUAL FUNKSIYASIGA TA'SIRI

For citation: Negmadjanov Bahodur Boltayevich, Valiyev Shuhrat Nasimovich, Ernazarova Moxinur Zaynobiddinovna, Multifactorial approach to the study of pelvic organ prolapse: the role of pop-q classification in clinical practice, Journal of reproductive health and uro-nephrology research 2026 vol 7 issue 1

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.18885690>

ANNOTATSIYA

So'nggi yillarda inson salomatligiga ekologik omillarning ta'siri masalasi tibbiyot va biologiya fanlarining eng dolzarb yo'nalishlaridan biriga aylandi. Atmosfera, suv va tuproq tarkibining ifloslanishi, oziq-ovqat mahsulotlarining sifatsizligi hamda sanoat chiqindilarining ko'payishi inson organizmida, ayniqsa yosh avlod sog'lig'ida jiddiy o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda. Ekologik jihatdan noqulay hududlarda yashovchi o'smir qizlarda endokrin tizim faoliyatining buzilishi, hayz siklining kechikishi yoki beqarorligi, shuningdek, reproduktiv organlarning funksional yetishmovchiligi holatlari tobora ko'paymoqda [1,5].

O'smirlik davri — organizmning jadal rivojlanish, gormonal o'zgarishlar va reproduktiv tizim shakllanish davridir. Shu bois bu yoshda tashqi omillarning, xususan, ekologik va ijtimoiy stress faktorlarining salbiy ta'siri jiddiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Shu munosabat bilan ekologik jihatdan noqulay va qulay hududlarda yashovchi o'smir qizlarning reproduktiv tizimi holatini taqqoslab o'rganish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega [3,8].

Mazkur tadqiqotning maqsadi — ekologik sharoitlarning reproduktiv tizimga ta'sirini aniqlash, o'smir qizlarda gormonal va funksional o'zgarishlarni baholash hamda profilaktika chora-tadbirlarini taklif etishdan iboratdir. Ekologik va ishlab chiqarish omillarining salbiy ta'siri ostida yashovchi ayollar, ayniqsa o'smir qizlarning reproduktiv salomatligini saqlash zamonaviy tibbiyotning muhim yo'nalishlaridan biridir. So'nggi yillarda ekologik jihatdan noqulay hududlarda yashovchi qizlar va o'smirlar orasida ginekologik kasalliklarning ko'payishi, bemorlarning yoshi esa kichrayib borayotgani kuzatilmoqda. Ayniqsa, hayz ko'rish siklining buzilishi va neyroendokrin sindromlarning ortishi bunga sabab bo'lmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2017 yilga kelib qizlarda hayz siklining buzilishi 31,5% ga, o'smirlar orasida esa 56,4% ga oshgan [2,4,6]. Ayolning reproduktiv salomatligi ko'plab omillarga — irsiy, ekologik, ijtimoiy, kasbiy va turmush tarziga bog'liq. Ushbu ilmiy maqolada ekologik jihatdan noqulay va qulay hududlarda yashovchi o'smir qizlarning reproduktiv tizimi xususiyatlari tahlil qilinadi hamda ularni solishtirma o'rganish natijalari keltiriladi [7].

Kalit so'zlar: reproduktiv salomatlik, ekologik omillar, hayz sikli, o'smirlik davri, zararli faktorlar.

Негмаджанов Баходур Болтаевич
доктор медицинских наук, профессор
Самаркандский государственный медицинский университет
Самарканд, Узбекистан

Валиев Шуҳрат Насимович
PhD
Самаркандский государственный медицинский университет
Самарканд, Узбекистан

Эрназарова Мохинур Зайнабиддиновна
резидент магистратуры
Самаркандский государственный медицинский университет
Самарканд, Узбекистан

ВЛИЯНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ НА ПОЛОВОЕ СОЗРЕВАНИЕ И МЕНСТРУАЛЬНУЮ ФУНКЦИЮ ДЕВУШЕК-ПОДРОСТКОВ

АННОТАЦИЯ

В последние годы проблема влияния экологических факторов на здоровье человека стала одним из наиболее актуальных направлений медицины и биологии. Загрязнение атмосферного воздуха, водных ресурсов и почвы, низкое качество пищевых продуктов, а также увеличение объемов промышленных отходов приводят к серьезным изменениям в организме человека, особенно негативно отражаясь на здоровье подрастающего поколения. У девушек-подростков, проживающих в экологически неблагоприятных регионах, всё чаще выявляются нарушения функции эндокринной системы, задержка или нестабильность менструального цикла, а также функциональная недостаточность репродуктивных органов [1,5].

Подростковый возраст является периодом интенсивного развития организма, гормональной перестройки и формирования репродуктивной системы. В связи с этим негативное воздействие внешних факторов, в частности экологических и социальных стрессовых факторов, в данном возрасте может приводить к серьезным последствиям. В этой связи сравнительное изучение состояния репродуктивной системы девушек-подростков, проживающих в экологически неблагоприятных и благоприятных регионах, имеет важное научно-практическое значение [3,8].

Целью настоящего исследования является определение влияния экологических условий на репродуктивную систему, оценка гормональных и функциональных изменений у девушек-подростков, а также разработка профилактических мероприятий. Сохранение репродуктивного здоровья женщин, особенно девушек-подростков, проживающих в условиях неблагоприятного воздействия экологических и производственных факторов, является одним из приоритетных направлений современной медицины. В последние годы отмечается рост гинекологической заболеваемости среди девушек и подростков, проживающих в экологически неблагоприятных регионах, при этом наблюдается тенденция к снижению возраста пациенток. Особое место среди данных нарушений занимают расстройства менструального цикла и нейроэндокринные синдромы. Согласно статистическим данным, к 2017 году частота нарушений менструального цикла у девушек увеличилась до 31,5 %, а среди подростков — до 56,4 % [2,4,6].

Репродуктивное здоровье женщины зависит от множества факторов, включая наследственные, экологические, социальные, профессиональные и особенности образа жизни. В данной научной статье анализируются особенности репродуктивной системы девушек-подростков, проживающих в экологически неблагоприятных и благоприятных регионах, а также представлены результаты их сравнительного изучения [7].

Ключевые слова: репродуктивное здоровье, экологические факторы, менструальный цикл, подростковый возраст, вредные факторы.

Negmadjanov Bahodur Boltayevich

Doctor of Medical Sciences, Professor
Samarkand State Medical University
Samarkand, Uzbekistan

Valiyev Shuhrat Nasimovich

PhD, Samarkand State Medical University
Samarkand, Uzbekistan

Ernazarova Mokhinur Zaynobiddinova

Master's Resident
Samarkand State Medical University
Samarkand, Uzbekistan

THE INFLUENCE OF ENVIRONMENTAL FACTORS ON SEXUAL MATURATION AND MENSTRUAL FUNCTION IN ADOLESCENT GIRLS

ANNOTATION

In recent years, the issue of the impact of environmental factors on human health has become one of the most pressing areas of research in medical and biological sciences. Pollution of the atmosphere, water, and soil, poor quality of food products, as well as the increasing volume of industrial waste lead to significant changes in the human body, particularly affecting the health of the younger generation. Among adolescent girls living in environmentally unfavorable regions, disorders of endocrine system function, delayed or irregular menstrual cycles, as well as functional insufficiency of the reproductive organs are being observed with increasing frequency [1,5].

Adolescence is a critical period characterized by rapid physical development, hormonal changes, and the formation of the reproductive system. Therefore, negative influences of external factors—especially environmental and social stressors—during this stage of life may result in serious long-term consequences. In this context, a comparative study of the reproductive system status of adolescent girls residing in environmentally unfavorable and favorable regions is of significant scientific and practical importance [3,8].

The aim of the present study is to determine the impact of environmental conditions on the reproductive system, to assess hormonal and functional changes in adolescent girls, and to propose preventive measures. Preserving the reproductive health of women, particularly adolescent girls living under adverse environmental and industrial influences, represents one of the key priorities of modern medicine. In recent years, an increase in gynecological diseases has been observed among girls and adolescents residing in environmentally unfavorable areas, accompanied by a trend toward a decreasing age of affected patients. Of particular concern are menstrual cycle disorders and the growing prevalence of neuroendocrine syndromes. According to statistical data, by 2017 the prevalence of menstrual cycle disorders increased to 31.5% among girls and to 56.4% among adolescents [2,4,6].

Female reproductive health depends on numerous factors, including genetic, environmental, social, occupational, and lifestyle-related influences. This scientific article analyzes the characteristics of the reproductive system of adolescent girls living in environmentally unfavorable and favorable regions and presents the results of their comparative assessment [7].

Key words: reproductive health, environmental factors, menstrual cycle, adolescence, harmful factors.

Tadqiqotning madsadi: ekologik noqulay sharoitda yashaydigan o'smir qizlarni reproduktiv salomatligini baholash.

Tadqiqot materiallari va usullari:

Tadqiqot 2023–2025-yillar davomida ekologik jihatdan noqulay va ekologik jihatdan qulay deb tasniflangan hududlarda yashovchi o'smir qizlar o'rtasida olib borildi. Ekologik jihatdan noqulay hududlar sifatida sanoat korxonalarini ko'p joylashgan, atmosfera havosi va ichimlik suvi tarkibida kimyoviy moddalarning me'yordan oshganligi aniqlangan

tumanlar tanlandi. Ekologik qulay hududlar esa nisbatan toza havo, yaxshi sanitariya-gigiyenik sharoit va past sanoat yuklamasiga ega aholi punktlaridan iborat edi.

Tadqiqotga jami 120 nafar 12–17 yoshdagi o'smir qizlar jalb qilindi. Ulardan 60 nafari ekologik noqulay, 60 nafari esa ekologik qulay hududlarda yashovchi qizlar edi. Tadqiqot ishtirokchilari sog'lom ijtimoiy muhitda yashovchi, surunkali kasalliklari bo'lmagan,

shuningdek, og‘ir endokrin va genetik patologiyalarga ega bo‘lmagan shaxslardan tanlab olindi.


Tadqiqot natijasi va muhokamasi: 15–17 yoshli qizlarning hayz funksiyasini o‘rganish quyidagi ko‘rsatkichlarni tahlil qilishni o‘z ichiga oldi: menarxe yoshini, hayz ritmining shakllanish davomiyligini, hayz siklining davomiyligini, hayz ko‘rish kunlari sonini, og‘riq sindromini, qon yo‘qotish miqdorini.

Hayz funksiyasidagi buzilishlar sifatida quyidagilar qayd etildi: menarxening juda erta yoki juda kech boshlanishi; hayz ritmining uzoq shakllanishi; ikkilamchi amenoreya; tartibsiz, 1–5 oyda bir marta keladigan, kam miqdorli, 1–7 kun davom etuvchi hayzlar; o‘rta darajada yoki ko‘p qon yo‘qotish bilan kechuvchi, 1–4 oyda takrorlanadigan, uzoq davom etuvchi metrorrogiyalar.

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari ekologik jihatdan noqulay hududlarda yashovchi o‘smir qizlarda reproduktiv tizim faoliyatida qator o‘zgarishlar mavjudligini ko‘rsatdi. Bu o‘zgarishlar, asosan, hayz siklining kechikishi, beqarorligi, gormonal muvozanatsizlik va tuxumdonlarning funksional faolligi pasayishi bilan ifodalandi. Qizlarning yashash hududiga qarab ularda jinsiy yetilish darajasi

turlicha ekanligi aniqlandi. Bu esa pubertat davrida reproduktiv funksiyaning shakllanishiga bevosita ta‘sir qiladi. Sanoat hududida yashovchi 14 yoshli qizlarda ko‘krak bezlarining rivojlanish darajasi, qov va qo‘ltiq osti sohalaridagi tuklanish darajasi pastroq bo‘lib, bu ko‘rsatkichlar markaziy hududdagi qizlarga nisbatan sezilarli farq qiladi ($p < 0,05-0,001$). 15–16 yoshli qizlar guruhida esa hayz funksiyasini baholash bo‘yicha jinsiy rivojlanish ballari pastroq ekanini aniqlangan. Jinsiy rivojlanish formulasi dinamikasi ham ekologik jihatdan noqulay hududda yashovchi 14–15 yoshli qizlarda ikkilamchi jinsiy belgilar rivojlanishining kechikishini tasdiqlaydi. 16–17 yoshga kelib esa bu farqlar bir muncha to‘g‘irlanadi.

Ekologik noqulay hududlarda yashovchi o‘smir qizlarning 46,7 % da hayz sikli buzilganligi aniqlangan. Ularning 28,3 % da oligomenoreya (hayz siklining cho‘zilishi), 12,5 % da amenoreya (hayzning butunlay yo‘qligi), 5,9 % da esa dismenoreya (og‘riqli hayz ko‘rish) holatlari qayd etildi. Ekologik qulay hududlarda yashovchi qizlarda esa bu ko‘rsatkichlar mos ravishda 21,4 %, 6,8 % va 3,1 % ni tashkil etdi (Rasm 1).




Gormonal tekshiruv natijalariga ko‘ra, ekologik noqulay hududdagi o‘smirlarda FSG va LG gormonlari nisbatining buzilishi, progesteron darajasining pasayishi va estrogenning nisbatan ortishi kuzatildi. Bu holat tuxumdonlar faoliyatining disbalansini va neyroendokrin tizimning stressga sezuvchanligini ko‘rsatadi.

Ultratovush tekshiruvlari asosiy guruhda tuxumdon hajmining kichrayishi, follikulyar yetilmaslik, bachadon shilliq qavatining yupqalashganligi kabi belgilarni aniqladi. Bu o‘zgarishlar organizmga

uzoq muddatli ekologik stress omillari (og‘ir metall ionlari, atmosferadagi ifloslantiruvchi modda va suv sifati) ta‘siri bilan izohlanadi.

Ultratovush tekshiruvida ekologik noqulay hududdagi qizlarning 38 % da tuxumdonlarda mikrofollikulyar o‘zgarishlar, 24 % da esa bachadon hajmining yosh normasidan kichikligi aniqlangan. Ekologik qulay hududdagi qizlarda esa bu ko‘rsatkichlar 12 % va 8 % dan oshmagan (Rasm 2).



Laborator-biokimyoviy tahlillar natijasida ekologik noqulay hududlarda yashovchilarning qonida gemoglobin miqdori o'rtacha $90 \pm 4,2$ g/l bo'lib, ekologik qulay hududdagilarda bu ko'rsatkich $95 \pm 3,8$ g/l ni tashkil etdi. Shuningdek, rux va temir miqdorining kamayishi, mikroelement almashinuvida nomutanosiblik kuzatildi.

Tahlil natijalariga ko'ra, ekologik ifloslanishning yuqori darajasi o'smir organizmida endokrin tizim va reproduktiv organlar faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Bu esa o'z navbatida, kelajakda reproduktiv salomatlikning buzilishi, bepustlik yoki gormonal disfunktsiya xavfini oshiradi. O'tkazilgan tadqiqotlar natijasida ekologik jihatdan noqulay hududda yashovchi o'smir qizlarda menarxe (birinchi hayz) boshlanishining o'rtacha yoshi $12,9 \pm 0,2$ yosh, ekologik toza hududlarda esa $12,3 \pm 0,1$ yoshni tashkil etdi. Demak, ekologik noqulay sharoitda yashovchi qizlarda hayz sikli o'rtacha 0,6 yilga kechikish bilan boshlangan.

Bundan tashqari, asosiy guruhda hayz siklining beqarorligi, og'riqli hayz (alomenoreya) va gormonal nomutanosiblik holatlari ancha ko'p uchradi. Jumladan, asosiy guruh qizlarining 43,3% ida hayz sikli buzilishi, 26,6% ida vegetativ distoniya belgilari, 30% ida esa gormonal fon o'zgarishlari qayd etildi. Taqqoslash guruhida esa bu ko'rsatkichlar mos ravishda 16,7%, 10% va 13,3%ni tashkil etdi.

Olingan ma'lumotlar ekologik omillar o'smirlilik davrida reproduktiv tizim shakllanish jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsatishini va bu ta'sir ko'p hollarda qaytmas morfo-funksional o'zgarishlarga olib

kelishini tasdiqlaydi. Shu sababli, ekologik jihatdan noqulay hududlarda yashovchi o'smir qizlarni muntazam tibbiy nazoratda ushlab turish, gormonal muvozanatni baholash hamda profilaktik sog'lomlashtirish chora-tadbirlarini kuchaytirish muhim ahamiyatga ega.

Xulosa: Ekologik jihatdan noqulay hududlarda yashovchi o'smir qizlarda reproduktiv tizimning shakllanish jarayoni sekinlashadi va hayz sikli buzilishlari ko'proq kuzatiladi.

Bunday hududlarda yashovchi qizlarda gormonal nomutanosiblik, vegetativ nerv tizimi disfunktsiyasi va endokrin o'zgarishlar nisbatan yuqori darajada uchraydi.

Ekologik omillar, xususan, atmosferaning ifloslanishi, og'ir metall tuzlari, ichimlik suvi sifatining yomonligi va psixoemotsional stresslar o'smirlarning reproduktiv salomatligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

O'smir qizlarning reproduktiv salomatligini saqlash uchun ekologik sharoitni yaxshilash, sog'lom turmush tarzini shakllantirish va muntazam tibbiy profilaktika tekshiruvlarini tashkil etish zarur.

Fizik rivojlanish buzilishlari, reproduktiv tizim shakllanishidagi kamchiliklar, somatik va ginekologik kasalliklarning yuqori uchrashi qizlarning reproduktiv salohiyatini aynan sanoat hududlarida ko'proq cheklaydi.

Hududning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish bolalar, o'smirlar va yoshlarning reproduktiv salomatligini muhofaza qilish bo'yicha samaraliroq tibbiy-ijtimoiy va profilaktik yordam algoritmini ishlab chiqish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:


1. Карчевская А. О. и др. Гигиеническая оценка факторов риска, влияющих на репродуктивное здоровье девочек-подростков // Медицина и организация здравоохранения. – 2025. – Т. 10. – №. 2. – С. 100-109.
2. Самойлова А. В. и др. Региональные эколого-геохимические характеристики территории проживания как причинные факторы нарушений репродуктивного здоровья девушек-подростков // Ульяновский медико-биологический журнал. – 2016. – №. 4. – С. 62-69.
3. Беляева А. В. и др. Особенности формирования репродуктивного потенциала девочек-подростков в крупном промышленном городе // Вестник Волгоградского государственного медицинского университета. – 2021. – №. 1 (77). – С. 61-65.
4. Шубина О. А. и др. Морфофункциональные особенности развития сельских подростков в условиях воздействия природного радонового фактора. – 2008.
5. Губанова Е. А. Сравнительная эколого-физиологическая характеристика репродуктивного здоровья девочек-подростков городского и сельского населения Чувашской республики // дисс.... канд. мед. наук. – 2009. – Т. 3. – С. 13.
6. Нурхасимова Р. Г., Ибраева Д. Е., Аязбеков А. К. Состояние соматического и репродуктивного здоровья девочек и девочек-подростков, проживающих в экологически неблагоприятном регионе // Журн. Медицина. – 2017. – №. 12. – С. 74.
7. Бахтиярова А. Ш. и др. Особенности физического и полового развития девочек и девочек-подростков, проживающих в экологически неблагоприятном регионе // Репродуктивное здоровье детей и подростков. – 2016. – №. 2 (67). – С. 47-48.
8. Андреева М. В. Экологические факторы формирования репродуктивного здоровья женщин Волгоградского региона // Журнал акушерства и женских болезней. – 2005. – Т. 54. – №. 1. – С. 78-86.



Shodikulova Gulandom Zikriyaevna
Samarqand davlat tibbiyot universiteti
O'zbekiston, Samarqand
Yunusova Zarnigor
Samarqand davlat tibbiyot universiteti
O'zbekiston, Samarqand

OBSTETRIC BLEEDING: MODERN APPROACHES TO DIAGNOSIS, PREVENTION AND TREATMENT

For citation: Shodikulova Gulandom Zikriyaevna, Yunusova Zarnigor, Prevalence and incidence of undifferentiated connective tissue dysplasia among pregnant women, Journal of reproductive health and uro-nephrology research 2026 vol 7 issue 1

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.18886991>

ANNOTATSIYA

Tadqiqotning maqsadi Sog'liqni saqlash tizimi birlamchi bo'g'inida xomiladorlar o'rtasida biriktiruvchi to'qima displaziyasi tarqalishi va uchrashini o'rganish va bemorlarni olib borish tizimini ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot Samarqand davlat tibbiyot universitetining akusherlik-ginekologiya bo'limlari va ayollar maslahatxonalari bazasida 2023-2025 yillar davomida o'tkazildi. Tug'ruq majmuasiga qabul qilingan homilador ayollarning arxiv kasallik tarixlari tahlili shuni ko'rsatdiki, 3482 nafar bemordan 739 nafarida DBTD belgilari aniqlangan, bu 21,2 foizni tashkil etgan.

Kalit so'zlar: xomiladorlik, biriktiruvchi to'qima displaziyasi, tarkalishi, uchrash chastotasi.

Shodikulova Gulandom Zikriyaevna
Samarkand State Medical University
Samarkand, Uzbekistan
Yunusova Zarnigor
Samarkand State Medical University
Samarkand, Uzbekistan

PREVALENCE AND INCIDENCE OF UNDIFFERENTIATED CONNECTIVE TISSUE DYSPLASIA AMONG PREGNANT WOMEN

ABSTRACT

The aim of the study is to investigate the prevalence and incidence of connective tissue dysplasia among pregnant women in primary health care and to develop a system for managing patients. The study was conducted at the obstetrics and gynecology departments of Samarkand State Medical University and women's clinics during 2023-2025. An analysis of the archived medical records of pregnant women admitted to the maternity complex showed that out of 3,482 patients, 739 had signs of CD, which accounted for 21.2%.

Key words: pregnancy, connective tissue dysplasia, prevalence, frequency.

Шодиккулова Гуландом Зикриевна
Самаркандский государственный медицинский университет
Самарканд, Узбекистан
Юнусова Зарнигор
Самаркандский государственный медицинский университет
Самарканд, Узбекистан

РАСПРОСТРАНЕННОСТЬ И ВСТРЕЧАЕМОСТЬ НЕДИФФЕРЕНЦИРОВАННОЙ ДИСПЛАЗИИ СОЕДИНИТЕЛЬНОЙ ТКАНИ СРЕДИ БЕРЕМЕННЫХ

АННОТАЦИЯ

Целью исследования является изучение распространенности и встречаемости дисплазии соединительной ткани среди беременных в первичном звене системы здравоохранения и разработка системы ведения больных. Исследование проводилось на базе отделений акушерства и гинекологии Самаркандского государственного медицинского университета и женских консультаций в течение 2023-2025 гг. Анализ архивных историй болезни беременных, поступивших в родильный комплекс, показал, что из 3482 пациенток у 739 были выявлены признаки ДТД, что составило 21,2%.

Ключевые слова: беременность, дисплазия соединительной ткани, распространенность, частота.

DBTD zamonaviy tibbiyotning eng dolzarb fanlararo muammolaridan biri hisoblanadi. T.I. Kadurinaning ta'rifiga ko'ra [19], DBTD - bu embrional va tug'ilishdan keyingi davrlarda kollagen, elastin va boshqa oqsillarning sintezi hamda fazoviy tuzilishini kodlovchi genlarning o'zgarishi natijasida yuzaga keladigan, biriktiruvchi to'qima rivojlanishining genetik jihatdan belgilangan buzilishi bo'lib, to'qima, a'zo va organizm darajasida gomeostazning izdan chiqishiga olib keladi.

DBTDni o'rganishning dolzarbligi uning aholi orasida keng tarqalganligi bilan bog'liq bo'lib, turli mualliflarning ma'lumotlariga ko'ra, bu ko'rsatkich 13 foizdan 85,4 foizgacha yetadi [10, 18]. Tarqalish ko'rsatkichlarining bunday sezilarli farqlanishi yagona tashxis mezonlarining yo'qligi va kasallikning fenotipik belgilarini aniqlashga bo'lgan turli yondashuvlar bilan izohlanadi. Muammo alohida ahamiyat kasb etadi, chunki DBTD asosan yosh odamlarga, jumladan reproduktiv yoshdagi ayollarga ta'sir ko'rsatadi [9, 51].

Homiladorlik ayol organizmida keng ko'lamli o'zgarishlar bilan kechadigan noyob fiziologik holat hisoblanadi. Bu o'zgarishlarning aksariyati biriktiruvchi to'qimaning qayta shakllanishi bilan bevosita bog'liq [7]. DBTDda biriktiruvchi to'qimaning tuzilmaviy va funksional nuqsonlari homiladorlikka moslashish jarayonlariga jiddiy ta'sir ko'rsatib, turli xil asoratlarning rivojlanishiga sabab bo'lishi mumkin [28].

Homiladorlikning uzilish xavfi DBTD bilan og'rikan bemorlarda eng ko'p uchraydigan asoratlardan biri bo'lib, 68-85% hollarda kuzatiladi. Ushbu asoratning patogenezi bir necha mexanizmlar bilan bog'liq: endometriy biriktiruvchi to'qimalarining nuqsonlari tufayli implantatsiya va platsentatsiyaning buzilishi, bo'yin-bachadon yetishmovchiligi, bachadonning qisqarish faoliyatining kuchayishi [25]. Bundan tashqari, xomiladorlik kechishi va natijalariga ushbu sindromning patogenetik roli bo'yicha yagona xulosa mavjud emas.

Tadqiqot maqsadi Xomiladorlar o'rtasida biriktiruvchi to'qima displaziyasi tarqalishi va uchrashini o'rganish va bemorlarni olib borish tizimini ishlab chiqishdan iborat.

Materiallar va tadqiqot usullari. Tadqiqot materiallari va metodlari: Tadqiqot Samarqand davlat tibbiyot universitetining akusherlik-ginekologiya bo'limlari va ayollar maslahatxonalari bazasida 2023-2025 yillar davomida o'tkazildi. Tug'ruq majmuasiga qabul qilingan homilador ayollarning arxiv kasallik tarixlari tahlili shuni

ko'rsatdiki, 3482 nafar bemordan 739 nafarida DBTD belgilari aniqlangan, bu 21,2 foizni tashkil etgan.

Kuzatuv ostida 213 nafar homilador ayollar bo'lib, ular biriktiruvchi to'qimaning differensiallanmagan displaziyasi (BTDD) belgilari mavjudligiga qarab ikki guruhga bo'lingan. I guruh - BTDD tashxisi qo'yilgan 93 nafar xomilador. Tashxis klinik-anamnestik ma'lumotlar va fenotipik belgilar yig'indisi asosida qo'yildi. II guruh - asosiy guruh bilan yoshi va homiladorlik muddati bo'yicha taqqoslanadigan BTDD klinik va laboratoriya belgilari bo'lmagan 120 nafar amaliy sog'lom homilador ayollar.

Tekshirilganlarning yoshi 18 yoshdan 39 yoshgacha o'zgarib turdi, o'rtacha yosh I guruhda 28,1±4,9 yoshni, II guruhda 27,6±4,7 yoshni tashkil etdi (r>0,05). Ikkala guruhdagi xomiladorlar asosiy ijtimoiy-demografik ko'rsatkichlar (ma'lumot darajasi, ijtimoiy maqomi, oilaviy ahvoli) bo'yicha taqqoslandi.

Tekshirilganlarning aksariyati homiladorlikning ikkinchi trimestrida (18-24 hafta) bo'lgan, bu standart skrinink tekshiruvlarini o'tkazish muddatlariga mos keladi. Biriktiruvchi to'qimaning differensiallanmagan displaziyasi tashxisini qo'yish uchun xalqaro va mahalliy tasniflardan foydalanilgan.

Tadqiqot dizayniga ko'ra, xomiladorlarning dinamik klinik tekshiruvini o'tkazildi, shu jumladan xomiladorlarni qabul qilishda dastlabki tekshiruv, bir necha marta takroriy tekshiruvlar bajarilgan. Xomiladorlar axvoli klinik, laboratoriya va instrumental tekshirish natijalari asosida baholandi.

Olingan natijalarning statistik tahlili shaxsiy kompyuterlar uchun standart Microsoft Office 2010 dasturiy paketi yordamida amalga oshirildi. Variatsiya qatorlarini standart qayta ishlash o'rtacha arifmetik qiymatlarni (M), standart og'ishlar(m) hisoblashni o'z ichiga oladi. Variatsion qatorlarni taqqoslash ikkita selektiv Student kriteriyalari (t) yordamida amalga oshirildi. O'rganilayotgan ko'rsatkichlar orasidagi korrelyatsiyani bog'liqlikni aniqlash uchun Pearson korrelyatsiya koeffitsientida(r) hisoblab chiqilgan.

Tadqiqot natijalari. Yuqoridagilarni hisobga olib, biz xomiladorligi bor va BTDD bilan og'rikan ayollarni o'rganib chiqdik. Tekshirilgan guruhlardan kuzatilganlarning umumiy tavsifi shuni kursatdiki, tadqiqotga kiritgan xomilador ayollarning yoshi, xomiladorlik muddati, tugruklar soni deyarli bir xil ekanligi va bu kursatkichlar muxim ahamiyatga ega ekanligi bilan izohlanadi.

Jadval 1

Tekshirilgan guruhlardan kuzatilganlarning umumiy tavsifi

Ko'rsatkich	I guruh (n=93)	II guruh (n=120)	p
O'rtacha yosh (M±m)	28,1 ± 0,5	27,6 ± 0,4	>0,05
Yosh oralig'i, yosh	18-39	19-38	-
Tadqiqotga kiritilgandagi homiladorlik muddati, hafta (M±m)	18,9 ± 0,6	19,4 ± 0,5	>0,05
Anamnezdagi homiladorliklarning o'rtacha soni (M±m)	1,8 ± 0,1	1,7 ± 0,1	>0,05
Tug'ruqlar soni (M±m)	1,0 ± 0,1	1,3 ± 0,1	<0,05
Anamnezdagi o'z-o'zidan bo'lgan abortlar, (M±m)	0,82 ± 0,1	0,43 ± 0,05	<0,001
Homiladorlikdan oldingi TVI, kg/m ² (M±m)	21,4 ± 0,3	22,0 ± 0,3	>0,05
Ma'lumoti (oliy/o'rta maxsus), abs. (%)	48/45 (51,6/48,4)	61/59 (50,8/49,2)	>0,05
Ijtimoiy maqom (ishlovchilar), abs. (%)	58 (62,4%)	72 (60,0%)	>0,05

Tekshirilganlarning yosh tarkibi tahlil qilinganda, I guruhda (DBTD bilan) ayollarning o'rtacha yoshi 28,1±0,5 yosh, II guruhda esa 27,6±0,4 yosh ekanligini ko'rsatdi. Guruhlar o'rtasida statistik jihatdan sezilarli farqlar aniqlanmadi (p>0,05). Asosiy guruhdagi bemorlarning yosh diapazoni 18 yoshdan 39 yoshgacha, nazorat guruhida esa 19 yoshdan

38 yoshgacha bo'lgan. Bu esa ushbu ko'rsatkich bo'yicha guruhlarining taqqoslanishini ko'rsatadi.

Tadqiqotga kiritilgan paytda homiladorlik muddati I guruhda 18,9±0,6 hafta, II guruhda esa 19,4±0,5 haftani tashkil etdi, bunda ham statistik jihatdan ahamiyatli farqlar kuzatilmadi (p>0,05). Shunday

qilib, guruhlar yoshi va homiladorlik muddati bo'yicha taqqoslanarli edi.

Akusherlik anamnezini baholashda DBTD bilan og'riqan bemorlarda homiladorlikning o'rtacha soni $1,8 \pm 0,1$ ni tashkil etdi, bu nazorat guruhi ko'rsatkichi - $1,7 \pm 0,1$ ga taqqoslanarli ($p > 0,05$). I guruhdagi tug'ruqlar soni ($1,0 \pm 0,1$) II guruhga ($1,3 \pm 0,1$; $p < 0,05$) qaraganda sezilarli darajada past ekanligi aniqlandi. Bu esa biriktiruvchi to'qima displaziyasi belgilari bo'lgan ayollarda reproduktiv funksiyaning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi.

O'z-o'zidan homila tushishi ko'rsatkichi alohida e'tiborni tortdi: I guruhda u $0,82 \pm 0,1$ ni tashkil etib, bu nazorat guruhining xuddi shunday ko'rsatkichidan ikki barobar ko'p edi - $0,43 \pm 0,05$ ($p < 0,001$). Ushbu fakt homiladorlikning dastlabki bosqichlarida salbiy oqibatlarining shakllanishida biriktiruvchi to'qimaning differensiallanmagan displaziyasi muhim rol o'ynashini ko'rsatadi. Homiladorlikdan oldingi tana vazni indeksi ikkala guruhda ham sezilarli farq qilmadi va asosiy guruhda $21,4 \pm 0,3$ kg/m², nazorat guruhida esa $22,0 \pm 0,3$ kg/m² ni tashkil etdi ($p > 0,05$).

Ijtimoiy-demografik ko'rsatkichlar (ta'lim darajasi va ijtimoiy holat) bo'yicha ham guruhlar taqqoslanadigan bo'ldi. DBTD bo'lgan ayollar orasida oliy ma'lumotlilar 48 (51,6%), o'rta maxsus ma'lumotlilar - 45 (48,4%); nazorat guruhida esa mos ravishda 61

(50,8%) va 59 (49,2%) ni tashkil etdi ($p > 0,05$). Tadqiqotga kiritilgan paytda ikkala guruhdagi tekshirilgan bemorlarning aksariyati ishlaydigan edi: asosiy guruhda 62,4% va nazorat guruhida 60,0% ($p > 0,05$).

Shunday qilib, taqqoslangan guruhlar yoshi, homiladorlik muddati, tana vazni indeksi va ijtimoiy-demografik xususiyatlari bo'yicha bir xil edi. Akusherlik anamnezi ko'rsatkichlari bo'yicha farqlar aniqlandi: DBTD bilan og'riqan ayollarda tug'ruqlar sezilarli darajada kamroq kuzatildi va o'z-o'zidan homila tushishi ko'proq uchradi. Bu esa ushbu toifadagi ayollarda sezilarli reproduktiv xavflar mavjudligini ko'rsatadi.

2024 yilda tug'ruq majmuasiga qabul qilingan homilador ayollarning arxiv kasallik tarixlari tahlili shuni ko'rsatdiki (2.1.2-jadval), 3482 nafar bemordan 739 nafarida DBTD belgilari aniqlangan, bu 21,2 foizni tashkil etgan. Demak, qabul qilingan har beshinchi homilador ayolda DBTDning klinik yoki laborator-instrumental belgilari mavjud bo'lgan.

DBTD chastotasining olingan ko'rsatkichi adabiyot ma'lumotlariga mos keladi. Unga ko'ra, reproduktiv yoshdagi ayollarda ushbu patologiyani tarqalishi 20 foizdan 30 foizgacha o'zgarib turadi. Bu biriktiruvchi to'qima displaziyasining homiladorlik kechishi va uning natijalariga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan fon holati sifatida yuqori ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi.

2-jadval.

Homilador ayollar orasida DBTD uchrash chastotasi

Ko'rsatkich	Abs soni	%
Jami qabul qilingan homilador ayollar	3 482	100
DBTD	739	21,2

DBTD ning yoshga qarab taqsimlanishini tahlil qilganda, eng ko'p uchrash chastotasi 25 yoshdan kichik ayollarda kuzatildi: bu guruhdagi 812 nafar homilador ayolning 223 nafarida DBTD belgilari qayd etilgan bo'lib, bu 27,5% ni tashkil etdi. 25-29 yosh guruhida DBTD 1210 nafar ayolning 262 nafarida (21,6%) aniqlandi. 30-34 yoshdagi bemorlarda biriktiruvchi to'qima displaziyasi 987 holatdan 185 tasida kuzatildi, bu 18,7% ga to'g'ri keladi.

Eng kam chastota 35 va undan katta yoshdagi ayollarda qayd etildi - 473 holatdan 69 tasi yoki 14,6%. Shunday qilib, DBTD ni aniqlash chastotasi onaning yoshi oshishi bilan pasayish tendensiyasiga ega bo'ldi: 25 yoshdan kichik ayollarda 27,5% dan ≥ 35 yosh toifasida 14,6% gacha. Bu holat yosh davrda fenotipik ko'rinishlarning shakllanish xususiyatlari bilan ham, erta reproduktiv bosqichlarda patologiyani eng og'ir kechishi bo'lgan bemorlarning "tabiiy tanlanishi" ta'siri bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin.

3-jadval.

Yosh guruhlari bo'yicha DBTD uchrash chastotasi

Yosh	Jami, n	DBTD bilan, n	%
<25 let	812	223	27,5
25-29 let	1 210	262	21,6
30-34 goda	987	185	18,7
≥ 35 let	473	69	14,6

Homiladorlik trimestrlari bo'yicha DBTDni aniqlash chastotasini tahlil qilganda (2.1.4-jadval), quyidagilar ma'lum bo'ldi: I trimestrda qabul qilingan 412 ayolning 106 nafarida biriktiruvchi to'qima displaziyasi belgilari aniqlandi, bu 25,7% ni tashkil etdi. II trimestrda 1532 homilador ayolning 347 nafarida (22,7%) DBTD tashxisi qo'yildi. III trimestrda tug'ruq majmuasiga qabul qilingan 1538 ayolning 286 nafarida DBTD belgilari aniqlandi, bu 18,6% ga to'g'ri keldi. Shunday qilib, homiladorlikning erta muddatlaridan yetuk muddatiga qadar

DBTD uchrash chastotasining sezilarli pasayish tendensiyasi kuzatildi: I trimestrda 25,7% dan III trimestrda 18,6% gacha. Bu holat erta muddatlarda kontingentni tanlash xususiyatlari (asoratlangan akusherlik anamnezi va homila tushish xavfi yuqori bo'lgan bemorlarning ko'pligi) bilan ham, biriktiruvchi to'qima yetishmovchiligi yaqqol namoyon bo'lgan ayollarda homiladorlikning o'z-o'zidan to'xtashining tabiiy mexanizmlari bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin.

4-jadval.

Qabul paytida homiladorlik trimestrlari bo'yicha DBTD uchrash chastotasi

Trimestr	Jami, n	DBTD, n	%
I trimestr	412	106	25,7
II trimestr	1 532	347	22,7
III trimestr	1 538	286	18,6

739 nafar homilador ayolda DBTD klinik ko'rinishlarining tuzilishini tahlil qilish natijalariga ko'ra (2.1.5-jadval), eng keng tarqalgan alomat bo'g'imlarning gipermobilligi bo'lib, u 514 nafar bemorda (69,6%) aniqlangan. Bu esa biriktiruvchi to'qima yetishmovchiligini tashxislashda mazkur belgining muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Tarqalish darajasi bo'yicha ikkinchi o'rinda 415 nafar (56,2%) ayolda qayd etilgan astenik tana tuzilishi turadi. Bu ko'rsatkich homilador ayollar orasida DBTD morfofenotipik


ko'rinishlarining yuqori darajada uchrashligi haqidagi ma'lumotlarga mos keladi. Venalarning varikoz kengayishi 321 bemorda (43,4%) aniqlangan bo'lib, bu patologiyani klinik ko'rinishlarida qon tomir tizimining ko'p hollarda ishtirok etishini tasdiqlaydi. Akusherlik-ortopedik simptomlar orasida 214 nafar (28,9%) ayolda kuzatilgan simfiziopatiya (chanoq og'rig'i) e'tiborga loyiq bo'ldi. Exo-KG tekshiruvi natijalariga ko'ra, yurak klapanlari prolapsi 132 nafar bemorda (17,9%) aniqlangan. Bu esa DBTD ning yurak-qon tomir

tizimining funksional buzilishlari bilan birgalikda uchrash darajasi yuqori ekanligini ko'rsatadi. Striyalar va atrofik chandiqlar kabi teri belgilari 198 nafar ayolda (26,8%) kuzatilgan. 147 nafar homilador ayolda (19,9%) qon ketishi va gematomalarga moyillik qayd etilgan. Bu ham birlashtiruvchi to'qima displaziyasining xos ko'rinishi bo'lib, qon tomir-gemostaziologik buzilishlarni aks ettiradi.

Shunday kilib, o'tkazilgan tadqiqotda homiladorlarning 21,2 foizida DBTD aniqlandi. DBTD eng ko'p homiladorlikning I trimestrida (25,7%), nisbatan kamroq II (22,7%) va III trimestrlarda (18,6%) tashxis qo'yildi. Klinik belgilar orasida bo'g'imlarning ortiqcha harakatchanligi (69,6%), tana tuzilishining astenik turi (56,2%), venalarning varikoz kengayishi (43,4%), shuningdek, teri cho'zilish izlari va atrofik chandiqlar (26,8%) ustunlik qildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bataev X.M. Birlashtiruvchi to'qima displazi namoyon bo'lgan o'smirlarda gastroezofagial reflyuks kasalligi: immunologik jihatlar. / Bataev X.M., Shixnabieva M.D. // Dog'iston davlat tibbiyot akademiyasining xabarnomasi. - 2016 yil. 1-son (18). - S. 17 - 20.
2. Zemtsovskiy E.V. Yurakning kichik anomaliyalari va displastik fenotiplar / E.V. Zemtsovskiy, E.G. Malev // Sankt-Peterburg: "IVESEP" nashriyoti, 2011. - P.160.
3. Birlashtiruvchi to'qima displazi bilan kasallangan bemorlarni tashxislash, davolash va reabilitatsiya qilish bo'yicha milliy ko'rsatmalar. Ed. A.I. Matynova, G.I. Nechaeva. M.: Bionika Media MChJ, 2016. S. 12.
4. Shodiqulova G.Z., Babamurodova Z.B. Differentsiatsiyalanmagan birlashtiruvchi to'qima displaziyasida kollagenlarga ba'zi avtoantikorlarning klinik-dagnostik ahamiyati // Yevroosiyo shifokorlar assotsiatsiyasining IV Kongressi O'zbekiston vrachlarining Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi bilan birgalikda. - Toshkent, 2018. - B.31
5. Shodiqulova G.Z. Klinik laboratoriya parametrlari va ularning UCTDdagi magniy darajalari bilan bog'liqligi. "Fan va ta'lim yutuqlari" Rossiya, 2019 yil No 10 (51), 41-45-betlar.
6. Shodiqulova G.Z., Mirzaev O.V., Babamurodova Z.B. O'zbek populyatsiyasida differentsiylanmagan birlashtiruvchi to'qima displaziyasining klinik variantlari tarqalishi// "YEVROPA TADQIQOTLARI: fan, ta'lim va texnologiyadagi innovatsiyalar" LXIV xalqaro sirtqi ilmiy-amaliy konferensiyasi/ - London, Buyuk Britaniya, 2020 yil. - R. 90-92.
7. Нечаева ГИ, Дакуко АН, Логинова ЕН, Богатырев ИВ, Шарун ИВ. Особенности аритмического синдрома у детей на фоне недифференцированной дисплазии соединительной ткани. Медицинский Совет. 2023;(23):294-302
8. Новицкая Т. В. Недифференцированная дисплазия соединительной ткани как фактор риска гестационных осложнений // Журнал Гродненского государственного медицинского университета. — 2022. — Т. 20, № 6. — С. 637–641.
9. Сарыева О. П., Аширова Г. Г. Недифференцированная дисплазия соединительной ткани у беременных: особенности течения и исходов. // Вестник врача. — 2021. — № 7. — С. 22–28.
10. Торобаева М. Т., Буянова С. Н., Пучкова Н. В. Несостоятельный рубец на матке после кесарева сечения как отдельная нозология. // Российский вестник акушера-гинеколога. — 2023. — Т. 23, № 3. — С. 19–28
11. Colombi M., Dordoni C., Chiarelli N., Ritelli M. Differential diagnosis and diagnostic flow chart of JHS/hEDS compared to other heritable connective tissue disorders. Am J Med Genet C. 2015;169C(1):6–22.
12. Е.Н. Логинова, Г.И. Нечаева, А.Н. Дакуко, И.В. Богатырев, В.В. Фенотипические особенности пациентов с аритмическим синдромом при недифференцированной дисплазии соединительной ткани // Медицинский вестник Северного Кавказа. 2022. №4.



UDK 316.36; 618.51:616-089.844

Shopo'latov Erkin Xoltejiyevich
Assistent Samarqand davlat tibbiyot universiteti
Samarqand, O'zbekiston

Egamqulov Zayniydin Toshmukhammadovich
PhD, Samarqand davlat tibbiyot universiteti
Samarqand, O'zbekiston

G'aniyev Faxriddin Istamqulovich
Assistent, Samarqand davlat tibbiyot universiteti,
Samarqand, O'zbekiston


Fatxulin Nail Salavatovich
anesteziolog-reanimatolog

Shavkatov Hasan Shavkatovich
PhD, Samarqand davlat tibbiyot universiteti
Samarqand, O'zbekiston

Samadova Mashhura Yoqubjon qizi
Magistratura rezidenti
Samarkand Davlat Tibbiyot Universiteti
Samarqand, O'zbekiston

BUYRAK USTI BEZI PO'STLOG'INING TUG'MA DISFUNKSIYASI BO'LGAN QIZLARDA REPRODUKTIV TIZIM SHAKLLANISH XUSUSIYATLARI

For citation: Shopo'latov Erkin Xoltejiyevich, Egamqulov Zayniydin Toshmukhammadovich, G'aniyev Faxriddin Istamqulovich, Fatxulin Nail Salavatovich, Shavkatov Hasan Shavkatovich, Samadova Mashhura Yoqubjon qizi, Characteristics of the formation of the reproductive system in girls with congenital dysfunction of the adrenal cortex, Journal of reproductive health and uro-nephrology research 2026 vol 7 issue 1

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.18886220>

ANNOTATSIYA

Mazkur tadqiqotning maqsadi buyrak usti bezi po'stlog'ining tug'ma disfunktsiyasi bo'lgan qizlarda reproduktiv tizim funksiyasining shakllanish xususiyatlarini klinik, gormonal va instrumental tekshiruvlar asosida tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot 2020–2026 yillar davomida Samarqand viloyatidagi tibbiyot muassasalarida kuzatuvda bo'lgan 20 nafar bemorni retrospektiv va prospektiv o'rganish asosida olib borildi. Bemorlarning yoshi, yashash joyi, somatik holati, antropometrik ko'rsatkichlari, ginekologik statusi, hayz sikli xususiyatlari, shuningdek, laborator (17-gidroksiprogesteron, testosteron, DHEA-S, kortizol) va ultratovush tekshiruv natijalari batafsil baholandi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, BUPTD bilan og'riq qizlarning aksariyatida giperandrogeniya belgilari — akne, seboreya, erkak tipidagi tuklanish, klitoromegaliya va sut bezlarining yetarli rivojlanmasligi kuzatildi. Hayz sikli buzilishlari keng tarqalgan bo'lib, bemorlarning asosiy qismida opsomenoreya va oligomenoreya, kamroq hollarda amenoreya va algodismenoreya aniqlangan. Ultratovush tekshiruvlarida bachadon va tuxumdonlarning yosh me'yorlariga nisbatan kichikligi, ayrim hollarda polikistoz o'zgarishlar qayd etildi.

Kalit so'zlar: buyrak usti bezi po'stlog'ining tug'ma disfunktsiyasi, giperandrogeniya, qizlar, reproduktiv tizim, hayz sikli, 21-gidroksilaza yetishmovchiligi

Shopulatov Erkin Kholtojiyevich
Assistant
Samarkand State medical university
Samarkand, Uzbekistan

Egamkulov Zayniddin Toshmukhammadovich
PhD, Samarkand State Medical University
Samarkand, Uzbekistan

Ganiyev Fakhreddin Istamkulovich
Assistant Samarkand State Medical University
Samarkand, Uzbekistan

Nail Salavatovich Fathulin
Anesthesiologist, Resuscitator

Hasan Shavkatovich Shavkatov
PhD Samarkand State Medical University
Samarkand, Uzbekistan

Samadova Mashkhura Yoqubjon qizi
Master's Resident
Samarkand State Medical University
Samarkand, Uzbekistan

CHARACTERISTICS OF THE FORMATION OF THE REPRODUCTIVE SYSTEM IN GIRLS WITH CONGENITAL DYSFUNCTION OF THE ADRENAL CORTEX

ABSTRACT

The aim of this study was to analyze the characteristics of the formation and functioning of the reproductive system in girls with congenital adrenal cortex dysfunction based on clinical, hormonal, and instrumental examination methods. The study was conducted between 2020 and 2026 in medical institutions of the Samarkand region and included a retrospective and prospective analysis of 20 patients under dynamic observation. The assessment comprised age and socio-demographic characteristics, general somatic status, anthropometric parameters, gynecological status, features of menstrual function, as well as the results of laboratory investigations (17-hydroxyprogesterone, testosterone, DHEA-S, cortisol) and ultrasound examination of the reproductive organs.

The results demonstrated that the majority of girls with congenital adrenal cortex dysfunction exhibited clinical signs of hyperandrogenism, including acne, seborrhea, male-pattern hair growth, clitoromegaly, and insufficient development of the mammary glands. Menstrual cycle disorders were common, with opsomenorrhea and oligomenorrhea predominating, while amenorrhea and algodysmenorrhea were observed less frequently. Ultrasound findings revealed reduced uterine and ovarian sizes compared with age norms, and in some cases, polycystic ovarian changes. These findings confirm the significant negative impact of congenital adrenal cortex dysfunction on reproductive system development and emphasize the importance of early diagnosis and a comprehensive multidisciplinary approach to the management of affected patients

Key words: congenital adrenal cortex dysfunction, hyperandrogenism, girls, reproductive system, menstrual cycle, 21-hydroxylase deficiency.

Шоўлатов Эркин Холтожиевич
ассистент

Самаркандский государственный
медицинский университет
Самарканд, Узбекистан

Эгамкулов Зайниддин Тошмухаммедович
PhD Самаркандский государственный
медицинский университет
Самарканд, Узбекистан

Ганиев Фахриддин Истамкулович
ассистент
Самаркандский государственный
медицинский университет
Самарканд, Узбекистан

Наил Салаватович Фатхуллин
анестезиолог, реаниматолог

Шавкатов Ҳасан Шавкатович
PhD Самаркандский государственный
медицинский университет
Самарканд, Узбекистан

Самадова Машхура Ёқубжон қизи
Резидент магистратуры
Самаркандский Государственный
медицинский университет
Самарканд, Узбекистан

ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ РЕПРОДУКТИВНОЙ СИСТЕМЫ У ДЕВОЧЕК С ВРОЖДЕННОЙ ДИСФУНКЦИЕЙ КОРЫ НАДПОЧЕЧНИКОВ

АННОТАЦИЯ

Целью настоящего исследования является анализ особенностей формирования и функционирования репродуктивной системы у девочек с врождённой дисфункцией коры надпочечников на основе клинических, гормональных и инструментальных методов обследования. Исследование проводилось в 2020–2026 годах на базе медицинских учреждений Самаркандской области и включало ретроспективный и проспективный анализ данных 20 пациенток, находившихся под динамическим наблюдением. В ходе работы оценивались возрастные и социально-бытовые характеристики пациенток, общее соматическое состояние, антропометрические показатели, гинекологический статус, особенности менструальной функции, а также результаты лабораторных исследований (17-гидроксипрогестерон, тестостерон, DHEA-S, кортизол) и ультразвуковой диагностики органов репродуктивной системы

Результаты исследования показали, что у большинства девочек с врождённой дисфункцией коры надпочечников выявлялись клинические признаки гиперандрогении, включая акне, себорею, гирсутизм по мужскому типу, клиторомегалию и недостаточное развитие молочных желёз. Нарушения менструального цикла носили распространённый характер: преобладали опсоменорея и олигоменорея, реже встречались аменорея и альгодисменорея. По данным ультразвукового исследования у ряда пациенток отмечались уменьшенные размеры матки и яичников по сравнению с возрастной нормой, а также признаки поликистозных изменений. Полученные данные подтверждают отрицательное влияние врождённой дисфункции коры надпочечников на становление репродуктивной системы и подчёркивают необходимость ранней диагностики и комплексного междисциплинарного подхода к ведению данной категории пациенток.

Ключевые слова: врождённая дисфункция коры надпочечников, гиперандрогения, девочки, репродуктивная система, менструальный цикл, недостаточность 21-гидроксилазы.

Dolzarblik: So‘nggi yillarda endokrin tizim kasalliklari, xususan, buyrak usti bezi po‘stlog‘ining tug‘ma disfunktsiyasi (BUPTD) bilan bog‘liq holatlar chastotasi butun dunyo miqyosida ortib bormoqda. Ushbu patologiya genetik jihatdan belgilangan bo‘lib, 21-gidroksilaza fermenti yetishmovchiligi natijasida kortizol va aldosteron sintezi buzilishi hamda androgenlar gipersekretsiyasi bilan kechadi. Bu esa o‘z navbatida qiz bolalarda jinsiy rivojlanishning buzilishi, virilizatsiya, hayz siklining kechikishi yoki to‘xtab qolishi va reproduktiv funksiyaning izdan chiqishiga olib keladi.

BUPTDning erta tashxislanishi ko‘plab mamlakatlarda neonatal skrining dasturlariga kiritilgan bo‘lsa-da, O‘zbekiston sharoitida bu yo‘nalish hali to‘liq yo‘lga qo‘yilmagan. Shu sababli kasallik ko‘pincha kech aniqlanadi va natijada og‘ir klinik oqibatlar — infantilizm, bepushtlik, psixoemotsional buzilishlar va ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklar rivojlanadi.

Bugungi kunda buyrak usti bezlari patologiyalarini o‘rganish nafaqat endokrinologiya, balki pediatriya, ginekologiya va tibbiy genetika fanlarining kesishgan nuqtasida joylashgan muhim ilmiy-amaliy masalalardan biridir. Ayniqsa, BUPTD bo‘lgan qizlarda gormonal va reproduktiv tizim o‘zgarishlarini chuqur o‘rganish, davolashning individual va kompleks yondashuvlarini ishlab chiqish, shuningdek, psixologik reabilitatsiya masalalarini tahlil qilish — dolzarb va istiqbolli ilmiy yo‘nalish hisoblanadi.

Shuningdek, ushbu kasallik bilan og‘rigan bemorlarning hayot sifati, ularning ijtimoiy faoliyati va reproduktiv salomatligini ta‘minlash masalalari ham tibbiy hamda ijtimoiy ahamiyatga ega. Shu bois BUPTDning klinik kechishi, gormonal xususiyatlari va ularning davolashga javobini o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlar milliy sog‘liqni saqlash tizimi uchun amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan dolzarb ilmiy muammo sanaladi

Tadqiqot maqsadi: Buyrak usti bezi po‘stlog‘ining tug‘ma disfunktsiyasi bo‘lgan qizlarda reproduktiv tizim funksiyasining shakllanish xususiyatlarini tahlil qilish

Tadqiqot materiallari: O‘smir qizlarni pro va retrospektiv tahlili uchun 2020-2026-yillarda Samarqand ko‘p tarmoqli bolalar shifoxonasi, "Doktor shifo-baxt" xususiy shifoxonasi va 3-son tug‘ruq majmuasida bo‘lgan 2 nafar bemor

Tekshiruv natijalari: Tadqiqotdagi barcha diagnostik usullar va davolash natijalari 2020–2026 yillar davomida “DOCTOR SHIFO BAXT” mas‘uliyati cheklangan jamiyati xususiy klinikasida o‘tkazilgan bo‘lib, unda buyrak usti bezi tug‘ma disfunktsiyasi bilan og‘rigan 20 nafar bemor ishtirok etdi. Mazkur bemorlar, shuningdek, 3-sonli tug‘ruqxonada ham kuzatuvdan o‘tkazilgan. Tadqiqotda retrospektiv va prospektiv tahlil usullaridan foydalanilib, ultratovush diagnostika xususiyatlari o‘rganildi. Natijada asosiy guruh sifatida 20 nafar bemor shakllantirildi.

ASOSIY GURUHGA KIRITISH MEZONLARI:

- ✓ BUBTD sindromi tashxisining tashxislangan bo‘lishi;
- ✓ Neonatal (yangi tug‘ilgan chaqaloqlar) skrining
- ✓ Ultratovush tekshiruv o‘tkazilgan bo‘lishi
- ✓ Buyrak usti bezi po‘stloq gormonlarining qondagi tahlili o‘tkazilganligi

- ✓ Bemorlarning tekshiruv o‘tkazishga rozilik berishi
- CHIQQISH MEZONLARI:**
- ✓ Boshqa jinsiy rivojlanish anomaliyalari;
 - ✓ Bemorning tekshiruvga rozilik bermasligi;
 - ✓ Yuqumli, gematologik yoki onkologik kasalliklarning mavjudligi.

Tadqiqot doirasida bemorlarning tibbiy kartalari, anamnez ma‘lumotlari, laborator va instrumental diagnostika natijalari, terapevt, akusher-ginekolog hamda zaruratga ko‘ra boshqa tor mutaxassislar ko‘rigi asosida tahlillar o‘tkazildi.

HAR BIR BEMOR UCHUN TIBBIY TARIX (KASALLIK VARAQASI) TUZILGAN BO‘LIB, U QUYIDAGI MA‘LUMOTLARNI O‘Z ICHIGA OLGAN:

- ✓ Pasport ma‘lumotlari (F.I.Sh., yosh, jinsi, oilaviy holati, kasbi, lavozimi, ish va yashash joyi);
- ✓ Asosiy shikoyatlar (tashqi jinsiy a‘zodagi o‘zgarishlar, hayznning yo‘qligi, soch to‘kilishi, erkakcha tuk chiqishi va mushak massasining ortishi);
- ✓ Kasallikning boshlanishi, rivojlanish sabablari, kasallik kechishi, davolanish usullari va samaradorligi;
- ✓ Irsiy omillar, onaning homiladorlik va tug‘ruqning kechishi, zararli odatlar (chekish, spirtli ichimlik iste‘moli) haqida ma‘lumotlar.

Bemorlarning umumiy ko‘rigi jarayonida quyidagilar baholandi: tana tuzilishi, teri holati, limfa tugunlari, tana harorati, yurak, o‘pka, ovqat hazm qilish, siydik-tanosil, asab va endokrin tizimlar faoliyati. Bo‘y, tana vazni, tana massasi indeksi (BMI), bel va son atrofi o‘lchandi, ularning o‘zaro nisbatlari aniqlanib, biologik yosh bilan solishtirildi. Ginekologik tekshiruvlar sub‘yektiv (shikoyatlar, anamnez) va obyektiv ma‘lumotlarga asoslangan bo‘lib, umumiy hamda maxsus ko‘riklardan iborat edi.

Tibbiy hujjatlar-bolalik davridagi ambulatory kartalar, poliklinika va ayollar maslahatxonasi ma‘lumotlari, shifoxona epikrizlari tahlil qilindi.


Maxsus tekshiruv ikki bosqichda o‘tkazildi:

1. Asosiy usullar: tashqi jinsiy a‘zolari ko‘rikdan o‘tkazish, jinsiy yoriqning ochiq yoki yopiq holati, katta va kichik lablarning rivojlanish darajasi, klitor holati va rivojlanishdagi og‘ishlar (anomaliyalarni baholash).
2. Qo‘shimcha usullar: ultratovush diagnostikasi, laborator tahlillar (buyrak usti bezi po‘stloq qavati gormonlari), endoskopik va funksional usullar.

Ginekologik anamnezda tashqi jinsiy a‘zolarning rivojlanish darajasi, siydik chiqarish yo‘li joylashuvi, sochlanish turi, klitor holati, menstruatsiya xususiyatlari (boshlanish vaqti, davomiyligi, og‘riqlarning mavjudligi) baholandi. Shuningdek, bemor, uning onasi va opa-singillaridagi ginekologik kasalliklar haqida ma‘lumotlar yig‘ildi.


Bemorlarning o‘rtacha yoshi 18,6 yoshni tashkil etdi: (2.1 rasm) 10–15 yosh oralig‘ida — 12 nafar (60%), 17–25 yosh oralig‘ida — 8 nafar (40%)

Bemorlarning yosh bo‘yicha nisbati



2.1 rasm Bemorlarning yosh bo‘yicha nisbati


Yashash joyi bo'yicha: (2.2 rasm)
 Shahar aholisi — 13 nafar (65%),
 Qishloq aholisi-7 nafar(35 %)




2.2 rasm. Bemorlarning yashash joyi bo'yicha nisbati

SOG'LOM TURMUSH TARZIGA TAHDID SOLUVCHI OMILLAR: (2.3 RASM)

Doimiy stress — 8 (40%),
 Gipodinamiya (kam harakatlilik) — 4 (20%),
 Noto'g'ri ovqatlanish — 8 (40%),



2.3 rasm Sog'lom turmush tarziga tahdid soluvchi omillar



2.4 rasm Qon guruhlari bo'yicha nisbat

Bemorlar qon guruhlari bo'yicha quyidagicha nisbatni ko'rsatdi:

- ✓ I qon guruh – 10 ta bemor (50%),
- ✓ II qon guruh – 3 ta bemor (15%),
- ✓ III qon guruh – 5 ta bemor (25%),
- ✓ IV qon guruh – 2 ta bemor (10%). (2.4 rasm)

2. BUBPTD bilan og'riqan bemorlarning hayz (menstrual) funksiyasi

BUBPTD bilan kasallangan qizlarda virilizatsiyaning yuqori darajasida sut bezlari Tanner shkalasi bo'yicha III bosqichdan yuqoriga rivojlanmaydi.; hayz ko'rish yuzaga kelishi mumkin, biroq bu buyrak usti bezlaridan kelib chiqadigan giperandrogeniya fonida ro'y beradi. Bu holat adenogipofizda gonadotrop gormonlarning sintezi va

ajralishini to'sadi., natijada hayz sikli to'liq shakllanmaydi. Shu sababli tuxumdonlar kichrayadi, polikistoz rivojlannadi va bachadon rivojlanmay qoladi. bemorlarning asosiy klinik belgilaridan biri- hayz siklining turli xil buzilishlari, eng ko'p hollarda oligomenoreya, kamroq hollarda esa amenoreya yoki asiklik bachadondan qon ketishlari uchraydi.


Biroq e'tiborli jihati shundaki, o'smirlik davrida hayz siklining vaqtinchalik buzilishi ba'zan, menstrual siklning shakllaning

jarayonining fiziologik variant bo'lishi mumkin. Shunday hollarda, patalogik jarayonni aniqlash uchun uzoq muddatli kuzatuv talab etiladi.

TADQIQOT NATIJALARIGA KO'RA:

- ✓ Opsomenoreya kuzatilgan bemorlar (11 nafar) 55 %
- ✓ Oligomenoreya (4 nafar) 20%
- ✓ Amenoreya (3 nafar) 15 %
- ✓ Algodismenoreya (2 nafar) 10 % ni tashkil etgan. (2.5 rasm)

2.5 rasm: Hayz davri o'zgarishlari



XULOSA: Buyrak usti bezi po'stlog'ining tug'ma disfunktsiyasi (BUPTD) bo'lgan qizlarda o'tkazilgan klinik-gormonal, laborator va ultratovush tadqiqotlari ushbu patologiyani erta tashxislanishi va davolash samaradorligini oshirish zarurligini ko'rsatdi. Tadqiqot natijalari shuni tasdiqladiki, BUPTD reproduktiv tizim faoliyatining shakllanishiga, jinsiy rivojlanish jarayoniga va ayollarda keyinchalik homiladorlik qobiliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Ko'pchilik bemorlarda klinik jihatdan giperandrogeniya belgilari — akne, seboreya, erkak tipidagi soch o'sishi, hayz siklining buzilishi va klitoromegaliya kuzatildi. Gormonal tahlillar 17-gidrokspirogesteron, testosteron va DHEA-S miqdorining ortganini aniqladi. Bu esa kortizol sintezi yo'lidagi ferment etishmovchiligining (asosan 21-gidrosilaza) patogenetik rolini tasdiqlaydi.

Davolashda glukokortikoid terapiya (gidrokortizon, deksametazon) bilan erta boshlangan o'rni bosuvchi davolash kasallikning og'ir klinik kechishini yumshatadi, ikkilamchi jinsiy belgilarni normallashtiradi va reproduktiv funksiyani tiklash imkonini beradi. Kech tashxis qo'yilgan holatlarda esa davolash fonida ham hayz

siklining to'liq tiklanmasligi, bepushtlik va psixologik moslashuv buzilishi holatlari qayd etildi.

Shuningdek, BUPTD bilan og'irgan qizlarda psixoemotsional holatning noqulayligi, tashqi ko'rinishdagi o'zgarishlarga nisbatan ijtimoiy moslashuv qiyinchiliklari aniqlanib, bu holat kompleks yondashuv — endokrinolog, ginekolog, psixolog va genetik mutaxassislar hamkorligini talab qiladi.

TADQIQOT NATIJALARI ASOSIDA QUYIDAGI XULOSALARGA KELINDI:

1. BUPTDning erta tashxislanishi giperandrogenizm oqibatlarini kamaytiradi va reproduktiv salomatlikni saqlashda muhim ahamiyatga ega.
2. Gormonal skrining (17-OH-progesteron, kortizol, testosteron) yangi tug'ilgan davrdanoq amalga oshirilishi zarur.
3. Uzoq muddatli gormonal terapiya individual yondashuv asosida o'tkazilganda o'sish, rivojlanish va hayz funksiyasini normallashtirish mumkin.
4. BUPTD bilan og'irgan bemorlarni kuzatishda tibbiy-psixologik reabilitatsiya choralari majburiy tarkibiy qism bo'lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Талыблы А. А., Алиева Э. М., Ахундова Н. Э. Причины развития синдрома гиперандрогении в период полового созревания // Медицинские новости. – 2020. – № 3 (306). – С. 75-78.
2. Арипова Ф. С., Гайбуллаева Д. Ф., Карибаев Е. Е. СИНДРОМ ГИПЕРАНДРОГЕНИИ У ДЕВОЧЕК ПУБЕРТАТНОГО ВОЗРАСТА // Re-health journal. – 2024. – № 2 (22). – С. 20-29.
3. Ширавва А. Х. и др. Современный взгляд на клиническую и лабораторную диагностику синдромов поражения надпочечников у детей. – 2022.
4. Ничипоренко М. С., Хуцишвили О. С. Роль андреновых влияний препубертатного периода в развитии синдрома поликистозных яичников // Иппова. – 2021. – № 2 (23). – С. 14-17.
5. Микитюк М. Р., Хижняк О. О. Синдром гиперандрогении: диагностика и лечение с позиций клинической эндокринологии // Международный эндокринологический журнал. – 2020. – Т. 16. – № 8. – С. 662-668.

6. Адамян Л. В. и др. Синдром гиперандрогении у девочек-подростков //Российский педиатрический журнал. – 2024. – Т. 27. – №. 1. – С. 55-60.
7. Смирнов В. В., Бикбаева Л. И. Хроническая надпочечниковая недостаточность у детей и подростков (Часть 2) //Лечащий врач. – 2020. – №. 7. – С. 52-57.
8. Смирнов В. В., Сапарова А. Э. Синдром гипоальдостеронизма у детей и подростков //Лечащий врач. – 2020. – №. 3. – С. 7-16.
9. Королева Е. И. и др. Генетические аспекты неклассической формы врожденной гиперплазии коры надпочечников: литературный обзор и собственный опыт //Молекулярная медицина. – 2020. – Т. 18. – №. 3. – С. 11-19.
10. Клинико-патогенетические механизмы формирования гиперандрогенной дисфункции яичников у девочек-подростков. 2020. Московкина Анжела Владимировна.

**ЖУРНАЛ РЕПРОДУКТИВНОГО ЗДОРОВЬЯ
И УРО-НЕФРОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ**
**JOURNAL OF REPRODUCTIVE HEALTH AND
URO-NEPHROLOGY RESEARCH**

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадqiqот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000